





**Sh. USMANOVA, N. BEKMUXAMEDOVA,
G. ISKANDAROVA**

SOTSIOLINGVISTIKA

J. Frank

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHOIRA USMANOVA, NARGIZ BEKMUXAMEDOVA,
GULBAHOR ISKANDAROVA

SOTSIOLINGVISTIKA
O'quv qo'llanma

Toshkent
“Universitet”
2014

Mazkur o'quv qo'llanmada sotsiolingvistika fanining asosiy tushunchalari, masalalari, yo'nalishlari va metodlari tahlil va talqin etilgan. Shuningdek, kitob so'nggida sotsiolingvistikaning tayanch terminlari lug'ati (glossariy) keltirilgan.

Qo'llanma filologiya fakultetlarining talabalari, magistrantlari, o'qituvchilari, tadqiqotchilari hamda keng kitobxonlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir filol. fan. dokt., prof. A.A.Abduaizizov

Taqrizchilar: filol. fan. dokt., prof. A.E.Mamatov
filol. fan. dokt., prof. H.A.Dadaboyev

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
bakalavr ta'lif yo'nalishi bo'yicha o'quv qo'llanma

Ushbu o'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU kengashining 2013-yil 29-oktabrdagi 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN-978-9943-305-89-2

KIRISH

Bugungi kunda fan sohalari orasidagi chegara ancha nisbiy xarakter kasb etmoqda. Bunday fanlarga sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash nuqtasida rivojlanayotgan sotsiolingvistika misol bo‘la oladi. *Sotsiolingvistika* tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo‘lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liqligini o‘rganadigan sohasidir. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyat, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog‘liq bo‘lgan nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, *sotsiolingvistika* tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiatini, ijtimoiy funksiya(vazifa)lari, ijtimoiy omillarning tilga bo‘lgan ta’sir mexanizmi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasidir.

“Sof” lingvistika lisoniy belgilarni, chunonchi, tovush va uning yozma ifodasini, uning boshqa belgilarni bilan o‘zaro munosabatini, vaqt va zamonda o‘zgarishini va h.k. tahsil qilish bilan shug‘ullansa, sotsiolingvistika insonlar mazkur lisoniy belgilarni ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, bilimi va madaniyatlilik darajasiga ko‘ra qanday qo‘llashlarini, ya’ni ijtimoiy muhitning ularning nutqiy muomalasiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Masalan, “sof” lingvistikada *tomi ketmoq* iborasi ot va fe’ldan tarkib topgan frazeologik birlik sifatida talqin qilinsa, sotsiolingvistikani mazkur ibora qaysi tabaqa vakilining so‘zlashuv nutqida qo‘llanilgani qiziqtiradi.

Xullas, sotsiolingvistikikaning tilga nisbatan o‘ziga xos yondashuvini va uning “sof” lingvistikadan farqini tushunish uchun sotsiolingvistikikaning manbalarini ko‘rib chiqish, uning tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlari orasidagi mavqeyini belgilash, uning obyekti va asosiy tushunchalarini, u shug‘ullanadigan masalalarni aniqlab olish lozim bo‘ladi.

Sotsiolingvistikikaning manbalari. Tilning ijtimoiy turli-tumanligi haqidagi dastlabki fikrlar XVII asrning boshlarida vujudga kelgan edi. Jumladan, Ispaniya Salaman universiteti professori Gonsalo de Korreas tilning ijtimoiy turli-tumanligi xususida shunday yozgan: “Tilda viloyatlardagi dialektlardan tashqari, mazkur viloyatlarda yashovchilarining yoshi, mavqeyi, mol-mulki bilan bog‘liq ayrim shakllar ham mavjud bo‘ladi. Bular: qishloq aholisi, avom xalq, shaharliklar, zodagonlar, saroy

ahli, tarixchi olimlar, din arboblari, qariyalar, erkaklar, ayollar va hatto, bolalarning tillaridir¹.

“Sotsiolingvistika” termini fanga birinchi marta 1952-yilda amerikalik sotsiolog G.Karri (Currie 1952) tomonidan kiritildi. J.A.Fishmanning “Til jamiyatidagi ma’ruzalar” (“Readings in the Society of Language”) nomli to’plamiga kirgan 50-yillarning lingvistlari, sotsiologlari, madaniyat antropologlari, dialektologlari va kommunikatsiya (muloqot) sohasi turli mutaxassislarining maqolalarida sotsiolingvistikaga oid muammolar ko’tarib chiqildi. Kitobning “So’zboshi”sida J.A.Fishman “til sotsiologiyasi” va “sotsiolingvistika” terminlarining sinonim sifatida qo’llanishiga e’tibor qaratadi.

Ayrim sotsiolingvistlarning fikricha, sotsiolingvistikaning ijdizlarini Amerika tilshunosligidan emas, balki Yevropa, xususan, rus tilshunosligidan izlash kerak².

Sotsiolingvistikaning shakllanishida I.A.Boduen de Kurtenening til hodisalarining ijtimoiy shartlanganligi, shuningdek, tilning qo’llanishi va rivojlanishiga ekstralolingvistik ijtimoiy omillar ta’siri borasidagi tadqiqotlari katta rol o’ynagan. 1974-yilda “Русский язык зарубежом” jurnalida e’lon qilingan maqolada N.G.Mixaylovskaya I.A.Boduen de Kurteneni “rus va sovet tilshunosligidagi sotsio-etnolingvistik tadqiqotlarning asoschisi” tarzida atagan. I.A.Boduen de Kurtene: “Til faqat kishilar jamiyatida mayjud ekan, u holda, uning ruhiy tomonidan tashqari, ijtimoiy tomoniga ham har doim e’tibor qaratishimiz kerak. Nafaqat individual psixologiya, balki sotsiologiya ham tilshunoslikning asosi bo’lib xizmat qilishi lozim”, - deb yozgan³.

XX asrning birinchi yarmida Fransiya, Rossiya, Chexiya tilshunoslik maktablarida tillarning ijtimoiy tabiatiga katta ahamiyat berilgan. Rus tilshunoslari I. A. Boduen de Kurtene, Y.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, A.M. Selishev, G.O.Vinokur, fransuz tilshunoslari F.Bruno, A.Meye, P.Lafarg, M.Koen, shved tilshunoslari Sh.Balli, A.Seshe; belgiyalik tilshunos J.Vandries, chek tilshunoslari B.Gavranek, A.Mateziuslarning ilmiy g’oyalari sotsiolingvistikaning fan sifatida shakllanishiga turtki bo’ldi. Binobarin, A. Meyening til – jamiyat hayoti bilan bevosita aloqada bo’lgan ijtimoiy hodisa bo’lgani uchun uning rivojlanishida differensiatsiya va unifikatsiya jarayonlari mayjudligi; Sh.Ballining tilning barcha vositalari muloqot doirasiga ko’ra

¹ Степанов Г. В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. -М., 1976. С. 22.

² Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. -С. 6-7.

³ Бодуэн де Куртенэ И. А. Избранные труды по общему языкознанию. Том II. - М.: Изд-во Академии наук СССР, 1963. - С. 15.

taqsimlanishi, bunday taqsimlanishda ijtimoiy o'zaro bog'liqlikning salmoqli o'ren tutishi; rus va chek tilshunoslarining yagona milliy til egalarining ijtimoiy mavqeyiga bog'liq bo'lgan ijtimoiy differensiatsiya; Y.D.Polivanovning jamiyatning tilga ta'siri to'g'ridan to'g'ri bo'lmasligi, jamiyatdagi o'zgarishlarning til evolyutsiyasini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkinligi haqidagi, shuningdek, hududiy dialektologiya bilan birga, ijtimoiy dialektologiyaning ham muhimligini asoslash; B.A. Larin, V.M.Jirmunskiy, D.S.Lixachevlarning milliy til ichki tizimini tushunishda jargonlar, argolar va tilning boshqa kodlashmagan sohalarini o'rganishning muhimligi to'g'risidagi g'oyalari shular jumlasidandir⁴.

XX asrning birinchi yarmidagi sotsiolingvistika dioxron jihatdan talqin qilingan bo'lsa, ya'ni unda til evolyutsiyasi bilan jamiyat rivojlanishining bog'liqligiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmidagi sotsiolingvistik tadqiqotlar sinxron xarakterga ega bo'lib, ularda til strukturasi unsurlari bilan jamiyat strukturasi unsurlari orasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.

Sotsiolingvistikaning fan sifatidagi mavqeyi. A.Keypelning fikricha, "sotsiolingvistika" terminining o'zi o'zini aniqlab keladi. O'z nomidan ham ko'rinish turganidek, sotsiolingvistika sotsiologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga kelgan fan hisoblanadi. Sotsiolingvistikaning fanlararo xarakteri aksariyat tadqiqotchilar tomonidan tan olingan (q.: Hymes 1972, Kraus 1974 va h.k.). Lekin bunday tan olish o'z-o'zidan: mazkur fanda sotsiologiya ko'pmi, yoki lingvistika ko'pmi? Sotsiolingvistika bilan sotsiologlar shug'ullanishadimi yoki tilshunoslar shug'ullanishadimi? degan savollarga javob bermaydi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy sotsiolingvistika – tilshunoslikning sohalaridan biri. Ushbu soha endigina shakllanayotgan, "oyoqqa turayotgan" paytda uning mavqeyi haqida munozara qilish mumkin edi. Biroq bugungi kunga kelib, sotsiolingvistikaning nafaqat tadqiqot obyekti, maqsadi hamda vazifalari aniqlandi, balki uning tilshunoslikka xos tabiatini ochib beradigan salmoqli natijalarga ham erishildi.

Shu bilan birga, sotsiolingvistlarning sotsiolog (shuning uchun "sotsio-...")lardan ko'plab metodlarni, xususan, ommaviy tadqiqot metodlari, anketalashtirish, og'zaki metodlar, og'zaki so'rov va intervyu metodlarini o'zlashtirishganini ham tan olish kerak. Biroq sotsiolingvistlar mazkur metodlardan tilni o'rganish vazifalaridan kelib chiqqan holda

* Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 7.

ijodiy foydalanishadi, bundan tashqari, ular asosida til faktlari va til egalari bilan ishslashga qaratilgan xususiy metodik usullar yaratilmoqda.

Sotsiolingvistikaning obyekti belgilashda tilshunoslarni ikki guruhga ajratish mumkin. Tilshunoslarning bir guruhi butun tilga tegishli bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni, til va jamiyat munosabatlarini o‘rganishadi. Biroq nutq so‘zlovchisiga, tilning kelib chiqishiga, uning umumiy xususiyatlariha munosabat bildirishmaydi. Boshqa bir guruh tilshunoslarni esa turli tillarning individual variantliligiga va mikrojarayonlar (shaxslararo muloqot, kichik guruhlar muloqoti)ga e’tibor qaratishadi.

Zamonaviy sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri bo‘lgan amerikalik tadqiqotchi U.Labov sotsiolingvistikani “tilni uning ijtimoiy kontekstida” o‘rganadigan fan sifatida belgilagan. Boshqacha qilib aytganda, sotsiolingvistlar tilga ham, uning ichki tuzilishini o‘rganishga ham e’tibor qaratmaydilar. Ular, asosan, u yoki bu jamiyatdagi insonlarning tildan qanday foydalanishlarini tadqiq etadilar. Bunda tilga ta’sir qiluvchi barcha ijtimoiy omillar: muloqotga kiruvchilarning yoshi, jinsi, madaniyati va bilim darajasi, kasbidan tortib, to aniq nutqiy aktning xususiyatlari gacha hisobga olinadi⁵.

U.Braytga ko‘ra, sotsiolingvistik tadqiqotlar til va jamiyat munosabatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Biroq bunday qarash ham noaniqlikni keltirib chiqaradi. Agar biz bunga aniqlik kiritadigan bo‘lsak, unda til va jamiyat shunchaki qandaydir birliliklarning majmuyi emas, balki ular struktura hisoblanadi. Mazkur holatda sotsiolingvistning vazifasi til strukturasi dagi va ijtimoiy strukturadagi o‘zaro munosabatlar tizimini ochib berish bo‘ladi. Ya’ni sotsiolingvistlarning vazifasi lingvistik strukturaning sistematik qo‘shma variatsiyalashuvini ko‘rsatib berish, hatto, u yoki bu yo‘nalishning tasodifiy aloqasini ochib berishdan iboratdir. Sotsiolingvistikaning asosiy vazifalaridan biri mazkur variatsiyalarning haqiqatan ham “erkin” emasligi, ularni sistematik, sotsial farqlar bilan o‘zaro aloqada ekanligini ko‘rsatib berishdir. Til farqlilagini ana shunday keng planda tushunish sotsiolingvistikaning asosiy obyekti sanaladi⁶.

Fransuz tilshunoslarning fikricha, diskurs tahlili, til me’ori, variantlilik, diglossiya kabi muammolar sotsiolingvistikaning obyekti hisoblandi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy funksiyalarini, shuningdek, ijtimoiy omillarning tilga ta’sirini o‘rganadigan fandir. Ikki yoki uch til amal qilayotgan jamiyatlarda sotsiolingvist

⁵ Labov W. Phonological correlates of social stratification. AA, 66 (6), part 2, 1964. -P. 170

⁶ Брайт У. Введение: параметры социолингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. - М., 1975. - 41.

quyidagi savollarga javob olishi uchun bir necha til funksiyalari mekanizmini ularning o'zaro ta'sirida tadqiq qilishi lozim. Ular ijtimoiy hayotning qaysi sohalarida qo'llaniladi? Mavqeyi va funksiyalariga ko'ra uning orasidagi o'zaro munosabat qanday bo'ladi? Qaysi til "hukmronlik qiladi", ya'ni qaysi til davlat tili yoki asosiy muloqot vositasi sifatida rasman qabul qilingan va qaysi tillar so'zlashuv tili hisoblanadi? Ikki uthilik qanday sharoitlarda va qaysi shakllarda yuzaga keladi? Bunga o'xshash savollarga javob berish sotsiolingvistikaning salohiyatiga kiradi.

Demak, sotsiolingvistikaning *obyekti* til yoki tillarning ijtimoiy faoliyatidir. Til muayyan ijtimoiy strukturaga ega bo'lgan jamiyatda faoliyat ko'rsatadi, shunga ko'ra, sotsiolingvistikani tilni ijtimoiy kontekstda o'rjanadigan fan deyish mumkin.

Sotsiolingvistikaning predmetini belgilashda nemis sotsiolingvistlari quyidagi fikrlarni bildirishgan. Jumladan, A.N. Dittmar sotsiolingvistikaning predmetini shunday izohlagan: "Sotsiolingvistika predmetini tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning metodlaridan foydalaniib: Kim kim bilan qaysi tilda, qanday ijtimoiy muhitda va qanday maqsadda gaplashyapti, nutuq aktining oqibati qanday bo'ladi? degan qator savollarga javob beruvechi tarzida tushuntirish mumkin"⁸. D.Vunderlix sotsiolingvistikada alohida kommunikativ jarayonlarning ichida bevosita kuzatiladigan turli omillarning o'zaro aloqasini tadqiq etilishi, ya'ni jamiyatning ijtimoiy differensiatsiyasining qandaydir asos sifatida o'rjanishilishini, uni nutqiy muomalaning rol, vaziyat va mavzu turlariga ajraladigav setsiologik o'lechovlari bilan bog'lanishini istiqbolli yondashuvlardan biri, deb hisoblagan⁹.

Amerika sotsiolingvistikasining tadqiqotchisi S.M.Ervin-Tripp kommunikatsiya jarayonidagi partner (muloqot ishtirokchi)larning verbal muomalasiga sotsiolingvistikaning asosiy predmeti sifatida qaraydi: "Sotsiolingvistika ishtirokchilarning holatga, mavzuga, o'zaro ta'sir funksiyalariga, shakl va baholarga ko'ra verbal muomalasi bilan ish ko'rad". Mazkur ta'rifning markazi verbal muomaia (so'zlashuv va uning muqobillari) hisoblanadi. Bu o'rinda sistemani to'liq tavsiflash uchun lingvistik belgilarning funksional muqobillari sanalgan ishoralar va tasvirlarni ham kiritish lozim bo'ladi. Biroq verbal muomala yuqori

⁸ Бекиров В.И., Крысин Л.Н. Социолингвистика. -М., 2001. -С. 9
⁹ Dittmar N. Soziolinguistik. Exemplarische und kritische Darstellung ihrer Theorie, Empirie und Anwendung. - Frankfurt. Main, 1973. -P. 389.
Гензель D. Zum Status der Soziolinguistik // Aspekte der Soziolinguistik. - Frankfurt, 1971. -P. 316-317.

darajadagi to'liq sistema sifatida o'zini har joyda namoyon qiladi. Shunga ko'ra, uni qulay boshlang'ich nuqta deyish mumkin"¹⁰.

Buyuk Britaniya sotsiolingvistikasining predmeti, asosan, turli qatlamlar va sinflarning til qo'llashimi o'rganish bilan cheklanadi. Binobarin, "til to'siqlari", "yoyiq va yig'iq kod", "kompensatsiyali ta'llim" kabi masalalar keng tadqiq etiladi. Mazkur muammolar sotsiolingvistik xususiyatga ega bo'lsa-da, hodisalarning asl mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, sotsiolingvistikaning *predmetini* qisqacha "inson va jamiyat", deb belgilash mumkin.

¹⁰ Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. - М., 1975. - С. 336.

1-MA'RUZA

LISONIY HAMJAMIYAT VA IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV TIZIMLAR

Reja:

1. Lisoniy hamjamiyat
2. Ijtimoiy-kommunikativ tizim
3. Lisoniy kod
4. Til qo'llash sohasi

Tayanch so'z va tushunchalar: lisoniy hamjamiyat, ijtimoiy-kommunikativ tizim, kod, subkod, kodlashgan til, tilning uslubiy ko'rinishlari, til mavjudligi shakllari, registrlar, til qo'llash sohasi.

1.1. Lisoniy hamjamiyat

Lisoniy hamjamiyat - ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatda o'zaro bog'liq bo'lган, bir til yoki bir necha til yordamida kundalik hayotda bir-birlari va turli ijtimoiy institutlar bilan o'zaro muloqotga kirishuvchli insonlar majmuyi.

Tilning tarqalish chegaralari har doim ham siyosiy chegaralarga mos tushavermaydi. Masalan, hozirgi Afrikada bir necha davlatlarning aholisi bir tilda gaplashsa (chunonchi, suaxili tili Tanzaniya, Keniya, Uganda, Mozombik va Zoirda tarqalgan), boshqa bir davlatda bir necha tillarda muloqot qilinadi (Nigeriyada 200dan ortiq tillar mavjud)¹¹. Shuning uchun "lisoniy hamjamiyat" tushunchasini aniqlashda lingvistik va ijtimoiy xususiyatlarni birligi muhim hisoblanadi. Agar biz faqat lingvistik xususiyatlarni oladigan bo'lsak, u holda, gap faqat muhitga bog'liq bo'lmanan til haqida boradi; faqat ijtimoiy mezonlar (siyosiy-iqtisodiy va madaniy omillar)ga tayanadigan bo'lsak, unda mazkur ijtimoiy jamoada faoliyatda bo'lgan til e'tibordan chetda qoladi.

Lisoniy hamjamiyat deganda, katta bir davlatdan tortib, kichik ijtimoiy guruhlar (oila, sport komandasiga)ga kiruvchi turli miqdordagi individlar majmuyini tushunish mumkin. Bunday holatlarda ajratish mezonii ijtimoiy jamoa va doimiy kommunikativ aloqalarning mavjudligi bo'lishi lozim. Bir lisoniy hamjamiyat boshqasiga nisbatan hajm jihatdan katta bo'lishi mumkin. Masalan, Buyuk Britaniya katta lisoniy hamjamiyat

¹¹ Виноградов В. А., Коваль А. И., Порхомовский В.Я. Социолингвистическая типология. Западная Африка. -М., 1984.

bo'lib, u o'z ichiga kichik hajmdagi lisoniy hamjamiyatlarni: Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyani oladi. Yoki hozirgi Rossiya respublikalar, viloyatlar, shaharlar singari kichik lisoniy hamjamiyatlardan tarkib topgan katta lisoniy hamjamiyatdir. O'z navbatida shahar ham lisoniy hamjamiyat sifatida korxonalar, tashkilotlar, o'quv yurtlarini o'z ichiga oladi.

Lisoniy hamjamiyatlar soni qanchalik kam bo'lsa, til birligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Jumladan, Buyuk Britaniyada ingliz tilidan tashqari vallyi, korn, shotland va shotland-gel tillari ham faol qo'llaniladi. Rossiyada rus tilidan tashqari o'nlab milliy tillar va dialektlar bir-biri bilan o'zaro aloqadadir.

Korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, o'rta maktablar kabi lisoniy hamjamiyatlar doirasida faqat bir til muloqot vositasi hisoblanadi. Biroq oila singari kichik lisoniy hamjamiyatlarda muloqot vositasi sifatida ikki hatto, uch til (turli davlatlarda yashovchi muhohirlarning oilasida) qo'llanilishi mumkin.

1.2. Ijtimoiy-kommunikativ tizim

Muayyan lisoniy hamjamiyatda qo'llaniladigan, funksional jihatdan bir-birini to'ldiradigan, o'zaro aloqada bo'lgan kodlar yoki subkodlar majmuyi *ijtimoiy-kommunikativ tizimni* tashkil qiladi.

Bu o'rinda "funksional jihatdan to'ldirish" ifodasini izohlash lozim bo'ladi. "Funksional jihatdan to'ldirish" ijtimoiy-kommunikativ tizimni tashkil qiladigan kodlar va subkodlardan har biri o'zining funksiyasiga (ayni paytda ular funksiyasiga ko'ra bir-birini to'ldiradi) egaligini bildiradi. Masalan, adabiy tilning ilmiy, rasmiy, publisistik, badiiy va h.k. uslublari o'ziga xos maxsus vazifalarga ega bo'lishi bilan birga, funksional jihatdan bir-birini to'ldirib, jamiyatning kommunikativ ehtiyoji va muloqotning barcha sohalariga xizmat qiluvchi tizimni tashkil qiladi.

Ko'p tillilik jamiyatida ijtimoiy-kommunikativ tizimni turli tillar tashkil qiladi va kommunikativ funksiyalar ular orasida taqsimlanadi (bu o'rinda tillardan har biri subkodlarga: dialektlarga, jargonlarga, uslublarga bo'linishi mumkin).

1.3. Lisoniy kod

Har bir lisoniy hamjamiyatda muayyan muloqot vositalari: til, dialekt, jargon va tilning uslubiy ko'rinishlaridan foydalilanadi. Har qanday muloqot vositasini *kod* deb atash mumkin.

Demak, *kod* muloqot vositasi bo'lib, u tabiiy tillar (o'zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun'iy tillar: esperanto yoki zamonaviy mashina

tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikda **kod** deganda lisoniy shakllar: til, hududiy yoki ijtimoiy dialekt, shahar koynesi tushuniladi.

“Kod” termini bilan bir qatorda “subkod” termini ham ishlataladi. Masalan, hozirgi o‘zbek milliy tilining subkodlari bu – adabiy til, hududiy dialektlar, ijtimoiy jargonlar, shahar (Toshkent) koynesi hisoblanadi.

Subkodlar ham o‘z navbatida turlarga bo‘linib, tarkibiga quyi darajadagi subkodlarni kiritishi mumkin. Masalan, rus adabiy tili milliy tilga nisbatan subkod bo‘lgani holda, ikki turga: kodlashgan va so‘zlashuv tillariga ajraladi. Bularidan har biri o‘ziga yarasha vazifalariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi: kodlashgan til nutqning adabiy shaklida, so‘zlashuv tili esa nutqning kundalik og‘zaki shaklida qo‘llaniladi. O‘z navbatida kodlashgan adabiy til ilmiy, rasmiy, publisistik, badiiy va h.k. uslublarga bo‘linadi. Bunga o‘xhash holat so‘zlashuv tilida ham kuzatiladi¹².

Rus sotsiolingvistikasida subkodlar ko‘pincha *til mayjudligi shakllari*, G‘arb sotsiolingvistikasida *registrlar*, deb ham yuritiladi.

1.4. Til qo‘llash sohasi

Inson faoliyatining turli sohalariga: ishlab chiqarish, ta’lim, ilm-fan, tijor‘maishiy turmush va boshqalarga muvofiq til (agar gap ko‘p tilli jamiyat haqida borayotgan bo‘lsa, u holda, tillar) qo‘llashning turli sohalari ajratiladi.

Til qo‘llash sohasi so‘zlashuvchilarning muayyan til vositalari va ularning bir-biri bilan birikuv qoidalarni tanlab olib amalga oshishini qondiradigan, bir xil kommunikativ ehtiyojlarni xarakterlaydigan til tashqarisidagi muhitdir.

Til vositalari va ularni bir-biri bilan birikuv qoidalarni tanlab olish natijasida inson faoliyatining muayyan sohasi bilan ma‘lum lisoniy kod (subkod)ga bog‘liq holda, ko‘proq yoki kamroq barqaror (mazkur til hamjamiyati uchun) bo‘lgan an‘ana shakllanadi. Masalan, o‘rta asrlarda Yevropada ibodatda va ilmiy sohada qo‘llanilgan lotin tili kommunikativ vosita vazifasini o‘tagan. Rossiyada uzoq vaqt davomida cherkov-slavyan tili madaniy-kommunikativ vosita rolini bajargan. Bugungi kunda Pomirda pomir tillaridan bo‘lgan yozuvsiz shugnan tili oila ichi va kundalik muloqotda qo‘llanilsa, rasmiy doirada, shuningdek, “begonalar” bilan muomala jarayonida tojik va rus tillaridan foydalaniadi.

¹² Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. – М., 2001. – С. 14.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Lisoniy hamjamiyat nima?
2. Nima uchun “lisoniy hamjamiyat” tushunchasini aniqlashda lingvistik va ijtimoiy xususiyatlar birligi muhim hisoblanadi?
3. Katta va kichik lisoniy hamjamiyatlarni qanday izohlaysiz?
4. Ijtimoiy-kommunikativ tizim tushunchasi nima?
5. Qanday kod yoki subkodlar majmuyi ijtimoiy-kommunikativ tizimni tashkil qiladi?
6. Adabiy tilning funksional jihatdan bir-birini to‘ldiruvchi qanday vazifalarini bilasiz?
7. Kod nima?
8. Subkod nima?
9. Rus sotsiolingvistikasidagi til mavjudligi shakllari G‘arb sotsiolingvistikasida nima deb nomланади?
10. Til qo‘llash sohasi deganda nima nazarda tutiladi?

Adabiyotlar

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001.
2. Брайт У. Введение: параметры социолингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. –М., 1975.
3. Виноградов В. А., Коваль А. И., Порхомовский В. Я. Социолингвистическая типология. Западная Африка. –М., 1984.
4. Степанов Г. В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. –М., 1976.
5. Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. – М., 1975.
6. Dittmar N. Soziolinguistik. Exemplarische und kritische Darstellung ihrer Theorie, Empiric und Anwendung. – Frankfurt: Main, 1973.
7. Wunderlich D. Zum Status der Soziolinguistik // Aspekte der Soziolinguistik. - Frankfurt, 1971.

2-MA'RUZA

LISONIY HAMJAMIyatNING MULOQOT VOSITALARI

Reja:

1. Adabiy til
2. Dialekt
3. Sotsiolekt
4. Argo, jargon, sleng
5. Koyne
6. So'zlashuv tili

Tayanch so'z va tushunchalar: adabiy til, standartlashgan adabiy til, dialekt, hududiy dialekt, ijtimoiy dialekt, milliy til, yarim dialekt, sotsiolekt, argo, jargon, sleng, koyne, so'zlashuv tili.

2.1. Adabiy til

Adabiy til (standart) umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, grammatic qonun-qoidalarga rioya qilinadigan, ma'lum me'yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to'g'ri qo'llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi tildir. *Adabiy til* jamiyatning ilm-fan, *a'lim, adabiyot, diplomatiya, xuquqshunoslik, ish yuritish, turli tashkilotlar va ziyolilarning kundalik hayotida ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Adabiy tilga muomala jarayonida qo'llanadigan shevaga, so'zlashuvga xos bo'lgan so'zlarning ishlatilmasligi xosdir.

Ingliz tilshunosligi an'analariga ko'ra, adabiy til *standard language*, *standard English* deb yuritiladi. Shuningdek, *standartlashgan adabiy til* termini ham qo'llari ladi. K. Naringzning fikricha, standartlashgan adabiy tilning mayjudligi har ianday rivojlangan jamiyat uchun xosdir. Til uchta asosiy vazifani bajaradi: 1) birlashtiruvchi – mazkur til dialektlarida so'zlashuvchilar orasidagi tushunmovchilikni oldini oladi; 2) chegaralovchi – tilni boshqa tillardan chegaralash imkoniyatini beradi; 3) nufuzli – tilning hamma variantlaridan ustun turadi.

Adabiy til milliy tilning bosqicha shakllaridan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi:

1) *kodlashgan tarmoq*: u barcha adabiy tilda so'zlashuvchilar uchun yagona va umummajburiy bo'lib, urqa turg'un me'yor xosdir va bu me'yor ma'lum maqsadda madaniylashadi;

2) *yarim funksional tarmoq*: undan inson faoliyatining turli sohalarida foydalani ladi. Adabiy til har xil sohalarda turli vazifalarda ishlatilishiga

ko'ra a) badiiy-adabiy (proza, poeziya, dramaturgiya) tili; b) ^{adabiy, publisistik,} tilning og'zaki shakli; a) funksional uslublar (ilmiy, rasmiy, ^{publisistik,} diniy)ga ajraladi.

3) adabiy til hududiy dialektlar, sodda so'zlashuv, ijtimojy va ^{kasbiy} jargonlarga nisbatan *ijtimoiy jihatdan nufuzli* hisoblanadi. Madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan adabiy tilda milliy til kommunikativ tarmoqlarining barcha vakillari so'zlashadi.

Adabiy til tarqalishining yetakchi manbalari ta'lif (maktab, o'quv yurtlari va h.k.) hamda ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio va televide niye) hisoblanadi.

2.2. Dialekt

Tarixan dialektlar kishilarning bir-biridan uzoqda bo'lishi, bir-birlari bilan muloqot qilishga halaqt qiladigan turli masofalarda joylashishi natijasida shakllangan. Tabiiyki, bir-biridan uzoqda, shuningdek, iqlimi har xil bo'lgan hududlarda yashaydigan kishilarning turli ehtiyojlari va tevarak-atrofdagi endemik (turfa) hodisalar nomlashni talab qiladi.

Norasmiy nutq modeli hisoblangan dialektlar hududiy va ijtimoiy turlarga bo'linadi. **Hududiy dialektlar** ma'lum hududning o'ziga xos hududiy belgilari, binobarin, o'ziga xos lug'at, grammatik yoki fonetik xususiyatlari ega bo'lgan so'zlashuv tilidir.

Ijtimoiy dialektga **sotsiolect** deyiladi (bu haqda quyiroqda batafsil to'xlamiz). Angliyada ijtimoiy dialekt muhim bo'lib, u hududiy dialektdan ustuvorligi bilan ajralib turadi. AQShda esa aksincha, hududiy dialekt ijtimoiy dialektga nisbatan salmoqli o'ringa ega.

Tabiiyki, hududiy yoki mahalliy dialektlar tilning geografik jihatdan bo'linishini ifodalaydi. Biroq hududiy mahalliylik mazkur til shaklining faqat o'ziga xos bir tomoni xolos. "Hududiy dialekt" tushunchasi ijtimoiy dialektologiyaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi. Dialektning ijtimoiy variantliligini tahlilishi sof dialektologik tadqiqotlardan ijtimoiy-dialektologik tadqiqotlarga o'tish sanaladi.

Rus sotsiolingvistlari V. I. Belikov va L. P. Krisinlar hududiy dialektlarni milliy til va uning boshqa ko'rinishlaridan farqlovchi xususiyatlarini quyidagicha belgilashgan;

1) dialekt egasi (bu asosan qishloq aholisining keksa avlod vakillari)ning ijtimoiy, yosh va qisman jins jihatdan cheklanganligi;

2) dialekt qo'llanish doirasining oilaviy va maishiy cheklanganligi;

3) turli shevalarning o'zaro ta'siri va dialektlar tizimi o'tasidagi aloqalarning qayta qurilishi bog'liqligi natijasida yarim dialektlarning shakllanishi;

4) adabiy til ta'siri ostida o'ziga xos dialekt nutqining tenglashtirilishi.

Sotsiolingvistikaning tamoyili dialektlar mavjudligining geografik va ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganishdir. Geografik sabab, bu tabiiy masofalar va to'siqlar, ijtimoiy-psixologik sabablar - obro' (ya'ni dialektning nufuzi, ta'siri) va hamfikrlikni ifodalaydi.

Bugungi kunda til egalarining o'qimishli qismi orasida shaxsning o'zligini anglash, uning ma'lum mintaqaviy jamoatga tegishlilik belgisi, milliy an'analar bilan munosabatda bo'lish va h.k. vositasi sifatida dialektlarga bo'lgan qiziqish borgan sari kuchaymoqda. Dialektlar shu dialekt egasi yoki u mansub bo'lgan biron guruhnning obro'yi va hamfikrligining ko'rsatkichiga aylanib bormoqda. Masalan, Rossiyaning janubidagi kazaklikka mansublik obro' sanaladi va bu kishining o'tmishi o'ziga to'q bo'lganligini assotsiatsiyalaydi. Yoki Yaponiyada dialekt muayyan ma'noda mintaqaviy, ba'zan ijtimoiy guruhlarning birlashish vositasi sanaladi. Dialekt – “o'zinikilar” bilan tabiiy muloqot qilish shakli; suhabdoshga “o'ziniki” deb qarash qanchalik kuchli bo'lsa, unga shunchalik keng darajada dialektda murojaat qilinadi. Biroq notanishga, ayniqsa chet elliklarga adabiy tilda murojaat qilinadi¹⁴.

Dialektlarning muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarishini ham kuzatish mumkin: ayrim mamlakatlarda dialektlar nafaqat kundalik muomala va foşklor dastalarida, balki ba'zi radioeshittirishlar hamda teatr sahnalarida ham qo'llanilmoqda.

2.3. Sotsiolekt

Sotsiolekt termini lingvistikada XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. U *sotsio-* jamiyatga bo'lgan munosabat va *dialekt* so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, rus tilidagi “социальный диалект” (ijtimoiy dialekt) birikmasining qisqargan shaklidir.

Sotsiolekt – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy eltiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli. Standart tildan farqli o'laroq, sotsiolektda ba'zi o'rindarda chetga chiqish mumkin. Til ham xuddi tashqi ko'rinish singari sinflar haqida guvohlik beradi. Sotsiolekt verbal hulq va ijtimoiy ahvolning muvofiqligini ifodalaydi.

Ko'pchilik davlatlarda mansab pog'onalaridan ko'tarilish uchun sotsiolektni bilish zarurdir. Ayniqsa, Buyuk Britaniyada amaldorlik va mavqe sotsiolektga bog'liq bo'lgan. Bu yerda U (Upper class "yuqori

¹³ 2001. –С. 30.

¹⁴ Алпатов В. М. Япония. язык и общество. – М.: «Муравей», 2003 (электронный вариант).

sinf") nutqi no-U nutqiga qarama-qarshi qo'yilgan. Tabiiyki, sotsiolektlar ham oliv zodagonlar, o'rtta (oliv, o'rtta, quyi), ishchilar (oliv, o'rtta, quyi), quyi, past (avom xalq) singari sinflarga ko'ra farqlangan.

G'arbda *sotsiolekt* tushunchasi ijtimoiy sinflar, tabaqalarning nutqini ifodalasa, sobiq SSSRda sotsiolekt kasbiy leksika: dengizchilar, konchilar va h.k. tili sifatida izohlangan.

Hozirgi rus sotsiolingvistikasida sotsiolektga quyidagicha ta'rif berilgan: Milliy til doirasidagi biron ijtimoiy guruh (kasbiy, tabaqaviy, yosh va h.k.)ga xos bo'lgan lisoniy xususiyatlар majmuyiga *sotsiolekt* deyiladi. Masalan, askarlar (askarlar jargoni), o'quvchilar (maktab jargoni) nutqi, jinoyatchilar jargoni, xippilar argosi, talabalar slengi, turli sohalarda ishlovchilarning kasbiy "tili", argolari va h.k. sotsiolektlarga misol bo'la oladi¹⁵.

"Sotsiolekt" termini turli-tuman, bir-biriga o'xshamaydigan, ayni paytda umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan lisoniy shakllarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Mazkur shakllar ijtimoiy chegaralangan kishilar guruhining kommunikativ ehtiyojlariha xizmat qiladi.

Sotsiolektlar kommunikatsiyaning butun bir tizimini ifodalamaydi. Chunonchi, u so'zlar, so'z birikmalari, sintaktik konstruksiylar, urg'u xususiyatlari va h.k. ko'rinishidagi nutqning o'ziga xosligidir. Sotsiolektlar asosini milliy tildan deyarli farq qilmaydigan lug'at va grammatika tashkil qiladi. Masalan, jinoyatchilar argosida o'ziga xos ma'no, xususan, metaforik ma'no kasb e'tgan so'zlar mavjud: *ment* – "militcioner", *etap qilish* – "qamoqqa jo'ratish", *narkota* – "narrotik, giyohvand moddalar bilan shug'ullanish" va h.k. Biroq mazkur so'zlarining turlanishi, tuslanishi va gapdag'i bog'lanishi umumitil qoliplari va qoidalariha muvofiq amalga oshiriladi. Hatto, so'zlar ham umumitil leksikasiga mansub bo'ladi.

2.4. Argo, jargon, sleng

"Argo", "jargon" fransuzcha (argot, jargon)dan kelib chiqqan, "sleng" inglizcha (slang)dan olingan. Bu uch termin ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. Biroq mazkur terminlar ortidagi yashirin tushunchalarni chegaralab olish maqsadga muvofiqdir.

Jargon – biron ijtimoiy guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmuni berib ishlataqdigan so'z va iboralari. Masalan, *oq* (aroq), *qizil* (vino) – ichuvchilar nutqiga xos; *strelka* (uchrashuv) yoshlarning nutqida; *ko'k*, *ko'kat* (QSh dollarri),

¹⁵ Беликов В. И., Крысин Л. Н. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 30.

dodasi (biron narsaning zo‘ri) – ko‘proq bozorchilarning nutqida qo‘llaniladi.

Nemis sotsiolingvistikasida yoshlarning ayrim guruhlari tomonidan qo‘llaniladigan, turli sabablar ta’sirida vujudga kelgan maxsus shakllarga jargon deyilgan. H. Lofflerning ta’biricha, bu til makon va zamonda chegara bilmaydi. Har bir avlod o‘zining yoshligida o‘ziga xos u yoki bu shakldan foydalangan¹⁶.

Rus tilida bir qator leksemalarning turli ijtimoiy guruh jargonlari ta’sirida yangi ma’no kasb etganini ko‘rish mumkin: *базар* (suhbat), *баян* (shpris), *гнать* (yolg‘on gapirmoq), *грузиль* (ongiga singdirmoq), *доход* (zaif odam), *кипуч* (aldamoq), *мусор* (militcioner)

Tilshunoslikka oid aksariyat adabiyotlarda “jargon” bilan “argo” termini farqlanmasdan, aralashtirib yuborilgan. Aslida argo va jargon o‘ziga xos xususiyatlari va qo‘llanish doirasi ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

Argo – jargondan farqli o‘laroq, biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo‘llaniladigan u yoki bu darajadagi *yashirin*, *yasama* til. Masalan, o‘g‘irlar argosida *shmon qilmoq*, *gopitor qilmoq* iboralari “o‘g‘irlamoq” ma’nosida, giyehvandlar argosida *dori* “giyohvand modda” ma’nosida ishlatiladi. Argolar jargonga nisbatan o‘zining *yashirinlik* xususiyati bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ular ko‘proq jamiyatning yashirin tabaqalari hisoblangan josuslar, jinoyatchilar, o‘g‘irlar, giyehvandlar, fohishalar va h.k.lar nutqida uchraydi.

Sleng - G‘arb tilshunosligi an‘analariga xos termin sanaladi. “Sleng” terminiga haligacha aniq ta’rif berilmagan. Turli lug‘atlarda va sotsiolingvistikaga oid adabiyotlarda uning “jargon” (guruhlar jargoni, yoshlar jargoni) terminiga yaqin turishi qayd qilingan¹⁷.

Sleng so‘zining qachon paydo bo‘lgani noma’lum, biroq u ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va o‘sha davrda “haqorat” ma’nosini anglatgan. 1850-yillarga kelib, mazkur termin “noqonuniy” oddiy leksikaning ifodasi sifatida keng qo‘llanila boshladi. Ayni paytda uning jamiyatning quyi tabaqalari qo‘llaydigan *slang-lingo* va “rang-barang” aholi foydalanadigan *argot* singari sinonimlari ham paydo bo‘lgan¹⁸.

Sleng – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, emotsiunal-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar. Slenglari ko‘proq yoshlarning nutqida uchraydi. Masalan,

¹⁶ Löffler H. Germanistik he Soziolinguistik. - Berlin, 1985. -P. 133.

¹⁷ Большой энциклопедический словарь Языкознание. - М.: Российская энциклопедия, 1988. С. 161. Словарь-справочник лингвистических терминов. - М.: Российская энциклопедия, 1985. -С. 287; Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. - С. 33.

¹⁸ Partridge E. Slang Today and Yesterday. - London: Routledge and Kegan Paul, 1979. - P.3.

olmaxon “o‘zini oladigan, nozlanadigan odam”, *g‘isht* “xunuk”, *sindirdi* “lol qoldirdi” va h.k.

Sleng – jonli, harakatdagi til shakli bo‘lib, u mamlakat va jamiyat hayotidagi har qanday o‘zgarishdan ta’sirlanadi. Sleng qo‘llanish doirasiga ko‘ra: hammaga ma’lum va barcha tomonidan qo‘llanuvchi *umumiyl sleng* (general slang) va muayyan guruhlarga ma’lum bo‘lgan, tor doirada qo‘llanuvchi *xususiy sleng* (special slang)ga ajraladi.

Slenglarning ko‘p so‘zлari va iboralari (ayniqsa, ularning dastlabki shakllanishi davrida) keng ommaga tushunarsiz bo‘ladi. Chunki aksariyat slenglar ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Shuningdek, slengizmlar ko‘pincha chet tillardan, ularning dialektlaridan va jargonlaridan o‘zlashtirilgan bo‘ladi. Masalan, “tusovka”, “telejka”, “tachka”, “stukach” rus tilidan, “yuzer” (user), “chat” (chat), ingliz tilidan o‘zlashtirilgan.

Umuman, argo, jargon va sleng – sotsiolektning turlari hisoblanadi. Mazkur til shakllarining har biridagi o‘ziga xos xususiyat u yoki bu guruhlarning kasbiy alohidaligi yoki ularning boshqa jamoalardan ijtimoiy cheklanganligiga bog‘liqdir. Kompyuter jargoni (sleng) kasbiy cheklangan subkodga, o‘g‘rilar argosi, talabalar slengi ijtimoiy cheklangan subkodlarga misol bo‘ladi. Ba’zan guruh ham kasbiy, ham ijtimoiy alohidalik kasb etadi. Bunday guruhning nutqi ham kasbiy, ham ijtimoiy jargonning xususiyatlari ega. Masalan, askarlar jargonini olsak, binobarin, harbiylik kasb sanaladi, bu kasb bilan shug‘ullanuvchilar esa boshqa jamoalardan alohida, o‘z holicha yashaydi.

2.5. Koyne

Koyne termini (yunoncha “umumiy til”) birinchi marta eramizdan avval IV-III asrlarda shakllangan umumiyunor tiliga nisbatan qo‘llanilgan. Zamonaviy sotsiolingvistikada *koyne* aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og‘zaki muloqot vositasi hisoblanadi.

Turli hududiy dialektlarning xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan qurama dialektlar yoki ushbu mintaqada mavjud bo‘lgan tillardan biri *koyne* rolini bajarishi mumkin. Koynelar oldi-sotdi, harbiy, iqtisodiy va madaniy aloqlar maqsadida qo‘llaniladigan, muayyan dialektlar yoki tillar asosida shakllangan dialektlararo yoki millatlararo muloqot tili sifatida namoyon bo‘ladi.

Koynelarni shahar va qishloq koynesiga ajratish mumkin. “Koyne” tushunchasi ayniqsa, ko‘pchilikning turli nutqiy malakalari aralashgan katta shaharlarning lisoniy hayoti uchun dolzarb hisoblanadi. Shahar sharoitidagi guruhlararo muloqot hamma uchun tushunarli bo‘lgan

kommunikatsiya vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shahar aholisi turli guruhlarining kundalik muloqot ehtiyojiga xizmat qiluvchi shahar koynelari ana shunday paydo bo‘ladi.

Shuningdek, koynelar mintaqalarga, ya’ni muayyan til (yoki tillar) tarqalgan ma’lum hududlarga ko‘ra ham ajratiladi. Masalan, ko‘p tillilik mavjud Bo‘lgan Mali Respublikasida (Afrikada) qurama dialektlar shakliga ega bo‘lgan baman tili koyne sifatida qo‘llaniladi.

“Koyne” tushunchasi, odatda, og‘zaki muloqot vositasini ifodalasada, ba’zan bu tushuncha tilning yozuv shakllariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Masalan, London koynesi ham kundalik so‘zlashuvda, ham shahar boshqaruvi, mahkama tizimida ishlataligan. Yoki “koyne” termini o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa davlatlarida ilm, din, huquqshunoslik, san‘at sohalarida millatlararo muloqot vositasi vazifasini o‘tagan lotin yozuviga nisbatan ham qo‘llanilgan.

Shuni ham ta’kidlash joizki, muayyan koynelar ayrim adabiy tillarning shakllanishiga asos bo‘lishi mumkin. Masalan, London koynesi ingliz adabiy tiliga, Pekin koynesi xitoy adabiy tiliga, Edo koynesi esa yapon adabiy tiliga asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, butun bo‘chli adabiy tillar ham koyne rolini bajarishi mumkin. Masalan, “Ispan tili o‘qituvchilari Yevropa Assotsiasiyasi” (AEPE)ning ma’lumotlariga ko‘ra, ispan tili hozir dunyoda o‘rganilayotgan xorijiy tillar orasida birinchi o‘rinni egallaydi, ingliz tili chet tili sifatida emas, balki bir “koyne” sifatida qabul qilinadi.

2.6. So‘zlashuv tili

So‘zlashuv tili – adabiy til me’yorlariga ega bo‘lmagan, ma’lumotsiz va o‘rta ma’lumotli shahar aholisining nutqi. So‘zlashuv tiliga koynening bir turi sifatida qarash mumkin. Sotsiolingvistikada *so‘zlashuv tili* terminini izohlash o‘ziga xos murakkablik kasb etadi. *So‘zlashuv tili* rus tilidagi *просторечие* terminining tarjimasidir. *Просторечие* rus milliy tiliga xos bo‘lgan til tarmog‘i bo‘lib, rus sotsiolingvistikasida keng qo‘llaniladi. Fransuz tilining tarmoqlaridan biri bo‘lgan *langue populaire*, rus tilidagi *просторечие* terminini ifodalay olmaydi. Ingliz tilining amerikacha variantidagi *umumi sleng* rus tilidagi *просторечие* termini bilan qiyoslanishi mumkin. Biroq *umumi sleng*ning tashuvchisi, egasi bo‘lmaydi, u ingliz tilini funksional-stilistik turi hisoblanadi (*umumi sleng* unsurlari ommaviy axborot vositalarida keng qo‘llaniladi; keyingi yillarda rus tilshunoslari ham rus tilida so‘zlashuv tili va ijtimoiy jargon o‘rtasida oraliq o‘rinni egallagan *umumi jargoni* ajratish lozim deb hisoblashmoqda (Qarang: Yermakova va b. 1999).

So'zlashuv tili og'zaki nutq shaklida amalga oshiriladi. So'zlashuv tili oila (oila ichida va qarindosh-urug'lar bilan muloqot qilish)da, navbatda turganda, mahallada, qo'ni-qo'shnilar bilan muloqot qilganda, shuningdek, sud (guvohlik berish)da, shifokor huzuri (bemorning shikoyati)da va h.k. vaziyatlarda qo'llaniladi. So'zlashuv tili shahar sharoitida turli dialektlar va jargonlar oqimining aralashuvi oqibatida yuzaga keladi.

Nemis sotsiolingvistlarining fikricha, standartlashgan adabiy til sotsiolingvistika uchun alohida qiziqish uyg'otmaydi, chunonchi, ushbu fan, avvalo, til variantliligini tahlil etishni maqsad qiladi¹⁹. Shu ma'noda, so'zlashuv tilini o'rganish ko'proq samarali bo'ladi. GFR sotsiolingvistlarining fikricha, tilning ushbu turini tashuvchilar shahar aholisining o'rta va oliy qatlamenti tashkil qiladi²⁰.

Demak, so'zlashuv tili – bu ijtimoiy qoliplashgan variant. U kundalik muomala tili bo'lib, qo'llanish vaziyatlari jihatidan cheklangandir²¹. Til tizimi nuqtayi nazaridan so'zlashuv tili – nutqiy muomala jarayonida adabiy tilning ba'zi o'zgarishlarga uchragan ko'rinishi. So'zlashuv tilidan foydalanuvchilarning doirasi nihoyatda keng bo'lgani uchun, u jiddiy ichki differensiatsiyaga uchragan. Bundan tashqari, u mamlakatning turli mintaqalarida tarqalgan dialektlarning ta'sirida anchayin variantlashadi²².

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiy tilga ta'rif bering.
2. Ingliz tilshunosligi an'analariga ko'ra adabiy til qanday yuritiladi?
3. Tilning uchta asosiy vazifasini tushuntirib bering.
4. Adabiy til milliy tilning boshqa shakllaridan qanday o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi?
5. Kodlashgan tarmoq nima?
6. Yarim funksional tarmoq tilning qaysi sohalarida qo'llaniladi?
7. Adabiy til tilning qanday shakllariga nisbatan ijtimoiy jihatdan nufuzli hisoblanadi?
8. Adabiy til tarqalishining yetakchi manbalarini sanang.
9. Tarixiy jihatdan dialektlar qanday shakllangan?
10. Nima uchun dialektlar norasmiy nutq modeli hisoblangan?
11. Dialektlarning turlarini aytинг.
12. Dialektga ta'rif bering.
13. "Sotsiolekt" terminini izohlang.

¹⁹ Löffler H. Germanistische Soziolinguistik. - Berlin, 1985. -P. 113.

²⁰ Bichel U. Problem und Begriff der Umgangssprache in der germanistischen Forschung. -Tübingen, 1973. -P. 209; Nahrings K. Sprachliche Varietäten. -Tübingen, 1981. -P. 73.

²¹ Löffler H. Germanistische Soziolinguistik. - Berlin, 1985. -P. 111.

²² Eichhoff I. Wortatlas der deutschen Umgangssprache. 2 Bde. - Bern: Munchen, 1977—1978.

14. Hozirgi rus sotsiolingvistikasida sotsiolektga qanday ta’rif berilgan?
15. Sotsiolektlar asosi nimadan tashkil topadi?
16. Argo, jargon, slengning o‘ziga xos xususiyatlarini aytin va misollar bilan izohlang.
17. Zamonaviy sotsiolingvistikada koyne qanday tushuniladi?
18. Koynelarning ayrim adabiy tillarning shakllanishiga asos bo‘lishini misollar orqali tushuntiring.
19. “So‘zlashuv tili” tushunchasini izohlang.
20. So‘zlashuv tili nimaning aralashuvi oqibatida yuzaga keladi?

Adabiyotlar

1. Алпатов В. М. Япония: язык и общество. – М.: «Муравей», 2003.
2. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001.
3. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. –М.: Российская энциклопедия, 1988.
4. Словарь-справочник лингвистических терминов. –М.: Российская энциклопедия, 1985.
5. Bichel U. Problem und Begriff der Umgangssprache in der germanistischen Forschung. –Tübingen, 1973.
6. Eichhoff I. Wortatlas der deutschen Umgangssprache. 2 Bde. – Bern: München, 1977—1978.
7. Löffler H. Germanistische Soziolinguistik. –Berlin, 1985.
8. Nahrings K. Sprachliche Varietäten. –Tübingen, 1981.
9. Partridge E. Slang Today and Yesterday. –London: Routledge and Kegan Paul, 1979.

3-MA'RUZA

VARIATIVLIK TURLARI

Reja:

1. Lisoniy variativlik
2. Ijtimoiy variativlik
3. Gender variativlik

Tayanch so‘z va tushunchalar: lisoniy variativlik, ijtimoiy variativlik, tilning ichki differensiatsiyasi, stratifikasiyon va vaziyatli variativlik, gender variativlik.

3.1. Lisoniy variativlik

Agarda biz muloqot jarayonida bir til vositasining tasarrufidan boshqa til vositasining tasarrufiga o‘ta olsak, masalan, adresatning almashinishida o‘sha mavzuni muhokama qilishda davom etsak, demak, bizning ixtiyorimizda ayni mavzu haqida turlicha gapirishga imkon beradigan vositalar majmuyi bo‘ladi. Bu tilning favqulodda muhim xususiyati bo‘lib, u so‘zlovchining muayyan tilda nafaqat o‘z fikrlarini erkin ifodalash, balki uni turli usullar orqali berish imkoniyati bilan ham ta’minlaydi. Til egasining ayni bir ma’noni turlicha ifodalay olishi, uning qayta ifodalash qobiliyati deyiladi. Mazkur qobiliyat aytigandan ma’noni chiqarib olish qobiliyati va to‘g‘ri iboralarni noto‘g‘ri iboralardan farqlash mahorati bilan birga, “til bilish” deb nomlanadigan murakkab psixik malaka asosida yetadi.

Variativlik nutqiy kommunikatsiyaning barcha darajalarida – turli til vositalarini bilishdan tortib, to so‘zlashuvchining bir tilga tegishli turli fonetik va urg‘u variantlariga yo‘l qo‘yilishini tushunib yetishigacha bo‘lgan darajalarda namoyon bo‘ladi. Masalan, Toshkent shahrida *piyola* so‘zini ikki xil talaffuz qilish kuzatiladi: “pila” va “pela”. Bu fonetik variativlikka misol bo‘ladi. Yoki Farg‘onada *narvon* o‘rniga *shoti*, Xorazmda *sabzi* o‘rniga *gashir* so‘zlarining qo‘llanilishi leksik variativlikka misol bo‘ladi.

Bir xil ma’noga ega bo‘lgan lisoniy belgilarning shaklidagi, tashqi ko‘rinishidagi nomutanosiblikka, har xillikka **variativlik** deyiladi.

Lisoniy variativlik sotsiolingvistikaning an'anaviy tarzda ko‘p o‘rganiladigan muammolardan biri. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan variativlik hodisasi turli til variantlarining til egalari tomonidan ijtimoiy va

nutqiy muloqot sharoitlaridagi farqlarga bog'liq holda qo'llanilishi sifatida tadqiq qilinadi.

3.2. Ijtimoiy variativlik

Variativlikni nemis tilshunoslari individual nutqiy aktlar emas, balki so'zlashuvchilarining muayyan guruhiga xos bo'lgan, ijtimoiy o'zaro bog'langan til qo'llanishining shakllari va usullari deb izohlashadi²³. K. Naringzning ta'kidlashicha, til variantlari mavjudligining manbalari va sabablari haqidagi masala, albatta, til va jamiyatning o'zaro munosabatlarni aniqlashga olib keladi. Har qanday til jamoatida ijtimoiy xususiyatlar bilan bir qatorda til xususiyatlari jihatidan ham bir-biridan farqlanadigan turli guruhlar mayjud bo'ladi. Bundan tashqari, turli kommunikativ vaziyatlarda kommunikativ akt qatnashchilari o'rtasida o'zaro munosabatlarga bog'liq bo'lgan turfa til variantlari ham qo'llaniladi.

E'tirof etish joizki, barcha til jamoatlari va tillar uchun universal bo'lgan vaziyatlar va shakllarning to'plami mavjud emas. Tilning ichki differensiatsiyasi jamiyat ijtimoiy strukturasining oqibati va ifodasi hisoblanadi.

Til va nutqning ijtimoiy variativligi ikki: stratifikacion va vaziyat o'lchovlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Stratifikacion (lot. stratum-'qatlam' + facere-'qilmoq') variativlik to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy strukturasi bilan bog'liq bo'ladi²⁴.

Amerikalik sotsiolingvist U. Labovning "Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikasiysi" nomli asarida ijtimoiy variativlikning ikki tomonlama tabiatini hamda stratifikacion va vaziyatli variativlik o'rtasidagi o'zaro aloqa atroficha yoritib berilgan. Labov variativlik ikki xil turining "doimiy modeli"ni aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Bir tomondan, ayrim nutqiy ko'rsatkichlar va ijtimoiy struktura (ayni nutqiy kontekstda quyi ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan informantlar yuqori ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan informantlarga nisbatan noadabiy shakllardan keng foydalagan) o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik belgilangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, barcha informantlarda rasmiy holatlarda adabiy shakllarni qo'llash ko'rsatkichini ortgani qayd qilingan²⁵. Demak, stratifikacion va vaziyatli variativlik o'rtasida chambarchars o'zaro aloqa mavjud.

²³ Nahrings K. Sprachliche Varietaten. -Tübingen, 1981. -P.70.

²⁴ Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. -М.: Высшая школа, 1978. -С. 76.

²⁵ Labov W. The social stratification of English in New York City. - Washington, 1966.

Shuningdek, Labov ijtimoiy variantlar (lisoniy hamjamiyatning qatlam va guruhlari)ni so‘zlashuvchi ijtimoiy xarakteristikasining ko‘rsatkichi deb ta’riflaydi²⁶.

Ijtimoiy variativlik hodisasini Buyuk Britaniya misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Buyuk Britaniyada Estuary English (EE) (Londondagi past ijtimoy qatlam vakillarining so‘zlashuv tili), Kokni (Cockney-ma’lumoti kam bo‘lganlar tomonidan norasmiy doiralarda qo‘llanuvchi London dialektining varianti) va Received Pronunciation (RP) (Londondagi oliv ijtimoy tabaqa vakillarining tili) kabi variantlar mavjud. Ba’zan RP egasi o‘zining ijtimoiy holatini oshkor qilishdan qochib, o‘z nutqida Kokniga xos bo‘lgan tubandagi fonetik xususiyatlarni ishlataladi: a) “t” tushiraladi: *wha(?) - what (nima)*, *li(?)le - little (kichkina)*; “i” yokallashadi: *hi(w)- hill (tyepalik)*, *mi(w)k- milk (sut)*²⁷.

3.3. Gender variativlik

Sotsiolingvistikada ijtimoiy variativlikdan tashqari, gender variativligini ham kuzatish imumkin. Masalan, yapon tilida erkak va ayollarning nutqiy muomalasi bir-biridan keskin farq qiladi. Erkakning “ayolcha” gapirishi yoki aksincha, ayolning “erkakcha” gapirishi jiddiy kulgili holatlarni keltirib chiqaradi. Yapon tilidagi erkak va ayol variantlarining farqi til tizimining barcha sathlarida namoyon bo‘ladi. Fonemalar va ularning moslashuvidaniga bir xillik mavjud bo‘lib, ularning urg‘usida farqlanish ko‘zga tashlana boshlaydi. Ayniqsa, grammatika va leksika sathida ikki variantning bir-biridan ajralishi ko‘proq kuzatiladi. Masalan, 1-shaxs va 2-shaxs kishilik olmoshlari misolida (3-shaxsda alohida farq kuzatilmaydi), faqat 1-shaxsning eng takallufli *vatakusi* shakli erkak va ayollar tomonidan birday qo‘llaniladi. Erkaklar, asosan, *boku* (odatda), *ore* (betakkalluf) va *vasi* (betakkalluf, hozir eskirgan); ayollar - *atasi* (betakkalluf) va *atakusi* (takallufli, eskirib borayotgan) kishilik olmoshlarini ishlatalishadi. *Vatasi* olmoshi erkaklar tomonidan ham, ayollar tomonidan ham qo‘llaniladi, biroq ayollar uchun standart, erkaklar uchun takallufli (*vatakusi* ga nisbatan), shuningdek, katta yoshdagilarga xos olmosh sanaladi.

Grammatik farqliliklar orasida gap oxirida keladigan modal-ekspryessiv yuklamalar ko‘proq ajralib turadi. Yapon tiliga iltimos, murojaat, tasdiq va h.k. ma’nolarni hamda so‘zlovchining u yoki bu turdagи hissiyotlarini ifodalagan yuklamalarga boylik xosdir. Bunday

²⁶ Лабов У. О механизме языковых изменений // Новые в лингвистике. Вып. 7. Социолингвистика. -М., 1975. -С. 50.

²⁷ http://en.wikipedia.org/wiki/Received_Pronunciation.

yuklamalarni boshqa tilga tarjima qilish o'ta qiyinchilik tug'diradi. Erkaklar nutqiga: *dzo*, *dze*, *na:*, *ya:*; ayollar nutqiga: *va*, *no*, *ma:*, *kasira*, *ara* yuklamalari xosdir. Har ikkala variantdagi yuklamalar chekka hududiarga ko'ra ham farqlanishi mumkin. Ayrim yuklamalar ma'nosiga ko'ra farqlanadi: *yo* yuklamasi erkaklarda betakalluf, ayollarda esa takallufli qo'llaniladi. Bunday turdag'i farqlar kichik yoshdan boshlab shaklianadi²⁸.

Boshqa grammatik farqliliklar hurmat shakllarini qo'llashda namoyon bo'ladi. Adabiy til me'yorlariga ko'ra, atoqli otlardagi *-kun* betakalluf qo'shimchasini faqat erkaklarga qo'llay olishlari mumkin; ayollar bunday vaziyatlarda *-san* (hurmat darajasiga ko'ra erkak variantda takalluf, ayol variantda neytrallik ifodalaydi) qo'shimchasiidan foydalananadilar.

Qayd qilingan barcha farqlar so'zlashuv tiliga tegishli bo'lib, yozuvda, shuningdek, og'zaki-kitobiy matnlar (teleyangiliklar yoki ma'ruzalar)da yozuvchining yoki so'zlovchining jinsi u qadar aniq namoyon bo'lmaydi.

Xullas, sotsiolingvistikada til belgilarining variativligi til egasining ijtimoiy xususiyati (tilning ijtimoiy differensiatsiyasi), nutq muloqoti vaziyati (tilning funksional differensiatsiyasi) va nutq egasining jinsi(tilning gender xususiyatlari) kabi o'lchovlarga bog'liq bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Tilning qayta ifodalash qobiliyatni nima?
2. Variativlik nutqiy kommunikatsiyaning qaysi darajalarida namoyon bo'ladi?
3. Fonetik yoki leksik variativlikka misol keltiring?
4. "Lisoniy variativlik" termini izohlang.
5. Variativlikni nemis tilshunoslari qanday izohlashgan?
6. Tilning ichki differensiatsiyasining jamiyat ijtimoiy strukturasi bilan aloqasini tushuntiring.
7. Til va nutqning ijtimoiy variativligi nima bilan tavsiflanadi?
8. U. Labovning "Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikasiyası" nomli asarida ijtimoiy variativlik qanday yoritilgan?
9. U. Labov ijtimoiy variantlarga qanday ta'rif bergan?
10. Gender variativlik qaysi tilda yaqqol namoyon bo'ladi?

²⁸ Танака Акио. Бумману, кү:мацу-но хё:гэн то тохо: (Выражение и форма конца предложения) // Нихонго-нихон-бунка (Японский язык и японская культура). - № 6. Осака, 1977. - С. 57.

Adabiyotlar

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001.
2. Лабов У. О механизме языковых изменений // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. –М., 1975.
3. Танака Акио. Буммацу, ку:машу-но хё:гэн то гохо: (Выражение и форма конца предложения) // Нихонго-нихон-бунка (Японский язык и японская культура). –№ 6. Осака, 1977.
4. Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. – М.: Высшая школа, 1978.
5. Labov W. The social stratification of English in New York City. – Washington, 1966.
6. http://en.wikipedia.org/wiki/Received_Pronunciation.

4-MA'RUZA

SOTSIOLINGVISTIKADA LINGVISTIK TUSHUNCHALAR

Rejash:

1. Til me'yori
2. Nutqiy muloqot
3. Nutqiy muomala
4. Nutq akti

Tayanch so'z va tushunchalar: me'yori, til me'yori, adabiy til, nutqiy muloqot, nutqiy muloqotning holati, nutqiy muloqot qoidalari, nutqiy muomala, kommunikativ vaziyat, so'zlovchi, tinglovchi, nutq akti, bilvosita nutq akti.

4. 1. Til me'yori

Biror bir jamiyatda, muayyan bir davrda lisoniy vositalarni tanlash, belgilash va ulardan foydalanish qonuniyatlarini *me'yor* (*norma*)ni ifoda etdi. *Me'yor* (*norma*) - kishi nutqida nutq vositalaridan tartibli ravishda qo'llanish majmuyi.

Me'yor tushunchasi *adabiy til* tushunchasi bilan chambarchars bog'liq. Ko'pincha adabiy tilga me'yorlashgan til ham deyiladi. *Me'yor* nimaning to'g'ri yoki nimaning noto'g'rilibini aniqlaydi. U "qonuniy" til vositalari va ifoda usullarini tavsiya qiladi, til odatlari va an'analariga zid bo'lgan usullarni inkor qiladi. Masalan, *olib berdi* (oberdi).

*Me'yor*lar tarixan o'zgaruvchan bo'ladi, biroq ular asta-sekin o'zgaradi. Rivojlangan adabiy tillarda *me'yor* uzoq yillar davomida o'zining turg'unligini saqlaydi²⁹.

P. fon Polens *me'yor* deganda, metatil kommunikatsiyasi natijasida "me'yoriy", "to'g'ri" deb baholanadigan, til tiziimi imkoniyatlarining bir qismini tushunadi³⁰. Biroq real tur mushda til *me'yori* tilni qo'llash bilan to'ldiriladi, ya'ni til egasi nutqida qo'llanmaydigan, *me'yorga* va *me'yoriy* shakllarga mos kelmaydigan tilni qo'llash hodisalari ham mavjud. Bu o'rinda *me'yor* "elak" vazifasini o'taydi, ya'ni u xalq nutqidagi barcha yorqin, sof, aniq ifodalarni saralab, adabiy til qo'llanishiga kiritadi, noaniq, mujmal, o'tkinchi ifodalarni qoldiradi. Adabiy *me'yor* muhim ijtimoiy va madaniy funksiyani bajaradi. Inson faoliyatining barcha muhim sohalarida *me'yor*lashgan tildan foydalilaniladi. Jumladan, ilm-fan, ta'lim, madaniyat,

²⁹ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. -С. 24.

³⁰ Polenz P. von. Sprachnorm, sprachnormierung und Sprachnorinkritik //Bd. 1. Soziolinguistik. Ansätze zur soziolinguistischen Theoribildung; Bd. 2 Anwendungsbereiche der Soziolinguistik. - Darmstadt, 1982.

texnika, qonun chiqarish, ish yuritish va h.k. sohalarni me'yorlashgan tilsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Adabiy til me'yori dialekt yoki jargon me'yorlaridan farqli o'laroq, ongli ravishda madaniylashadi: lug'atlarda, grammaticalarda qayd qilinadi, maktablarda, o'quv yurtlarida o'qitiladi, kitoblarda, radio va televideniyeda targ'ibot qilinadi. Kishilarning barcha madaniy muloqoti, odatda, adabiy til me'yorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2. Nutqiy muloqot

“Nutqiy muloqot” termini “nutqiy kommunikatsiya” terminiga sinonim hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, har ikkala sinonim ham ikki taraflama jarayonni, ya'ni muloqot chog'ida kishilarning o'zaro munosabatini ifodalaydi. Nutqiy muloqotning holatini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Nutqiy muloqotning holati	Kim bilan gaplashamiz?	Bir kishi bilan
		Bir necha kishi bilan
		qulay /noqulay sharoitda
Qayerda?	Rasmiy bo'limgan muhitda	Rasmiy muhitda
	Muloqot	Xabar
		Ta'sir etish
Qaysi maqsadda?		

Nutqiy muloqot qoidalarini ishlab chiqishga bo'lgan urinishlarda faqat lisoniy vositalarni to'g'ri qo'llashgina emas, balki kommunikativ holatning xususiyatlariha ham e'tibor berish nazarda tutiladi. Masalan, amerikalik tadqiqotchi S. Ervin-Tripp tomonidan nutqiy muloqotning quyidagi qoidalari taklif qilingan³¹:

1. Lisoniy vositalarni tanish qoidasi: a) barcha ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy bo'lgan; b) turli ijtimoiy qailamlar va guruhlar uchun maxsus bo'lgan. Misol: murojaat shaklini tanlash, ushbu tanlovdagi milliy va ijtimoiy farqlar.

2. Rioya qilish qoidasi, ya'ni kommunikatsiyada nutqiy harakatlar ketma-ketligiga rioya qilish: salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish va h.k. Mazkur qoidalari doirasida xayrlashish, taklif qilish, telefonga chaqirish, kommunikativ aloqani yo'lga qo'yish formulalari ko'rib chiqiladi.

³¹ Ervin-Tripp S. Sociolinguistics // Advances in the Sociology of Language / Ed. by J. Fishman, Vol. 1. The Hague; - Paris, 1971.

3. Birgalik qoidasi; bunda bir kontekstda u yoki bu leksik, fonetik, intonatsion, sintaktik va h.k. birliklar va xususiyatlarning birlashish qoidasi nazarda tutiliadi.

Shuningdek, suhbatdoshlarning o‘zaro munosabati qoidasi alohida o‘rganiladi. Bunda so‘zlovchi mazkur ijtimoiy yoki kasbiy guruhga kiruvchi suhbatdoshlar uni “o‘ziniki” deb qabul qilishlariga, uning nutqiy muomalasi hamda vaziyatini va ijtimoiy rolini o‘zgartishda bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishini ma’qul ko‘rishlariga harakat qiladi.

4.3. Nutqiy muomala

“Nutqiy muomala” terminida jarayonning bir tomonli bo‘lishiga urg‘u beriladi: u kommunikativ vaziyat qatnashchilaridan bo‘lgan yo so‘zlovchi (adresant), yo tinglovchi (adresat)ning nutqi yoki nutqiy reaksiyasini xarakterlovchi o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalandi.

“Nutqiy muomala” termni nutqning monologik shakllarini, masalan, matuz, yig‘ilishlardagi nutq va boshqa kommunikativ vaziyatlarni tavsiflash uchun qulaydir. Biroq uning o‘zi dialoglarni tahlil qilish uchun yetarli bo‘lmaydi. Bunday holatda nafaqat har bir tomonning nutqiy muomalasi, balki o‘zaro nutqiy harakatlar mexanizmini oshib berish muhim hisoblanadi. Shunga ko‘ra, “nutqiy muloqot” tushunchasi o‘z ichiga “nutqiy muomala” tushunchasini oladi. Nutqiy muomala rol, vaziyat va mavzu singari sotsiologik o‘lchovlar bilan bog‘lanadi.

4.4. Nutq akti

Nutq akti termini u yoki bu kommunikativ vaziyat doirasidagi so‘zlovchining aniq nutqiy harakatlarini ifodalandi. Masalan, bozorda biron narsani sotib olish vaziyatida sotuvchi va xaridor o‘rtasida turli nutq aktlarini o‘z ichiga olgan shunday dialog vujudga kelishi mumkin: informatsiya haqida so‘rov: (- Necha pul? Qancha turadi? Kim ishlab chiqargan? Qanday materialdan tayyorlangan?), xabar (- Yigirma ming; Janubiy Koreya; Haqiqiy charm), iltimos (-Iltimos, olib qo‘ying, hozir pul olib kelaman), ayblast (- Qaytimni oz beribsiz!), tahdid (- Hozir militsiya chaqiraman!) va h.k.

Muayyan vaziyatda nutq aktining shakli uning mazmuniga mos kelmasligiga *bilvosita nutq akti* deyiladi. Masalan, oshxonada ovqatlanayotganingizda yoningizda o‘tirgan biron kishi sizga: -Tuzni uzatavorolasizmi? - deb murojaat qildi. Mazkur murojaat shaklan so‘roq bo‘lsa ham, mazmunan iltimosni ifodalandi. Siz unga o‘z harakatingiz bilan javob berasisiz: ya’ni tuzdonni uzatib yuborasiz. Agar siz bu iltimosni so‘roq deb tushunib, unga: *Ha*, deb javob berib, bu javobga mos harakat

qilmasangiz, unda kommunikatsiya jarayoni buzilgan bo‘ladi. Yoki — *Derazani yopvorasizmi?* savoliga derazani yopish harakati erqali javob beriladi. Yoki telefonda: —*Rustam iydam?* deb so‘ralganda, “Rustamni chaqirib bering” degan ma’no anglashiladi.

XX asrning o‘rtalarida ingлиз faylasufi J.Ostin, shuningdek, uning izdoshlari bo‘lgan amerikalik olimlar J.Syorl va G.Grays nutq aktlari nazariyasini ishlab chiqishdi. Unda nutqiy kommunikatsiya jarayoniga xos bo‘lgan bir qator qonun-qoidalar belgilandi, nutqiy kommunikatsiya va nutq akti muvaffaqiyatini ta’minlovchi tamoyillar shakllantirildi. Masalan, “aniq so‘zla”, “samimiy bo‘l”, “qisqa so‘zla”, “noaniq ifodalarni ishlatma” va boshqalar³².

Mustahkamlash uchun savollar:

1. “Me’yor” tushunchasini tushuntiring va uning “adabiy til” tushunchasi bilan aloqasini izohlang.
2. P. fon Polens “me’yor” tushunchasini qanday tushunadi?
3. Adabiy til me’yorining madaniylashgan shakli qayerlarda qo’llaniladi?
4. “Nutqiy muloqot” termini nimani ifodalaydi? Unga sinonim bo‘lgan tushunchani aytинг.
5. Amerikalik tadqiqotchi S. Ervin-Tripp tomonidan nutqiy muloqotning qaysi qoidalari taklif qilingan?
6. Muloqot jarayonida bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishni qanday tushunasiz?
7. “Nutqiy muomala” termini ifodalovchi xususiyatlarni sanang.
8. Nutqiy muomala bilan bog‘lanuvchi sotsiologik o‘lchovlar nimalardan iborat?
9. Nutq aktini ta’riflang, misollar keltiring.
10. Muayyan vaziyatda nutq aktining shakli uning mazmuniga mos kelmasligiga nima deyiladi?

Adabiyotlar

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. —М., 2001.
2. Грайс Г. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая pragmatika. —М., 1985.
3. Ervin-Tripp S. Sociolinguistics // Advances in the Sociology of Language / Ed. by J. Fishman. Vol. 1. The Hague; —Paris, 1971.
4. Polenz P. von. Sprachnorm, sprachnormierung und Sprachnormkritik //Bd. 1. Soziolinguistik. Ansätze zur soziolinguistischen Theoribildung; Bd. 2. Anwendungsbereiche der Soziolinguistik. —Darmstadt, 1982.

³² Грайс Г. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая pragmatika. - М., 1985. - С. 222-223.

5-MA'RUZA

SOTSIOLINGVISTIKADA PSIXOLINGVISTIK VA SOTSILOGIK TUSHUNCHALAR

Reja:

1. Kommunikatsiya
2. Kommunikativ vaziyat
3. Til egasining kommunikativ salohiyati
4. Ijtimoiy maqom va ijtimoiy rol
5. Lisoniy ijtimoiylashuv

Tayanch so‘z va tushunchalar: kommunikatsiya, verbal va noverbal kommunikatsiya, kommunikativ vaziyat, kommunikativ vaziyat komponentlari, kommunikativ salohiyat, ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, lisoniy ijtimoiylashuv.

5.1. Kommunikatsiya

“Kommunikatsiya” ko‘p ma’noli termin bo‘lib, u “omnaviy kommunikatsiya (axborot) vositalari” birikmasida matbuot, radio va televideniyening axborot vositalarini, texnikada aloqa tarmog‘ini ifodalash uchun ishlatiladi. Sotsiolingvistikada “kommunikatsiya” “muloqot” so‘zining sinonimi sifatida qo‘llaniladi.

Kommunikatsiya xabarni uzatish, fikr va ma’lumotlar almashinushi, ya’ni muloqot qilishdir. Kommunikatsiya ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. U jamiyatda aloqa o‘rnatuvchi vazifani bajaradi.

Kommunikatsiya *verbal (nutqiy)* va *noverbal (nutqsiz)*³³ bo‘lishi mumkin. Kishilar o‘rtasidagi muomala jarayonida nafaqat verbal, balki noverbal muloqot vositalaridan, ya’ni turli imo-ishoralardan ham foydalaniladi. Har qanday jismoniy ishda ham nutqiy muomalaga ehtiyoj tug‘ilavermaydi: masalan, shovqin yuqori bo‘lgan ish joylarida, xususan, temirchilik, quymachilik, qadoqlash va h.k. sexlarda ishchilar ko‘pincha imo-ishoralar vositasida muloqot qildilar.

Ba’zi jamiyatlarda qadimda so‘zlashuv nutqidan kam foydalanishga harakat qilingan. Masalan, Xitoy va Koreyada konfutsiy olim-amaldorlari, odatda, o‘z fikrlarini yozma ravishda ifodalashgan. Hukmron konfutsiy aslzodalarining qiyofasi loqayd, yuzi toshdyek, hech qanday ifoda kasb etmagan. Mazkur an‘analarning bugungi koreys jamiyatida ham o‘z ta’sirini yo‘qotmaganligi kuzatiladi.

³³ Verbal so‘zi lotincha *verbum* “so‘z”dan olini, gan.

S. M. Ervin-Tripp kommunikatsiya jarayonidagi muloqot ishtirokchilarning verbal muomalasiga sotsiolingvistikaning asosiy predmeti sifatida qaraydi: "Sotsiolingvistika ishtirokchilarning holatga, mavzuga, o'zaro ta'sir vazifalariga, shakl va baholarga ko'ra verbal muomalasi bilan ish ko'radi. Mazkur ta'rifning markazi verbal muomala (so'zlashuv va uning muqobillari) hisoblanadi. Bu o'rinda tizimni to'liq tavsiflash uchun lingvistik belgilarning funksional muqobillari sanalgan imo-ishoralar va tasvirlarni ham kiritish lozim bo'ladi. Biroq verbal muomala yuqori darajadagi to'liq tizim sifatida o'zini har joyda namoyon qiladi. Shunga ko'ra, uni qulay boshlang'ich nuqta deyish mumkin"³⁴.

5.2. Kommunikativ vaziyat

Kommunikativ vaziyat tushunchasi psixolingvistika sohasidan o'zlashtirilgan bo'lib, u ikki yoki undan ortiq kishilar nutqiy muloqotidagi vaziyatni ifodalaydi.

Kommunikativ vaziyat ma'lum tuzilishga ega bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

- 1) so'zlovchi (adresant);
- 2) tinglovchi (adresat);
- 3) so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabat;
- 4) muloqotning emotsiyonalligi (rasmiy–neytral–do'stona);
- 5) maqsad;
- 6) muloqot vositasi (til yoki uning tarmoqlari – dialekt, uslub, shuningdek, paralingvistik vositalar – imo-ishoralar);
- 7) muloqot usuli (og'zakiyozma, kontaktli/distantli);
- 8) muloqot joyi.

Kommunikativ vaziyatning tarkibiy qismlari o'zgaruvchan bo'ladi. Ular o'zgarishi bilan kommunikativ vaziyat ham o'zgaradi. Masalan, sud jarayonida sudya bilan guvohning muloqoti bu :haxslarning suddan tashqaridagi muloqotiga nisbatan o'ta rasmiy til vositalarining qo'llanishi bilan farqlanadi.

5.3. Til egasining kommunikativ salohiyati

Psixolingvistika sohasidan o'zlashtirilgan yana bir tushuncha *til egasining kommunikativ salohiyatidir*. Nutqiy kommunikatsiya jarayonida kishilar adresat uchun tushunarli bo'lgan ifodalarni tuzish uchun lug'at va grammatika kabi til vositalardan foydalanishadi. Biroq mazkur tilda muloqotning muvaffaqiyatli chiqishi uchun lug'at va grammatika

³⁴ Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. - М., 1975. - С. 336.

bilimining o'zi yetarli bo'lmaydi. Binobarin, u yoki bu til birliklari va ularning birikuvining qo'llanish shartlarini ham bilish lozim. Boshqacha aytganda, til egasi grammatikadan tashqari "vaziyat grammaticassi"ni ham o'zlashtirishi lozim, ya'ni leksik birliklarning ma'nosi va gapda joylashish tartibi qoidalarini o'zlashtirish bilan birga, so'zlovchi va adresat orasidagi munosabat, muloqot maqsadi va boshqa omillarni ham bilishi kerak. Til egasi ayrim ijtimoiy vaziyatlarda nutq akti sifatida nimaning maqbul bo'lishini anglashi lozim. Bular til egasining kommunikativ salohiyatini tashkil qiladi.

D.Haymsning fikricha, kommunikativ salohiyat tushunchasi bir biridan farq qiladigan ikki intellektual kategoriyaning tan olinishiga bog'liq bo'ladi: *bilim* va *undan foydalanish* qobiliyati. Chunonchi, *bilish* boshqa, *qilish*, *amalga oshirish* boshqa bir ishdir³⁵. Masalan, til bilimi passiv bo'lishi mumkin, ayni paytda tilni bilish, til vositalardan foydalanish faol bo'lishi mumkin.

Kommunikativ salohiyat doirasiga odob-axloq qoidalari (o'zbek lisoniy hamjamiyatida *san* va *siz* olmoshlari, -*lar* qo'shimchasining hurmat ma'nolari, yapon va koreys lisoniy hamjamiyatlarida hurmat shakllari kategoriyasining qo'laniishi), bolalarning kattalar bilan (yoki kattalarning bolalar bilan) muloqot qoidalari, kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyiga ko'ra "ijtimoiy masofa"ga rioya qilish qoidalari, shuningdek, iltimos, talab, ayblash, tahdid, va'da berish kabi turli nutq aktlarini amalga oshirish qoidalari va boshqalar kiradi.

5.4. Ijtimoiy maqom va ijtimoiy rol

Sotsiolingvistikaning ayrim terminlari va tushunchalari sotsiologiya va ijtimoiy psixologiyadan olingan. Ulardan eng muhimlari *ijtimoiy maqom* va *ijtimoiy roldir*. Jamiyatda yashaydigan va turli guruhlarga mansub bo'lgan har bir individ jamiyatda bir qancha ijtimoiy o'ringa ega bo'ladi. Masalan, talaba (o'z-o'zidan ma'lum ijtimoiy o'ringa ega) faol "kamolotchi", universitetning shahmat bo'yicha championi, guruhda yaxshi xonanda, uyda o'g'il va aka, do'stlar davrasida o'rtoq, do'st va h.k. bo'lishi mumkin. Mazkur o'rirlarning har biri muayyan qoidalari va vazifalar bilan bog'liq bo'lib, u *ijtimoiy maqom*, deb nomlanadi. Ijtimoiy maqomlarning aksariyatiga insонning o'zi erishadi. Bunday maqomlarga *orttirilgan maqomlar* deyiladi. Talaba maqomiga oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirish, championlik maqomiga musobaqada g'olib bo'lish, er maqomiga nikohdan o'tish yo'li bilan

³⁵ Hymes D. On Communicative Competence. Original paper. 1971. –P. 269-293.

erishiladi. Boshqa maqomlar, xususan, jins, etnik yoki muayyan irqqa oidlik tug‘ma bo‘ladi.

Har qanday maqom huquq, majburiyat va unga mos me’yoriy muomaladan iborat bo‘ladi. Jumladan, talaba maqomi darslarga qatnashish, imtihonlar topshirish, amaliyot o‘tash, universitet kutubxonasidan foydalanish va boshqalardan iborat bo‘ladi. Professor-o‘qituvchi maqomi muayyan fandagi salohiyat, ma’lum pedagogik malaka, ilmiy faoliyat, kafedra majlisida ishtirok etish va h.k.dan iborat bo‘ladi. U yoki bu ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan kishidan atrofdagilar mazkur maqomga mos bo‘lgan ma’lum muomalani kutadi.

Ana shunday standart, umumqabul qilingan kutishlarga *ijtimoiy rol* deylidi. Bir maqomga bir necha rollar mos kelishi mumkin. Masalan, universitet professor-o‘qituvchisidan talabalar, hamkasblar, kafedra mudiri, ma’muriyat va texnik xodimlarning kutishlari bir-biridan farq qiladi.

Jamiyat uchun xos bo‘lgan aksariyat rollar tilda maxsus ma’no kasb etadi: ota, turmush o‘rtog‘i, o‘g‘il, sinfdosh, qo‘shti, o‘qituvchi, xaridor, yo‘lovchi, mijoz va h.k. Jamiyatning har bir voyaga yetgan a’zosi o‘z rollarining ijrosida o‘zini qanday tutishni yaxshi biladi.

5.5. Lisoniy ijtimoiylashuv

Jamiyatning a’zosi sifatida individuning hayoti u tug‘ilgan va tarbiyalanayotgan oilada rol muomalasini, o‘zini qayerda qanday tutishni o‘rganishdan boshlanadi. Xuddi ana shu yerdan shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni – yashashi va harakat qilishi kutilayotgan jamiyatga kirishi boshlanadi. *Ijtimoiylashuv* individning asta-sekin o‘zi uchun yangi bo‘lgan guruhlarga kirishi va yangi rollarni o‘zlashtirish jarayonidir.

Ijtimoiylashuv jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri *lisoniy ijtimoiylashuv* bo‘lib, u muayyan jamiyatda qo‘llaniladigan tilni o‘zlashtirish va undan foydalanish qoidalarini u yoki bu ijtimoiy rolni ijrosiga muvofiq ishlatishini ifodalaydi.

Xullas, sotsiolingvistikada qo‘llaniladigan ayrim tushunchalar psixolingvistika, sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya sohalaridan o‘zlashtirilgan bo‘lib, ular tilning mavjud ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liqligini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. “Kommunikatsiya” tushunchasiga ta’rif bering. Sotsiolingvistikada kommunikatsiya qaysi so‘zning sinonimi sifatida qo‘llaniladi?
2. Verbal va noverbal kommunikatsiya nima, misol keltiring.
3. Noverbal nutq vositalari qayerda va nima maqsadda qo‘llaniladi?

4. S. M. Ervin-Tripp kommunikatsiya jarayonidagi partner (muloqot ishtirokchi)larning verbal muomalasiga qanday qaraydi?
5. Nima uchun verbal muomalani qulay boshlang‘ich nuqta deyish mumkin?
6. Kommunikativ vaziyat nima?
7. Kommunikativ vaziyatni tashkil etgan qismlarni sanang.
8. Kommunikativ vaziyat qachon o‘zgaradi?
9. Kommunikativ salohiyatni nimalar tashkil qiladi?
10. D.Hayms “kommunikativ salohiyat” tushunchasini qanday kategoriylar bilan bog‘liqlikda ko‘radi?
11. Kommunikativ salohiyat doirasiga qanday qoidalar kiradi?
12. Ijtimoiy maqom va ijtimoiy rølga ta’rif bering. Misollar bilan izohlang.
13. Nima uchun ijtimoiy maqomlar orttirilgan maqomlar deyiladi?
14. Insonning ijtimoiylashuv jarayoni qanday va qayerdan boshlanadi?
15. “Lisoniy ijtimoiylashuv” tushunchasiga ta’rif bering.

Adabiyotlar

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001.
2. Словарь социолингвистических терминов. Отв. ред.: В.Ю. Михальченко –М., 2006.
3. Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. –М., 1975.
4. Hymes D. On Communicative Competence. Original paper. 1971.

6-MA’RUZA

KODLAR ARALASHUVI: DIGLOSSIYA VA BILINGVIZM

Reja:

1. Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o’tish
2. Diglossiya va bilingvizm
3. Bilingvizmnning turlari
4. Interferensiya

Tayanch so‘z va tushunchalar: kodlar aralashuvi, bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o’tish, so‘zlovchi rolining almashinuvi, muloqot mavzusi, diglossiya, bilingvizm, ikki tillilik, ko‘p tillilik, koordinativ bilingvizm, aralash bilingvizm, subordinativ bilingvizm, interferensiya.

6. 1. Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o’tish

Kodlar aralashuvi (*yoki bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o’tish*) inglizcha *code mixing* (*yoki code-switching*) termining tarjimasi bo‘lib, u XX asning 70-yillarida ingliz tilshunosligida paydo bo‘lgan³⁶. Biroq mazkur termin iste’molga kirmasidan oldin bu hodisaga R. Yakobson e’tibor qaratgan: “Har qanday umumiy kod ko‘p shaklli bo‘lib, u xabarning vazifasi, adresat va suhbatdoshlar orasidagi munosabatga ko‘ra so‘zlovchi tomonidan erkin tanlanadigan turli subkodlarning iyerarxik (pog‘onali) majmuyidir”³⁷. Keyingi yillarda kodlar aralashuvi hodisasi turli jihatdan Auer (1998), Myers-Scotton (1993), Poplack (1980), McCormick (2002), Mahootian and Santorini (1996), Rampton (1995) kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan³⁸.

Ijtimoiy-kommunikativ tizimni tarkib topitiruvchi kodlar va subkodlar vazifalariga ko‘ra taqsimlangandir. Bu mazkur til jamoasini tashkil etgan xuddi o‘sha so‘zlashuvchilar kontingeniting umumiy muloqot vositalar majmuyini muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda qo’llashini bishdiradi. Masalan, agar gap adabiy til subkodlari haqida ketadigan bo‘lsa, unda adabiy til egalari ilmiy faoliyatda ilmiy uslubdan, boshqaruva organlarining yozishmalarida, ish yuritishda, yurisprudensiyada, albatta, rasmiy uslubdan, diniy marosimlarda esa diniy-tashviqot uslublaridan foydalanishi

³⁶ Miriam Meyerhoff. Introducing Sociolinguistics. –New York: Routledge 2006. –P. 287; Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С.

³⁷ Jakobson R. Linguistics in its relation to other sciences //Main Trends of Research in the Social and Human Sciences. –Paris, 1970. –P. 458.

³⁸ Miriam Meyerhoff. Introducing Sociolinguistics. –New York: Routledge 2006. –P. 287.

kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, so'zlovchi muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda, bir til vositasidan boshqasiga o'tadi.

Bunga o'xshash manzara ikki yoki undan ortiq til qo'llaniladigan jamiyatlarda ham kuzatiladi. Ikki yoki undan ortiq tilda so'zlashuvchilar, odatda, bu tillarni muloqot sharoitiga ko'ra "taqsimlashadi": rasmiy sharoitda hokimiyat vakillari bilan bir tilda, kundalik hayotda, uyda, qo'shnilar va boshqalar bilan ikkinchi tilda gaplashadilar. Mazkur holatda ham bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tiladi, faqat bu yerda birinchi misoldagidek kod tilning uslublari sifatida emas, balki turli tillar sifatida namoyon bo'ladi.

Nutqiy muloqot chog'ida so'zlovchining kommunikatsiya sharoitidan kelib chiqqan holda, bir tildan (yoki til variantlaridan, dialektdan, uslubdan) boshqa bir til ko'rinishiga o'tishi *kodlar aralashuvi*, ya'ni *bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish* deyiladi.

Kommunikatsiya sharoitidagi qanday o'zgarishlar so'zlovchining bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tishga majbur qiladi? Masalan, *adresatning almashinishi*, ya'ni so'zlovchi murojaat qilgan kishining o'zgarishi kodlarning aralashuviga sabab bo'lishi mumkin. Agar adresat so'zlashuvchi bilgan ikki tildan faqat birini bilsa, shu paytgacha muloqotda bilingv (zullisonayn) suhbatdoshlar boshqa til yoki har ikkala tilni qo'llagan bo'lishlariga qaramay, muloqot oxirida adresatga tanish bo'lgan tilni qo'llashga o'tiladi. Masalan, men (ta'kid bizniki – Sh.Usmanova) Indiana universitetida (AQShda) ishlagan chog'imda vaziyatga ko'ra, o'zbek, rus va ingлиз tillaridan foydalanishimga to'g'ri kelgan. O'zbeklar doirasida suhbatlashganimda, tabiiyki, o'zbek tilidan foydalanganman. Agar suhbatimizga qozoq yoki qирг'из kelib qo'shilsa, o'z-o'zidan rus tilini qo'llashga o'tganmiz (qozoq yoki qирг'из tilini bir o'zbek tushunishi mumkin, lekin o'zbekchani qozoq, qирг'из va h.k. til egalari to'liq tushunmaydi). Yoki suhbat rus tilida borayotgan bir paytda oraga amerikalik kelib qo'shilsa, unda ingлиз tilini qo'llashga to'g'ri kelgan. Muloqotga kirishuvchilar sonining o'zgarishi ham kodlarning ko'chishini keltirib chiqaradi. Bunday holat ikki bilingvning suhbatiga faqat bir tilni biladigan uchinchi kishi kelib qo'shilganda yuz beradi.

So'zlovchi rolining o'zgarishi ham kodlar aralashuvini keltirib chiqaruvchi omillardan biri bo'lishi mumkin. Masalan, Toshkentda yashovchi ota yoki ona roli dagi xorazmlik so'zlovchi oilada, yoxud hamyurtlari bilan muloqot chog'ida xorazm shevasida gapiradi, lekin u ish joyida, boshqaruva organlariga murojaat qilganda, hatto, kundalik hayotda adabiy tilning me'yoriy shakllaridan birini qo'llashga majbur bo'ladi. Agar bunday kod o'zgarishi yuz bermasa, ularni ish joyidagi hamkasblari yoki

boshqaruv organlarining vakillari tushunishmaydi va ular o‘zlarining maqsadi (arizasi yoki shikoyatini ko‘rib chiqish)ga erisha olmaydilar, ya’ni kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

Muloqot mavzusi ham kodlarning tanlanishiga ta’sir qiladi. Masalan, bir tilshunos lingvistik fanlar doirasida ma’ruza qilganda yoki tilshunoslar bilan munozara qilganda lingvistik terminlardan tashkil topgan ilmiy uslubdan foydalaniadi. Lekin mavzu kundalik maishiy hayotga o‘tganda, boshqa subkod o‘zgarishi yuz beradi.

Insonning kodlarni almashtirish qobiliyati uning tilni (yoki til subkodlarni) yuqori darajada bilishini, uning muayyan kommunikativlik va madaniyat darajasini ko‘rsatadi. Kodlarning aralashuvi mexanizmi kishilar orasidagi o‘zaro tushunish va nutqiy muloqot jarayonining qulayligini ta’minlaydi. Aksincha, individning muloqot sharoitiga ko‘ra o‘z nutqini taqsimlay olmasligi anomaliya sifatida qabul qilinishga va kommunikativ to‘qnashuvlarga olib kelishi mumkin.

Kodlar aralashuvining ikki turi mavjud:

1. Kodlarning vaziyatli aralashuvi. Bunda til yoki tilning mavjud shakllarini tanlash rasmiy va norasmiy vaziyatlarga bog‘liq bo‘ladi.
2. Kodlarlarning metaforik aralashuvi. Ijtimoiy vaziyatning to‘liq o‘zgarishini emas, balki uning unsurlaridan birining o‘zgarishi (mavzu o‘zgarishi, muloqotchilar o‘rtasidagi ijtimoiy-kommunikativ to‘siqlarni bartaraf qilish yo‘nalishining o‘zgarishi)ni taqozo qiladi.

Xullas, *bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish* deganda, so‘zlashuvchining bir tildan (yoki til subkodlaridan) boshqa bir tilga to‘liq o‘tishi tushuniladi. Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishning badiiy adabiyotdagи namunasi sifatida L.N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanidagi rus zodagonlari nutqida rus tilining fransuz tiliga (yoki aksincha) almashtirilishini ko‘rsatish mumkin.

6.2. Diglossiya va bilingvizm

(*Ichki til*) *diglossiyasi* (yun. *di* – “ikki” va *gloss* “til”) deganda, bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bog‘liq holda, tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga ko‘chish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish tushuniladi. Masalan, italyan tili sohiblari uyda, do‘sstar doirasida mahalliy dialektni qo‘llashadi, biroq boshqa dialekt vakillari bilan muloqot qilishganda yoki ommaviy chiqishlarida adabiy tildan foydalananishga o‘tishadi. Bunday hodisani xorazmliklar nutqida ham kuzatish mumkin. Xorazm shevasi aksariyat hollarda xorazmliklar orasida qo‘llaniladi. Xorazmliklar boshqa sheva

vakillari bilan muomalada bo'lganda yoki Toshkentda (yoki boshqa viloyatlarda) yashashganda adabiy tilda so'zlashadilar.

"Diglossiya" termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapirish, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga ko'ra galma-gal qo'llay olishni ham anglatishi mumkin. Bunday hollarda "ichki til" aniqlovchisi chiqarib tashlanib, "diglossiya" terminining o'zi qo'llaniladi.

"Diglossiya" termini ilmiy muomalaga amerikalik tadqiqotchi C.A. Ferguson tomonidan 1959-yilda kiritilgan³⁹. Bungacha tilshunoslikda xalqaro "bilingvism" va uning muqobili "ikki tillilik" (zullisonayn) terminlari qo'llanilgan (va qo'llanishda davom etmoqda). Ko'p tillar mavjud bo'lgan holatlarga nisbatan "ko'p tillilik" (ingl. multilingualism, frans. plurilinguisme) terminidan foydalanish qabul qilingan.

"Ikki tillilik" va "ko'p tillilik" terminlarining nomlaridan ham ko'rini turganidek, bu biron jamiyatda (odatda, davlatda) ikki va undan ortiq tillarning faoliyat ko'rsatishini bildiradi. Bugungi kunda qator davlatlarda ikki yoki ko'p tillilik mavjud. Mazkur hodisalarни Rossiya (rus tili bilan birga, boshqird, tatar, yoqut, buryat, osetin va h.k. tillar qo'llaniladi), Afrika, Belgiya, Gana, Hindiston, Kanada, Paragvay (missollarni barcha mintaqalardan olinganini ko'rish mumkin) va boshqa davlatlarda kuzatish mumkin.

Ikki tillilik va ko'p tillilikni bir qancha tillarni biladigan shaxslarga nisbatan ham ishlatish mumkin. Binobarin, *bilingvism* (ikki tillilik) deganda, ikki tilda erkin fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallaganlik tushuniladi.

Ikki tillilik va ko'p tillilikdan farqli o'laroq, *diglossiya* ikkita mustaqil tilni yoki bir tilning turli subkodlarini bilishni ifodalaydi. Bu tillar va subkodlar vazifasiga ko'ra taqsimlangan bo'ladi: agar gap ko'p tilli jamiyatlar haqida borayotgan bo'lsa, unda masalan, rasmiy vaziyatlarda, chunonchi, qonunchilik, ish yuritish, davlat tashkilotlari orasidagi yozishmalarda rasmiy til (yoki davlat tili)dan foydalaniladi; maishiy, kundalik hayot va oilaviy muloqot sharoitlarida esa rasmiy maqomga ega bo'lmagan boshqa tillar va subkodlardan foydalaniladi.

So'zlovchilarning ongli ravishda turli kommunikativ vositalardan birini tanlashi va uni muloqot uchun muvaffaqiyatlari qo'llay olishi diglossiyaning muhim sharti hisoblanadi.

³⁹ Ferguson C.A. Diglossia // Word. –N. 15. 1959. –P 325-340.

6.3. Bilingvizmning turlari

Individual bilingvizmning uch asosiy turi farqlanadi:

Koordinativ (sof) bilingvizmda ikki til mutlaqo muxtor bo'lib, har biri o'zining tushunchalar majmuyiga mos keladi, ikki tilning grammatik kategoriyalari ham mustaqil bo'ladi:

Italvan tilida

ALBERO (tushuncha)		
Albero shakl)	(fonema	daraxt

Ingliz tilida

TREE (tushuncha)		
tri (fonema shakl)		daraxt

Masalan, “tana qo'yib, shox va novdalar chiqarib, tomir otib o'sadigan ko'p yillik o'simlik” (daraxt) fizik obyekti uchun ikki tushuncha va ikki xil fonemalar shakli qo'llaniladi: *albero* “soyabonli italyan qarag‘ayi”, *tree* “daraxt”.

Aralash bilingvizm nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud bo'lgan tillar esa faqat ustki struktura darajasida farqlanadi. Masalan, ALBERO va TREE tushunchalari aralashib, /albero/ va /tri/ akustik obrazlari qo'shib yoziladigan ALBEROTREE ko'rinishidagi super tushunchani hosil qiladi:

ALBERO/ TREE		
/albero/ /tri/		daraxt

Subordinativ bilingvizmda so'zlashuvchilar ikkinchi tilni ona tilining ta'siri vositasida qabul qiladi: tushuncha ona tilining leksik birlklari, qolganlar esa ikkinchi til birlklari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu turdag'i bilingvizmda, odatda, ikkinchi til tarjima qilish usuli bilan o'rganiladi: /tri/ shakli /albero/ni ifodalaydi, shuning uchun italyancha ALBERO/alberoning o'zi belgining belgisi, ya'ni metabelgi hisoblanadi:

ALBERO		
/albero/		
/tri/		daraxt

6.4. Interferensiya

Ikki tilni biladigan shaxs (bilingv)larning nutqida u qo'llaydigan tillarning o'zaro ta'siri kuzatiladi. Bu o'zaro ta'sir nutqda, tilda, shuningdek, har qanday til osti tizimlarida: fonetikada, grammatikada, leksikada namoyon bo'lishi mumkin.

Interferensiya keng ma'noda ikki tillilik sharoitida til sistemalarining o'zaro ta'sirini; ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me'yoring buzilishini ifodalaydi. Tor ma'noda ikki tilli shaxsning og'zaki va yozma nutqida ona tili ta'sirida ikkinchi til me'yorlarining buzilishini anglatadi⁴⁰.

Umuman, ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tilga ko'rsatgan har qanday ta'siri va bu ta'sirning natijasi *interferensiya* deyiladi. Odatda, interferensiya deganda, faqat nazorat qilib bo'lmaydigan jarayonlar tushuniladi, ongli ravishdag'i o'zlashmalar unga taalluqli bo'lmaydi.

Interferensiyaning yo'nalishlari turlicha bo'lishi mumkin. Ona tilining ikkinchi tilga interferensiysi ko'proq kuzatiladi. Biroq ikkinchi til asosiy tilga aylanganida u ham ona tiliga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, o'zbek bolasi ruslar yashovchi hududga ko'chib boradi va rus mакtabida o'qiy boshlaydi. Asta-sekin rus tili uning ona tilisiga ta'sir qila boshlaydi va u ko'proq rus tilida gapira boshlaydi. Masalan, uning nutqida "Mam, ujin qilamizmi?", "Ponedelnik kuni fizkultura bor". Ycki ko'p yillar davomida chet elda muhoyer bo'lib yashagan o'zbeklarning nutqida ham bu ta'sirni ko'rish mumkin. Masalan, "Hammasi okey bo'ladi", "O, yes! Zo'r bo'ldi".

Rossiyadagi bozorlardan biridagi saydogarlar nutqida "*Tакой праис только за лейбл что ли?*" tarzidagi inglizcha leksik interferensiya asosida qurilgan ruscha jumlanı kuzatish mumkin. Mazkur matnda ruscha *цена* leksemasining o'rniga inglizcha *price* so'zi individual qo'llanilgan bo'lib, unda yosh (yosh-molodoy), mavzu (tijorat), holat (bozor) va maqom ("chelnok") singari ijtimoiy omillar ishtirok etgan.

Interferensiya lisoniy aloqalar nazariyasida markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. U til darajasiga muvofiq ravishda quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- 1) fonetik interferensiya;
- 2) grammatik interferensiya;
- 3) sintaktik interferensiya;
- 4) leksik-semantik interferensiya.

⁴⁰ Словарь социолингвистических терминов. - М., 2006. - С. 82.

Fonetik interferensiya ikki tilli shaxs nutqida aloqadagi tillarning fonetik tizimidagi o‘zaro ta’sir hodisasi bo‘lib, talaffuzdagi aksentda namoyon bo‘ladi. Masalan, koreyslarning o‘zbekcha nutqida <r> va <l> undoshlarining farqlanmasligi (karavot → kalavot, marta → malta), <z> undoshining <j> (Zuhra → Juhra, zo‘r → jo‘r, zirak → jirak), <f> undoshining <p> deb talaffuz qilinishi (hafta → hapta, fasl → pasl) yoki ruslarning o‘zbekcha nutqida <q> ning <k> (qiz → kiz, qara → kara), <g> ning <g> (tog‘ → tog, og‘rimoq → ogrimoq) deb talaffuz h.k.

Grammatik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili grammatik tuzilishining ta’siri. Bu kelishiklarni qorishtirish (uyga boradi → uyda boradi), fe’l zamonlarini nomuvofiq qo‘llash (ertaga keldi), son+ot+lar qolipini qo‘llash (ikki kishilar) va h.k.

Sintaktik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili sintaksisi ta’sirida sintaktik qoidalaring buzilishi (Keldi u biznikiga kecha).

Leksik-semantik interferensiya – aloqadagi tillarning leksik-semantik darajadagi o‘zaro ta’siri, so‘zdagi ma’nolar farqliligi natijasida ikki tilli shaxs nutqida me’yorlarning buzilishi; so‘zlarning bog‘lanishidagi buzilish; parafaziya (nutqda biron so‘zni boshqa so‘z o‘rnida noto‘g‘ri qo‘llash) va h.k. Masalan, *dugonam uylandi*; *og‘aynim turmushga chiqdi*.

Xullas, interferensiya individlarga xos hodisa. Lekin ommaviy ikki tillilik holatlarida bir turdag'i interferension jarayonlar ko‘pchilikning nutqini tavsiflashi ham mumkin. Masalan, sobiq Sho‘rolar davrida rus tili ommaviy ravishda turli til egalarining nutqiga ta’sir ko‘rsatgan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kodlar aralashuvi nima?
2. Kim “kodlar aralashuvi” terminiga ilk e’tiborini qaratgan?
3. Ijtimoiy-kommunikativ tizimni tarkib toptiruvchi kodlar va subkodlar nimaga ko‘ra taqsimlanadi?
4. Kommunikatsiya sharoitidagi qanday o‘zgarishlar so‘zlovchining bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishga majbur qiladi?
5. Kodlar aralashuvini keltirib chiqaruvchi omillarni sanang.
6. Muloqot mavzusi nima?
7. “Diglossiya” termini ilmiy muomalaga kim tomonidan va qachon kiritilgan?
8. Tilshunoslikda xalqaro “bilingvizm” va uning muqobili bo‘lgan “ikki tillilik” (zullisonayn) terminlarini qiyoslang.
9. Ikki tillilik va ko‘p tillilik keng muomalada bo‘lgan davlatlarni sanang.
10. Diglossiyaning muhim shartini aytинг.

11. Individual bilingvismning asosiy turlarini farqlang, ularga misollar keltiring.
12. Interferensiya nima?
13. Interferensiyaning yo‘nalishlarini aytинг.

Adabiyotlar

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001.
2. Словарь социолингвистических терминов. Отв. ред.: В.Ю. Михальченко –М., 2006.
3. Ferguson C.A. Diglossia // Word. –N. 15. 1959.
4. Jakobson R. Linguistics in its relation to other sciences //Main Trends of Research in the Social and Human Sciences. –Paris, 1970.
5. Miriam Meyerhoff. Introducing Sociolinguistics. –New York: Routledge 2006.

7-MA’RUZA

TILLARNING ARALASHUVI. PIJINLAR VA KREOL TILLAR

Reja:

1. Tillar aralashuvi. Pijinlar va kreol tillar
2. Aloqaviy tilning vujudga kelishi
3. Pijin turlari va ularning tadrijiy rivojlanishi
4. Rivojlangan muloqot tillarining shakllanishi
5. Rivojlangan pijin va kreol tillarining qo’llanilishi

Tayanch so’z va tushunchalar: tillar aralashuvi, pijin, kreol til, aloqaviy til, yordamchi til, kreolistika, prepijin, monogenetika, poligenetika, lingva-franka, leksifikator, etnolekt, ideolekt, krio tili.

7.1. Tillar aralashuvi. Pijinlar va kreol tillar

Pijin va kreol tillar tilshunoslikda 1970-yildan boshlab tadqiqotchilarning e’tiborini torta boshlagan. Muloqot jarayonida kommunikativ vazifa qiyin bo’lganida, suhbatdoshlar uchun o’zar o’tushunarli muloqot vositalari mavjud bo’limganida muloqotchilar yangi aloqa vositasi – to’laqonli grammatikaga ega bo’limgan, lug’at tarkibi niyoyatda cheklangan yordamchi aralash tilni qo’llay boshlaydilar⁴¹.

Ana shunday yordamchi aralash tillar *pijin* va *kreol tillar* deb nomlanib, *aloqaviy tillar* hisoblanadi.

Pijin – xalqlar o’rtasida boshqa muloqot usuli bo’limgan vaziyatda vujudga keladigan, etnik sohibi bo’limgan, lug’at boyligi va ijtimoiy funksiyasi cheklangan, beqaror grammatic tuzilishga ega bo’lgan aloqaviy til turi.

Kreol (til) – pijin tillarning asosida shakllanadi va faoliyat jarayonida til egasining ona tiliga aylanadi. Pijin tildan nafaqat til egalarining mavjudligi, balki lug’at boyligining kattaligi, grammaticasining turg‘unligi va funksiyalarining kengligi jihatidan farqlanadi⁴².

Yordamchi aralash tillarni o’rganuvchi bo’lim tilshunoslikda kontaktologiya yoki **kreolistika**, deb nomlanadi. Kreolistikaga XIX asrda H. Shuhardt asos solgan bo’lsa-da, tilshunoslikda alohida soha sifatida XX asrning 50-yilaridan e’tiboran rivojiana boshladi. Kreolistika aloqaviy tillarning o’ziga xos xususiyatlari, shakllanishi va rivojlanishi bilan bog’liq

⁴¹ Salikoko S.Mufwene creoles and pidgins. The routledge companion to sociolinguistics. Edited by Carmen Llamas, Louise Mullany and Peter Stockwell. –New York: Routledge 2007. –P.175.

⁴² Miriam Meyerhoff. Introducing Sociolinguistics. –New York: Routledge 2006. –P.293; Словарь социолингвистических терминов. Отв. ред.: В.Ю. Михальченко. –М., 2006. –С. 99, 164.

bo‘lgani uchun u sotsiolingvistika sohasining tarkibiy qismlaridan biriga aylанди.

Maxsus adabiyotlarda aloqaviy tilning eng sodda ko‘rinishi *jargon*, deb nomlanadi. “Jargon” termini sotsiolingvistik kontekstda mazkur ma’noda o‘zini oqlamaydi, chunki u ijtimoiy dialektologiyada boshqa ma’no kasb etadi. Bu termin barcha kreolistlar tomonidan qo‘llanilmaydi. Ba’zan aloqaviy til rivojlanishining birinchi bosqichi *prepjin* (“pijingacha”), deb nomlanadi va u jargonga qayd qilingan ma’noda mos kelib, unga “erta” yoki “beqaror” pijin ham deyiladi. Boshqa hoatlarda har qanday yordamchi tilga *pijin* deyiladi. Har xillikdan qochish maqsadida, aloqaviy til rivojlanishining birinchi bosqichini *prepjin* deyish maqsadga muvofiqdir. Odatda, aloqaviy til o‘zining dastlabki shakllanish jarayonida oddiy muloqotning sodda vazifalarini bajaradi. Keyinchalik bu til ko‘rinishi barqarorlashib pijinga aylanadi.

“Pijin” terminining etimologiyasi to‘liq aniqlanmagan. Biroq uni kantoncha (xitoycha) *bei chin* “pul to‘lamoq”, inglizcha “bussiness” (pay money) so‘zidan kelib chiqqan deb qaraladi. Ushbu termin dastlab 1807-yilda inglizcha-xitoycha pijinga nisbatan qo‘llanilgan⁴³.

Monogenezis nazariyasiga asoslangan ayrim kreolistlar (Taylor 1960, Thompson 1961, Whinnom 1965)ning fikricha, hozirgi kreol va pijinlarning kelib chiqishi XVII-XIX asrlarda savdo-sotiq uchun qo‘llanilgan *lingva-franka* (“franklar tili”)ga, ya’ni yevropaliklar tiliga borib taqaladi. 1970-yillardan e’tiboran poligenezis nazariyasi tarafдорлари kreol tillarni pijin tillar (bir qancha tushunarsiz umumiy tillar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa natijasida yuzaga kelgan)dan kelib chiqqan, degan iddaoni ilgari surishgan⁴⁴.

7.2. Aloqaviy tilning vujudga kelishi

Aloqaviy til maxsus yaratilmaydi, u muloqotchi suhbatdosh tilini o‘rgana olmaslik natijasida vujudga keladi. Ma’lum bir tilning qisqargan (reduksiyalangan) shakli til prepjingiga asos soladi va u mazkur til lug‘at qatlaming katta qismini egallaydi. Bunday til kreolistikada *leksifikator* deb ataladi.

Prepjin tor muloqot yo‘nalishi bo‘lib, uning lug‘at boyligi bir nechta so‘zlar bilan cheklangan, grammatik tuzilishi o‘ta sodda ko‘rinishda

⁴³ Salikoko S Mufwene creoles and pidgins. The routledge companion to sociolinguistics. Edited by Carmen Llamas, Louise Mallany and Peter Stockwell. –New York: Routledge 2007. –P. 225; Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 80-81.

⁴⁴ Salikoko S.Mufwene creoles and pidgins. The routledge companion to sociolinguistics. Edited by Carmen Llamas, Louise Mallany and Peter Stockwell. –New York: Routledge 2007. –P. 181.

bo'ladi. Preprijinning fonetikasi so'zlashuvchilarning ona tili me'yorlariga ancha yaqinlashgan bo'ladi.

Muloqotga kirishuvchilarning bu til ko'rinishidan doimiy ravishda foydalanishi natijasida uning lug'at boyligi, grammatic tuzilishi turg'unlashadi va u asta-sekin preprijindan barqaror pijingga o'tadi⁴⁵.

Shunday qilib, preprijinning barqarorlashuvi va uni pijingga o'tish jarayonida etnolektlar (etnik guruuhlar)ning yaqinlashuvi yuzaga keladi. Ularda ham, o'z navbatida, idiolektlar (bir til sohibi nutqining fonetik, grammatic, leksik va uslubiy xususiyatlari)ning bir xillashuvi kuzatiladi. Agar preprijinda so'zlashuvchilar soni doimiy bo'lmasa, ular preprijindan onda-sonda foydalanishsa, prepjin barqarorlashish darajasiga yetmaydi va uzoq vaqt davomida faoliyat ko'rsata olmaydi.

7. 3. Pijin turlari va ularning tadrijly rivojlanishi

Hozirgi kunda 50dan ortiq pijin ma'lum bo'lib, ularning aksariyati Janubiy-sharqiy Osiyo, Okeaniya, Afrika, Karib dengizi hududlarida tarqalgan⁴⁶. Pijinlar, odatda, hududlarning bosib olinishi, savdo-sotiqning kengayishi, rivojlanishi, shuningdek, ommaviy ko'chishlar natijasida yuzaga keladi.

Pijinlar rivojlanishining ilk davrida tor doiradagi muloqotlarning kichik ehtiyojlariga xizmat qilgan. An'anaviy jamiyatda ular savdo-sotiq ehtiyojlarini qondirishda, ayrim hollarda keng kommunikativ vazifalarda qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash joizki, yer sharining barcha burchaklarida savdo-sotiq pijinlarini uchratish mumkin.

Eng qadimi pijinlar sirasiga Yevropa leksik bazasida vujudga kelgan O'rtayer dengizi sabirini⁴⁷ kiritish mumkin. Sabir pijini XII asrdan boshlab yevropaliklarning arablar, keyinchalik esa turklar bilan muloqotida qo'llanilgan.

Yevropaga xos bo'lgan pijingga misol qilib, "chinuk jargoni"ni keltirish mumkin. Mazkur pijin haqida yevropaliklar faqat 1830-yilga kelib ma'lumotga ega bo'lganlar. "Chinuk jargoni"ning boshlang'ich qo'llanish hududi Kolumbiya daryosining quyi qismi bo'lgan. Keyinchalik bu til ko'rinishida Kaliforniyadan Alyaskagacha yashagan aholi gaplashgan. XIX asr va XX asrning birinchi yarmida bu aloqaviy til kelib chiqishi yevropalik bo'lgan xalqlar o'rtasida mashhur bo'lgan. Masalan, kanadalik

⁴⁵ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 81.

⁴⁶ 2006. –С. 165.

⁴⁷ Sabir – o'rta asrlarda O'rtayer dengizida qo'llanilgan pijin. Keyinchalik *lingva-franca* ("franklar tili", ya'ni yevropaliklar tili) nomini olgan.

baliqchilar o‘zlarining radio aloqalarida maxfiy ma’lumotlarni yapon baliqchilaridan saqlash maqsadida “chinuk jargoni”dan foydalanganlar.

Kontaktologiyaga oid adabiyotlarda xalqlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida qo‘llaniladigan imo-ishoralar ham yordamchi til vositasi hisoblanib, ular pijinlar ichida qayd qilingan. Bunday aloqaviy vositalardan Shimoliy Amerika hindulari va avstraliyalik aborigenlar foydalanganlar. XIX asrning oxirlarida AQShning G‘arbida barcha uchun umumiyl bo‘lgan imo-ishoralar tilida turli xil qabilalarning 100 mingdan ortiq vakili muloqot qilgan.

Dengizchilikning rivojlanishi, Yevropa mustamlakalarining kengayishi natijasida pijin tillarining zimmasiga yangi vazifalar yuklatildi. Dengiz pijinlari portlar joylashgan hududlarda tarqaldi. XVI-XVII asrlarda Afrikaning Atlantika sohillarida qul qilib olish, Shimoliy va Shimoliy-sharqi Osiyo hududlarida savdo-sotiq maqsadida yevropaliklar mahalliy aholi bilan muloqotga kirishadi va buning natijasida Yevropa tillari asosida yangi pijinlar maydonga keladi.

XIX asrning boshlarida Okeaniya orollarida *bichlamar* dengiz pijini (ingliz tili asosida) tarqaldi. Mazkur pijindan dastlab kit ovlovchilari, keyinchalik sandal yog‘ochini tayyorlovchilar foydalangan. XIX asrning o‘rtalariga kelib kemalarda ham bichlamar pijini ishlatalgan.

XIX asrning oxirlariga kelib, bichlamar pijininining *tok-pisin* (Yangi Gvineyada); *bislama* (Yangi Gebriddada, hozirgi Vanuatu Respublikasida); *Solomon orollari pijini; broken* (Torresov orollari qo‘ltig‘ida) singari alohida turlari rivojlangan.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mustamlaka boshqaruvi sharoitida pijinlar vujudga kelishining yana boshqa yo‘llari ham bo‘lgan. Masalan, Britaniyaning Papua mustamlakasida ko‘p tilli politsiyachilar Avstroneziy motu tili asosida yuzaga kelgan pijindan foydalanganlar. Mazkur til “politsiyachilar motusi”, keyinchalik esa “xirimutu” deb nomlanib, to‘laqonli etnik muloqot tiliga aylangan⁴⁸.

Demak, barqarorlashgan pijin tillar cheklangan lug‘at boyligiga ega bo‘lgan yordamchi til hisoblanadi. Pijin ma’lum bir tilning lug‘at boyligiga asoslanadi, biroq uning grammatik tizimi leksifikator tilidan farq qiladi. Masalan, ruscha-xitoycha pijin: *Его сота рубли купеза давай; его хохаоды ю, дадады ю; полтара года таскай, ломай, не могу; его замерзни мею* (Uning shubasiga savdogarlar 100 rubl berishdi; u juda yaxshi, katta; bir yarim yil kiyasan – yirtilmaydi; unda sovqotmaysan).

⁴⁸ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. -С 84-85.

2.4.3. Rivojlangan muloqot tillarining shakllanishi

Pijin ma'lum bir sharoitda a'zolari o'zaro chambarchars bog'langan muayyan jamiyatning yagona tiliga aylanishi, mazkur jamiyatning barcha kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qilishi va aksariyat hollarda oilaviy muloqot tili sifatida qo'llanilishi mumkin. Bunday holatda pijin yangi avlod uchun nafaqat yagona, balki o'z ona tili maqomiga ega bo'lgan til hisoblanadi. Mazkur jarayon pijinning *mahalliy lashuvi* yoki *kreolizasiya*, deb nomlanadi. Aloqaviy tilning yangi rivojlanish bosqichiga *kreol* yoki *kreol til* deyiladi. "Kreol" terminining kelib chiqishi Braziliyada qo'llanilgan, dastlab "Amerikada tug'ilgan afrikalik qul" ma'nosini ifodalagan portugalcha *crioulo so'ziga* bog'lanadi.

Pijinlar turli ijtimoiy sharoitlarda, masalan, yevropaliklarning dengiz sohillaridagi mustamlakalari, plantatsiyalardagi metis (duragay) cilalarida, shuningdek, Yangi dunyo sharoitlaridagi qochoq qullar (marunlar)ning Afrika an'analarida kreollashishi mumkin.

Aloqaviy tilning rivojlanishi natijasida uning lug'at boyligi ortaci, fonetik va grammatick tizimi murakkablashadi. Bu jarayon turli xil kreollarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Masalan, port shaharlarda yuzaga kelgan kreol tillarga leksifikator tillarning ta'siri kuchli bo'lgan. Yoki aksincha, marunlar (qochoq qullar) tilida so'z boyligining kengayishi va grammatick vositalarning murakkablashuvida Afrika mahalliy tilining izi yaqqol ko'zga tashlangan. Plantatsiyalardagi qullarga egalik sharoitida aloqaviy tillarning oilaviy muloqot tiliga aylanishi tezlashgan.

Bugungi kunga kelib zamonaviy kreol tillar tarixi haqida sof lingvistik ma'lumotga ega emasmiz, ammo sof kreol, ya'ni (uning evolyutsiyasi) hamda kreol etnosining shakllanish davrlari xususida tasavvurga egamiz. Jumladan. *krio* (500 ming so'zlashuvchiga ega bo'lgan Serra-Leondagi etnoslararo muloqot tili) tili murakkab tarixni boshidan kechirgan. XVI asrning oxirlarida zamonaviy Fritaun hududiga portugaliyaliklar tez-tez tashrif buyurishgan va 1663-yilda bu yerda ingлиз qo'rg'oni tuzilgan. O'sha davrda mazkur hududda ham portugalcha, ham inglizcha pijin qo'llanilgani haqida ma'lumotlar mavjud. XVIII asrning oxirlariga kelib bu yerda istiqomat qiluvchi afrika-yevropalik mulatlar soni 12 mingga yetgan. 1787-1792-yillarda Shimoliy Amerika Mustaqillik urushida Britaniya tomonida turib jangda qatnashganligi uchun ozodlikka chiqarilgan 2 mingga yaqin qul bu yerga ko'chirib keltirilgan. 1800-yilda ko'chmanchilar safiga yamaykalik 550 marun kelib qo'shilgan. Buyuk Britaniyada qullarni sotish bekor qilingandan so'ng (1807-yil) ushbu hududga ingliz floti tomonidan ozod qilingan barcha qoratanlilar

keltirilgan. Tabiiyki, bunday etnodemografik holat Fritaun tilida o‘z aksini topmay qolmagan.

Kreol til standartini ishlab chiqish jarayonida kamdan-kam hollarda leksifikator-til tashuvchilari qatnashgan. Bunday holat yevropaliklar bir guruhi (“kambag‘al oq tanlilar”)ning o‘z vatandoshlaridan hududiy va ijtimoiy jihatdan yiroqda kreol tashuvchilari bilan kundalik muomala qilish jarayonida yuz bergen. Agar bunday yevropaliklar guruhi son jihatidan kreolda so‘zlashuvlar bilan teng bo‘lsa, ularning muloqoti natijasida “o‘rta koyne” yuzaga kelishi va ma’lum vaqt o‘tishi bilan u har ikki tomonning ona tiliga aylanishi mumkin.

Qayd etilgan oraliq holat, asosan, yevropaliklarning katta qismi bilingv bo‘lgan va kreol tilida juda yaxshi gaplasha olgan joylarda maydonga kelgan, biroq ularni qullardan ajratib turgan madaniy va ijtimoiy to‘silalar haddan ziyod kuchli bo‘lgan. Uydagi qullar bilangina muloqot qilgan bu yevropaliklar umumkreol standartiga ta’sir qila olishmagan, aksincha, kreol ularning ona tiliga katta ta’sir ko‘rsatgan. Chunki ularning farzandlari ota-onalaridan ko‘ra ko‘proq enaga, qul va qulbachchalar bilan muloqotda bo‘lishgan. Bunday muloqot turli ijtimoiy tabaqalar til tizimi orasida diffuziyaga olib kelgan. Mazkur jarayon Yevropa tillari hududiy variantlarining rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Masalan, AQShning Janubiy shtatlaridagi oq tanlilar shevasi, Luizianadagi fransuz tili, Braziliyadagi portugal tili shular jumlasidandir.

Shunday qilib, aloqaviy tilning tadrijiy rivojlanishi, bir tomonidan, o‘zining turg‘unlashuvi bilan, ikkinchi tomonidan, leksik va grammatik jihatdan kengayib borishi bilan tavsiflanadi. Chunonchi, kreollahuv zuzuqlik holati bo‘lib, unda til ayrim kishilar uchun ona tili darajasiga ko‘tarilishi, ba’zi kishilar uchun bu darajaga ko‘tarilmasligi mumkin.

2.4.5. Rivojlangan pijin va kreol tillarining qo‘llanilishi

Kreol tillar tarqalgan malakatlarda lisoniy vaziyat turlichadir. Ayrim hollarda kreol tillar mamlakat aholisining aksariyat qismi uchun (Gaiti, Yamayka va G‘arbiy Hindistonning qator orollarida, Kabo-Verde Respublikasida) ona tili; boshqa holatlarda esa (Surinam, Serra-Leone, Mavrikijiya) bir nechta katta etnik guruhlardan tashkil topgan kreol etnosida xalqlararo muloqot tili ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Amerika, Janubiy-sharqiy Osiyo va Avstraliyadagi bir qator davlatlarda ichki etnik muloqot tili sifatida kichik kreol til guruhlari qo‘llaniladi.

Kengaytirilgan pijinlardan birinchi navbatda etnoslararo muloqot tili sifatida foydalananiladi. Kengaytirilgan pijinlarning rivojlanishi xuddi kreol

tillardek o‘zining kommunikativ imkoniyatlariga ko‘ra, boshqa tillarga tenglasha oladi. Ushbu tillarning vazifalari ularning kelib chiqishi bilan emas, balki ushbu tilda so‘zlashuvchilarning bu tilga munosabati va ularning rasmiy mavqeyi bilan belgilanadi. Masalan, bislama tili Vanuatu Respublikasining milliy tili deb e’lon qilinganligiga qaramay, amalda u sobiq metropoliyalar tili bo‘lgan ingliz va fransuz tillaridan keyingi o‘rinda turadi. Yoki Solomon orollari pijini rasmiy mavqega ega bo‘lmagani holda, OAVda keng qo‘llaniladi.

Aksariyat yevropaliklar kreol va pijin tillarini ingliz, fransuz va boshqa tillarning buzilgan ko‘rinishi, deb hisoblashadi. Bunday qarash uzoq vaqt davomida kreol tillarning funksional rivojlanishiga, pijinlarning tarqalishiga, mazkur tillarda badiiy asarlar yaratishga, ta’lim sohasida va rasmiy doiralarda ulardan foydalanishga to‘sinqilik qilib keldi. Hatto, 1953-yilda BMT tomonidan Yangi Gvineya hududlarini boshqargan Avstraliyaga pijindan ma’muriy maqsadda foydalanish man qilingan, pijinda ta’lim-tarbiya olib borgan maktablarni yopish buyurilgan.

Ana shunday to‘sinqiliklarga qaramay, bugungi kunda kreol va pijin tillarida badiiy asarlar chop etilmoqda. Ular yuqorida qayd etilgan hududlarda keng, to’laqonli qo‘llanilmoqda. Masalan, Yangi Gvineya hududida u vositachi til bo‘lgan lingva-frankani muloqotdan asta-sekin siqib chiqarmoqda.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Pijin va kreol tillar nechanchi yildan boshlab tadqiqotchilarning e’tiborini torta boshlagan?
2. Qanday holatlarda yordamchi aralash til qo‘llaniladi?
3. Pijin qanday til?
4. Pijinlar qanday paydo bo‘ladi?
5. Kreol til qaysi tillarning asosida shakllanadi?
6. Kreol til pijindan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
7. Tilshunoslikning yordamchi aralash tillarni o‘rganuvchi bo‘limi qanday nomlanadi?
8. Prepijin deganda qanday til tushuniladi?
9. Lingva-franka qanday til?
10. Qanday tilga leksifikator deyiladi?
11. Qaysi pijin eng qadimiy hisoblanadi?
12. Bichlamar pijinidan dastlab kimlar foydalangan?
13. “Kreol” terminining kelib chiqishi qaysi so‘zga bog‘lanadi?
14. Qayday sharoitlarda pijinlar kreollashadi?

15. Yevropaliklar kreol va pijin tillarini qaysi tillarning buzilgan ko‘rinishi, deb hisoblashadi?

Adabiyotlar

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001.
2. Словарь социолингвистических терминов. Отв. ред.: В.Ю. Михальченко –М., 2006.
3. Miriam Meyerhoff. Introducing Sociolinguistics. –New York: Routledge 2006.
4. Salikoko S.Mufwene creoles and pidgins. The routledge companion to sociolinguistics. Edited by Carmen Llamas, Louise Mullany and Peter Stockwell. –New York: Routledge 2007.

8-MA'RUZA LISONIY VAZIYAT VA TIL SIYOSATI

Reja:

1. Lisoniy vaziyat
2. Ekzogloss lisoniy vaziyat
3. Endogloss lisoniy vaziyat
4. Til siyosati
5. Tilni planlashtirish

Tayanch so‘z va tushunchalar: lisoniy vaziyat, ekzogloss lisoniy vaziyat, muvofiqlashgan va muvofiqlashmagan ekzogloss lisoniy vaziyat, endogloss lisoniy vaziyat, muvofiqlashgan va muvofiqlashmagan endogloss lisoniy vaziyat, til siyosati, ichki til siyosati, tashqi til siyosati, tilni planlashtirish.

8. 1. Lisoniy vaziyat

Lisoniy vaziyat tushunchasi 30-yillarda Osiyo va Afrika tillari bilan shug‘ullanuvchi chet ellik tilshunoslarning ilmiy ishlarida birinchi bor qo‘llangan. 60-yillarga kelib sobiq Sho‘ro va Amerika tilshunoslari bu tushunchaga ahamiyat berib, unga sotsiolingvistik ta’rif berishdi⁴⁹.

C.A.Fergusonning fikricha, “*lisoniy vaziyat*” (language situation) deyilganda, muayyan bir vaqtda, muayyan bir joyda qanday tildan foydalilaniladi, tillarning soni, qanday turdag'i til ushbu hududda ishlataliladi, qancha odam, qanday sharoitda bu tilda gaplashadi, ushbu jamoa a‘zolarining bu tilga bo‘lgan munosabati, umuman, tilning qo‘llanish doirasi haqidagi masalalar tushuniladi⁵⁰.

Muayyan lisoniy hamjamiyatning u yoki bu davridagi ijtimoiy-kommunikativ tizim tarkibiy qismlari orasidagi funksional munosabat ushbu hamjamiyatga xos bo‘lgan *lisoniy vaziyatni* shakllantiradi. Bu munosabatlar ko‘pincha barqaror bo‘ladi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyatning, davlat tuzilishining o‘zgarishi, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy va milliy siyosatdagi yangi yo‘nalishlar va h.k. ijtimoiy-kommunikativ tizimning holatiga, uning tarkibiga, funksiyasiga va uning qismlari bo‘lgan kodlar va subkodlarga ta’sir qilishi mumkin.

“*Lisoniy vaziyat*” tushunchasi, odatda, katta til hamjamiyatlariga – mamlakatlar, hududlar, respublikalarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu tushuncha

⁴⁹ Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. –М.: Высшая школа, 1978. –С. 86.

⁵⁰ Ferguson C. A. Language structure and language use. – Stanford, 1971. –P. 157.

uchun zamon omili muhim hisoblanadi, ya'ni *lisoniy vaziyat* ijtimoiy-kommunikativ tizimning muayyan davridagi faoliyatidir.

Mašalan, Ukrainada ijtimoiy-kommunikativ tizimning asosiy tarkibiy qismlari ukrain va rus tillari hisoblanadi (bulardan tashqari, belorus, bolgar, venger, chek va boshqa tillar ham mavjud). SSSRning tarqalishigacha bu tillar orasida tenglik, muvozanat saqlangan. Binobarin, maktablarda ta'lif ukrain va rus tillarida olib borilgan, oly ta'lif va ilmiy sohalarda (tabiiy va texnik fanlarda ko'proq rus tili, ijtimoiy fanlarda ko'proq ukrain tilidan foydalanilgan) har ikkala til qo'llanilgan. 1990-yillarga kelib Ukrainianada rus tilining vazifalari qisqarib, u o'rta va oly ta'lif, ilm-fan, madaniyat sohalaridan, hatto, kundalik muloqotdan ham siqib chiqarila boshlandi.

Tabiiyki, bunday o'zgarishlar lisoniy vaziyatning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi, ayni paytda ukrain jamoasiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-kommunikativ tizimning tarkibi avvalgidek qoladi⁵¹.

Umuman, lisoniy vaziyatlar obyektiv omillar – ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda subyektiv omil – davlatda olib borilayotgan til siyosatiga bog'liq bo'ladi. Lisoniy vaziyatlar uni tarkib toptirgan qismlar tavsifiga ko'ra ekzogloss va endogloss turlarga ajraladi.

8.2. Ekvazgloss lisoniy vaziyat

Har xil tillar majmuyiga *ekzogloss* (yunon. *exō* “tashqi”) *lisoniy vaziyat* deyiladi. Ekvazgloss lisoniy vaziyat o'z navbatida muvofiqlashgan va muvofiqlashmagan bo'ladi.

Muvofiqlashgan ekzogloss lisoniy vaziyat. Agar tillarning tarkibiy qismi funksional jihatdan bir xil ahamiyatga ega bo'lib bir xil muloqot vazifasini bajarsa, u holda, *muvofiqlashgan lisoniy vaziyat* yuzaga keladi. Muvofiqlashgan ekzoglossga quyidagi misolni keltirish mumkin:

Shvetsariyada	nemis tili fransuz tili italyan tili	bir xil muloqot vazifasini bajaradi
Belgiyada	fransuz tili flamand tili	bir xil muloqot vazifasini bajaradi

Muvofiqlashmagan ekzogloss lisoniy vaziyat. Agar tillarning tarkibiy qismi funksional jihatdan har xil muloqot muhitida va turli ijtimoiy guruhlarda taqsimlangan bo'lsa, u holda, muvofiqlashmagan lisoniy

⁵¹ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. -С. 15-16.

vaziyat yuzaga keladi. Muvofiqlashmagan ekzogloss bir necha tarkibli bo‘lishi mumkin.

Ikki tarkibli muvofiqlashmagan ekzogloss. Uning tarkibi 1) kundalik turmushda qo‘llaniladigan nutq uchun xizmat qiladigan tiliar, ya’ni mahalliy tillar; shuningdek, 2) makroositachi til qismlaridan iborat. Bunday mahalliy tilga Angliyadagi uels tili, Fransiyada dehqonlar va dengizchilar tomonidan qo‘llaniladigan breton tili misol bo‘la oladi. Bu yerda ichki muloqotda mahalliy tildan foydalanilsa-da, jamoa tashqarisidagi muloqotda makroositachi tilni qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Ikki tarkibli muvofiqlashmagan ekzogloss Paragvaydagagi murakkablashgan lisoniy vaziyat uchun ham xosdir. Pragvay aholisining 95% guarani (kundalik) tilida so‘zlashadi, aholining 52% biladigan ispan tili rasmiy va yozuvli muloqot vositasi hisoblanadi⁵².

Uch tarkibli muvofiqlashmagan ekzogloss. Lisoniy vaziyatning mazkur turi muayyan davlatda tillarning uch funksional tipini o‘z ichiga oladi:

- 1) mahalliy tillar (Filippinning Luson va Mindanao orollarida yashovchi hamda Zoirning luba va mongo qabilalari tili);
- 2) mazkur tillar ko‘rsatilgan hududlarda faoliyatda bo‘lgan mintaqaviy tillar;
- 3) hudud tashqarisidagi turli jamoalar bilan muloqot qilishda makroositachi til qo‘llaniladi, masalan, Filippinda tagalog, Kongoda fransuz tilidan makroositachi til sisafida foydalaniladi. Tanzaniyada ham shunga o‘xhash, biroq beqaror bo‘lgan holatni kuzatish mumkin. Bu yerda mustamlaka davrlarida ingliz tili mintaqaviy, rasmiy til bo‘lgan, biroq hozirda mustaqil davlatda suaxili tili (makroositachi til) ingliz tilini ko‘p sohalarda muloqotdan siqib chiqarmoqda.

To‘rt tarkibli muvofiqlashmagan ekzogloss. Lisoniy vaziyatning ushbu turi:

- 1) mahalliy tillar;
- 2) mintaqaviy tillar;
- 3) makroositachi til;

4) diniy yoki kasbga oid tillar majmuyidan iborat. Masalan, Hindistonda: ingliz tili – makroositachi til, hind tili – rasmiy, mintaqaviy til, milliy tillar – mahalliy tillar va sanskrit – diniy yoki kasbga oid til vazifasini bajaradi⁵³.

⁵² Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. – М.: Высшая школа, 1978. – С. 104.

⁵³ Ko‘rsatilgan asar, 105-106-betlar.

8.3. Endogloss lisoniy vaziyat

Bir tilning tarmoqlari (ost tizimlari) majmuyiga *endogloss* (yunon. *endon* – “ichki”) *lisoniy vaziyat* deyiladi. Endogloss lisoniy vaziyat ham muvofiglashgan va muvofiglashmagan bo’ladi.

Muvofiglashgan endogloss lisoniy vaziyat. Muvofiglashgan endogloss lisoniy vaziyatning asosiy xususiyati unda milliy tilning bir qancha tarmoqlari (ost tizimlari) o‘z vazifasi jihatidan bir xil, teng hisoblanadi. Biroq hozirgi kunda biron bir mamlakatda lisoniy vaziyatning mazkur turini uchratish mushkul. Shunga qaramay, bu turga Somalidagi lisoniy vaziyat biroz yaqinlashadi. U yerda milliy til hududiy dialektlar majmuyida namoyon bo’ladi, milliy Somali tilining umumiy ko‘rinishi hali shakllanmagan.

Muvofiglashmagan endogloss lisoniy vaziyat. Muvofiglashmagan endogloss hodisasi, asosan, G‘arbiy Yevropa davlatlarida uchraydi. Muvofiglashmagan endogloss bir, ikki va uch tarkibli lisoniy vaziyatlarga ajtaladi.

Bir tarkibli muvofiglashmagan endogloss. Bunga Islandiyadagi lisoniy vaziyat misol bo‘la oladi. XIII asrlardayoq yozuv tili bo‘lgan island tili dialektlarga ajralmaydi. Mohiyatan bu subkodlarga ajralmaydigan yagona til. Uning yozma va so‘zlashuv me’yorlari orasidagi farqlari katta emas. Bir tarkibli muvofiglashmagan endogloss hodisasida rasmiy bir tillikni kuzatish mumkin. Shunga ko‘ra, Islandiyadagi lisoniy vaziyat bir tarkibli hisoblanadi.

Ikki tarkibli muvofiglashmagan endogloss. Mazkur lisoniy vaziyat turi ko‘p uchraydi. U ikki funksional tur: hududiy dialektlar va adabiy tildan tashkil topadi. Bunday lisoniy vaziyatga Daniyani misol qilib keltirish mumkin. Daniyada adabiy til (dan tili) bilan birga, Zeland dialektlari (Yutland, Fyun, Bronholm)ga asoslangan so‘zlashuv tili muloqot vositasi sanaladi. Shuningdek, XXDRda ham ikki tarkibli muvofiglashmagan endogloss kuzatiladi. U milliy til tarkibiy qismlari sifatida shimoliy-sharqiylar, shimoliy-g‘arbiy, markaziylar va adabiy tilni o‘z ichiga oladi.

Uch tarkibli muvofiglashmagan endogloss. Bu lisoniy vaziyat quyidagilardan tarkib topadi:

- 1) hududiy dialektlar;
- 2) adabiy til, ko‘proq yozuv tili;

3) adabiy tilning viloyat yoki hududiy shakllari. Masalan, Italiyada og‘zaki muloqotda asosan hududiy dialektlar (Venesian, Neapolitan, Milan, Sitsiliy kabi dialektlar yozma-adabiy variantga ega) qo‘llaniladi. Umumitalyan adabiy tili XIV asrda Florentiy dialekti asosida shakllangan.

Biroq Toskan tashqarisida faqat yozma shaklda ishlatilgan, binobarin, 1871-yilgacha Italiyada yagona ma'muriy va madaniy markaz bo'lмаган. XX asr boshlariga kelib, radio va televideeniye vositasida italyan adabiy tilining og'zaki shakli chekka hududlarga kirib keladi va ko'p sohalardan dialektlarni siqib chiqaradi.

8. 4. Til siyosati

Til siyosati deganda, davlat, sinf, ijtimoiy guruhlarning mavjud tillar yoki til osti tizimlari vazifalarini o'zgartirish yoki saqlab qolish, yangi lingvistik me'yorlarni joriy qilish yoki eski me'yorlarni saqlab qolishga qaratilgan tadbirlar majmuyi tushuniladi.

Til siyosatini ichki va tashqi til siyosatiga ajratish mumkin. *Ichki til siyosati* deganda, muayyan davlat doirasida bir yoki bir qancha tillarga nisbatan qo'llanilgan chora-tadbirlar majmuyi ko'zda tutiladi. Ko'p millatli davlatlarda bir qancha tillar faoliyat ko'rsatadi, shuning uchun ham bunday davlatlarning til siyosati milliy siyosatning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Ispaniyada ispan (kastil), katalon, galisiy va bask tillari rasmiy tillar hisoblanadi. Yoki Fransiyani oladigan bo'lsak, uning ichki til siyosati birinchi galda fransuz tilini unifikatsiya qilish, yoyish va mashhur qilishga qaratilgan. Fransuz hukumatining 1989-yil 2-iyundagi dekreti bilan Fransuz tili boshqarmasi (DGLF) tashkil qilingan. Mazkur tashkilotning vazifasi fransuz tilini to'g'ri qo'llash va uni yoyishga ko'maklashadigan boshqarmalar, davlat va nodavlat tashkilotlarini nazorat qilish, til masalalari bilan shug'ullanishdan iborat. Fransuz tili boshqarmasi davlat til siyosatini uch tamoyil asosida hayotga tatbiq qilish vakolatini olgan: 1) Respublika tili bo'lgan fransuz tili obro'yini oshirish; 2) fransuz tilining xalqaro muloqotdagi rolini mustahkamlash; 3) turli til va madaniyatlarni hurmat qilish hamda plurilingvizmni qo'llab-quvvatlash.

O'zbekistonning ichki til siyosatiga 1989-yildagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni, 1995-yildagi mazkur qonunning yangi tahriri, 1993-yildagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi", 1997-yildagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi va h.k.ni misol qilib keltirish mumkin.

Tashqi til siyosati mamlakat tashqi siyosatining bir qismi bo'lib, u biron bir tilni mamlakat tashqarisida, ya'ni xalqaro miqyosda keng yoyishga qaratiladi. Bunga AQShning ingliz tilini xalqaro til sifatida mavqeyini mustahkamlashga, uni keng miqyosda targ'ib qilishga qaratilgan harakatlari misol bo'la oladi. Ingliz tili AQShning 31 ta shtatinning, Angliyaning rasmiy tili va butun Buyuk Britaniyaning de-

faktosi (lot. "amalda", "aslida") hisoblanadi. Shuningdek, ingliz tili Irlandiya, Kanada va Maltadagi ikki rasmiy tildan biri hisoblanadi, Avstraliya va Yangi Zelandiyyada esa rasmiy til maqomiga ega. Ba'zi Osiyo davlatlari (Hindiston, Pokiston) va Afrika mamlakatlariда ham rasmiy til sifatida iste'mol qilinadi. 2000-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, unda 510 million kishi gaplashadi. Ingliz tili BMT ish yuritadigan olti rasmiy tildan biri sanaladi. Yoki Fransiyaning tashqi til siyosatini oladigan bo'lsak, unda fransuz tilini keng miqqosda yoyish nazarda tutilgan. Fransuz tili dunyoda eng ko'p o'rganiladigan chet tillardan biri bo'lib, tarqalishi jihatidan dunyo tillari orasida 11-o'rinda turadi. 53 ta davlatning va 29 ta hududning rasmiy yoki hamrasmiy tili hisoblanadi. Fransiyada aholining 82%, Monakoda 58%, Belgiyada 41%, Kanadada 23,2%, Shvetsariyada 18,4% fransuz tilida so'zlashadi. Fransuz Akademiyasining ma'lumotlariga ko'ra, 270 million kishi fransuz tilida o'z fikrlarini ifodalay oladi⁵⁴.

Hozirgi kunda o'zbek tilini AQSh, Angliya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda o'qitilayotgani, o'zbek tilini o'rganuvchilar va bu tilda gaplashuvchilar souining ortib borayotgani, o'zbek tilida kompyuter dasturlarining yaratilayotgani, xullas, o'zbek tilini dunyoviy tillar darajasiga olib chiqishga qaratilgan sa'y-harakatlar – O'zbekistonning tashqi til siyosatini belgilaydi.

V.A. Avroringa ko'ra, til siyosatining bevosita obyekti tilning funksional tomoni hisoblanadi. Tilning funksional tomoni tashqi ta'sirlarga sezuvchan bo'ldi. Jamiyat tilning struktura tomonini ham ma'lum darajada boshqarishi mumkin, biroq uni bevosita emas, tilning funksional tomoni vositasida boshqaradi⁵⁵. Odatda, tilning struktur tomoniga maktab, adabiyot, teatr, targ'ibot va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali, ya'ni tilning funksional tomoni bilan bevosita aloqador bo'lgan omillar va sharoitlar vositasida ongli ta'sir ko'rsatiladi⁵⁶.

Til tizimi yoki tilning ost tizimidagi o'zgarishlar aksariyat hollarda jamiyatning to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ta'sirida emas, balki xususiy kommunikativ funksiyalarning kengayishi yoki torayishi bilan bog'liq holda, bilvosita yuz beradi. Shunga qaramay, til tizimiga insonning bevosita ta'sirini inkor qilish to'g'ri bo'lmaydi⁵⁷. Bunga Koreya Xalq Demokratik Respublikasidagi til siyosatining "Madaniylashuv davri"

⁵⁴ <http://www.tlfq.ulaval.ca/axl/fiancophonie/fiancophonie.htm>.

⁵⁵ Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолингвистики). –Л., 1975. –С. 177.

⁵⁶ Швейцер А.Д. Современная социолингвистика: Теория. Проблемы. Методы. –М.: Наука, 1976. –С. 148.

⁵⁷ Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. –М.: Высшая школа, 1978. –С. 117.

(1964 -)ni misol qilib keltirish mumkin. 1964-yilda Shimoliy Koreyada siyosiy tus olgan til islohoti boshlandi. Koreys tilini yet so‘zlardan tozalash masalasi ko‘tarildi. 1964-yilda o‘tkazilgan Til qurultoyida mamlakat rahbari Kim Il Sung nutq so‘zladi. U o‘zining nutqida koreys tilidan o‘zlashmalarni siqib chiqarish, ayniqsa, qiyinchilik tug‘dirayotgan xitoy yozuvidagi so‘zlarni xalqqa tushunarli bo‘lgan koreyscha muqobillar bilan almashtirish masalasini o‘rtaga tashladi. Muammoni hal qilish uchun quyidagilarni taklif qildi:

- o‘zlashma so‘z tilga o‘z so‘zdek singib ketgan bo‘lsa, uni almashtirishga hojat bo‘lmaydi;
- xitoycha so‘z koreyscha sinonimiga ega bo‘lsa, uni almashtirish lozim;
- xitoycha so‘z va uning koreyscha sinonimi ma’no farqlariga ega bo‘lsa, unda so‘zlarni o‘z holicha qoldirish kerak;
- agar xitoycha (yoki boshqa o‘zlashma) so‘zni tushunish qiyin bo‘lsa, shuningdek, u koreyscha sinonimiga ega bo‘lmasa, u holda, yangi so‘z topish lozim.

Xullas. Shimoliy Koreyadagi til islohoti siyosiy mjhiyatga ega bo‘lib, u tilning so‘z boyligiga katta ta’sir o‘tkazgan.

Til siyosati haqida yanada aniqroq tasavvur hosil qilish uchun U.Braytning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Til siyosati tilni planlashtirish bilan shug‘ullanayotganlarga tegishli bo‘lib, ular rasmiy til siyosati shakllanishiga bevosita aloqador bo‘lgan tilshunoslar, ta’lim xodimlari, huquqshunoslar va rahbarlardir. Ular bir qancha tillar va dialektlar mayjud bo‘lgan muayyan jamiyatni o‘rganish jarayonida quyidagi savollar bilan to‘qnashadi: Tilning qaysi variantlari “rasmiy” yoki “milliy” tillar deb tan olinishi kerak? Mazkur variantlardan qay birini rasmiy matbuot, badiiy adabiyot, ta’lim muassasalari va sud jarayonlarida qo‘llash mumkin? Tasdiqlanmay qolgan boshqa til variantlariga nisbatan rasmiy munosabat qanday bo‘lishi lozim? Millatning siyosiy stratifikatsiyasi tilning bo‘linishiga qay tarzda mos kelishi kerak? Bunda yozuv tizimlarining rivoji va me’yorlashuvi qanday bo‘ladi?”⁵⁸.

Xullas, til siyosati davlat, sinflar va ijtimoiy guruhlар siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda sinflar va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari aks etadi. Til siyosati jamiyatning til rivojlanishiga bo‘lgan ongli ta’sirini namoyon qiladi.

⁵⁸ Брайт У. Введение. параметры социолингвистики // Новос в лингвистике. Вып. VII. - М., 1975. - С. 34-41.

8. 5. Tilni planlashtirish

“Tilni planlashtirish” (language planning) termini 1959-yilda E.Haugen tomonidan iste’molga kiritilgan bo‘lib, u sotsiolingvistika sohasida turli maqsadlarni qamragan jarayon sifatida qo’llanib kelinmoqda⁵⁹. Bu maqsadlar ayrim tadqiqotchilar tomonidan (Rabin 1971: 277-279) lingvistik, yarim lingvistik va nolingvistik maqsadlar sifatida talqin qilinsa, boshqa tadqiqotchilar tomonidan (Nahir 1984: 299-319) soflashtirish, yangilash, til islohotlari, standartlashtirish, yoyish, leksik zamonaviylashtirish, terminlarni birlashtirish va h.k. sifatida izohlanadi.

“Tilni planlashtirish” (language planning) termini “til siyosati”ga nisbatan kengroq tushunchani ifodalab. tilga nisbatan bo‘lgan har qanday ongli va ma’lum maqsadga qaratilgan o‘zgarishni o‘z ichiga oladi. E.Haugenning fikricha, tilni planlashtirish rasmiy yoki norasmiy bo‘lishi, shaxslar yoki rasmiy tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishidan qat’iy nazar, har qanday faoliyat turini o‘z ichiga oladi⁶⁰. Shunga ko‘ra, tilni planlashtirish subyekti nafaqat davlat, sinflar yoki ijtimoiy guruhlar, balki tilning rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishiga muhim ta’sir ko‘rsatadigan alohida shaxslar yoki guruhlarning me’yoriy faoliyatlari ham bo‘lishi mumkin. Masalan, XVIII asrda ingliz tili leksik me’yorini barqarorlashtirishda birinchi ingliz tili me’yoriy lug‘atini tuzgan S.Jonson muhim rol o‘ynagan⁶¹. Mazkur lug‘at keyingi leksikografik tadqiqotlar uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Bunga o‘xshash rolni AQShda ingliz tilining Amerika varianti me’yoriy lug‘atini tuzgan N.Webster o‘ynagan. Binobarin, har qanday milliy adabiy til funksiyalarini barqarorlashtirish va til me’yorlarini kodifikatsiya qilishda mutaxassislar (grammatikashunoslar, leksikograflar, dialektologlar)ning muntazam faoliyati talab qilinadi⁶².

Har qanday planlashtirishda bo‘lganidek, tilni planlashtirish ham muammolarni hal qilishga, ularga maqbul yechimlar izlab topishga qaratilgan bo‘ladi. Tilni planlashtirish muammolarga yechim izlash jarayoni (decision process) sifatida bir qancha bosqichlarga bo‘linadi: 1) sotsiolingvistik ma’lumotlar majmuyini baholash, buni “boshlang‘ich vaziyat” (background situation) deyish mumkin; 2) maqsad va yo‘nalishlar hamda bu maqsadga erishish yo‘llari ko‘rsatilgan faoliyat dasturini ishlab chiqish; 3) so‘nggi natijalarni baholash.

⁵⁹ Haugen E. The implementation of corpus planning. Theory and practice // Progress in Language Planning International Perspectives. –The Hague: Mouton, 1983. –P. 269-290.

⁶⁰ Haugen E. The ecology of language. –Stanford, 1972. –P. 161.

⁶¹ Ярцева В.Н. Развитие национального литературного английского языка. –М., 1969. –С. 194.

⁶² Швейцер А.Д. Современная социолингвистика: Теория. Проблемы. Методы. –М.: Наука, 1976. –С. 153.

E.Haugen tilni planlashtirish muammolari haqida to'xtalib, shakl va funksiya bilan bog'liq muammolar, ya'ni til strukturasi va uning qo'llanish vazifalari bilan bog'liq muammolarni bir-biridan farqlaydi. Til muammosining xususiyatlariga ko'ra, uni yechish yo'llari va usullari aniqlanadi. Masalan, shakl bilan bog'liq muammolarga me'yorlashtirish xos bo'ladi. Bunda raqobatlashayotgan til shakllaridan biri yoki butun bir tizim tanlab olinadi. Til qo'llashning vazifalari bilan bog'liq bo'lgan muammolarda, boshlang'ich bosqichda u yoki bu funksiyani ishlab chiqish, yakuniy bosqichda esa uni yoyish, ommalashtirish amalga oshiriladi⁶³.

Tilni planlashtirish muammolar va unga mos jarayonlarning termini bilan tavsiflanadi. Jumiadan, "kod.tanlash" (masalan, davlat tilini tanlash, ya'ni biron tilga davlat tili maqomi berish) muammosiga "rasmii til siyosatining shakllanishi" jarayoni, "kodni barqarorlashtirish" muammosiga lug'atlar, grammatikalar, imlo lug'atlar yordamida kodlashtirish jarayoni, "kodning qo'llanish doirasini kengaytirish" muammosiga terminlar tizimi va tezauruslarni ishlab chiqish jarayonlari mos keladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Lisoniy vaziyat deganda nimani tushunasiz?
2. C.A.Ferguson lisoniy vaziyatni qanday ta'riflaydi?
3. Nima uchun "lisoniy vaziyat" tushunchasi katta til hamjamiyatlariga nisbatan qo'llaniladi?
4. Lisoniy vaziyat turlarini aytинг.
5. Ekzogloss lisoniy vaziyat nima?
6. Endogloss lisoniy vaziyat nima?
7. Muvofiqlashgan endogloss lisoniy vaziyatning asosiy xususiyati nimada?
8. "Til siyosati" tushunchasiga ta'rif bering.
9. Ichki til siyosati nima?
10. Tashqi til siyosati nima?
11. V.A.Avroringa ko'ra, til siyosatining bevosita obyekti nima?
12. Til siyosati haqida U.Brayt qanday fikr bildiradi?
13. "Tilni planlashtirish" terminini kim iste'molga kiritdi? U nima?
14. Tilni planlashtirish muammolariga yechim izlash jarayoni bosqichlarini sanang.

⁶³ Haugen E. Linguistics and Language Planning. In W.Bright (ed.). Sociolinguistics. -Mouton. 1966.

15. Tilni planlashtirish qanday muammolarni bartaraf etishga imkon beradi?

Adabiyotlar

1. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолингвистики). –Л., 1975.
2. Брайт У. Введение: параметры социолингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. –М., 1975.
3. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001.
4. Швейцер А.Д. Современная социолингвистика: Теория. Проблемы. Методы. –М.: Наука, 1976.
5. Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. –М.: Высшая школа, 1978.
6. Ярцева В.Н. Развитие национального литературного английского языка. –М., 1969.
7. Haugen E. Linguistics and Language Planning. In W.Bright (ed.). Sociolinguistics. –Mouton, 1966.
8. Ferguson C.A. Language structure and language use. – Stanford, 1971.
9. Haugen E. The ecology of language. –Stanford, 1972.
10. Haugen E. The implementation of corpus planning: Theory and practice // Progress in Language Planning International Perspectives. –The Hague: Mouton, 1983.
11. <http://www.tlfq.ulaval.ca/axl/francophonie/francophonie.htm>.

9-MA'RUZA

SOTSIOLINGVISTIKANING ASOSIY YO'NALISHLARI

Reja:

1. Sinxron va diaxron sotsiolingvistika
2. Makro va mikro sotsiolingvistika
3. Nazariy va tajribaviy sotsiolingvistika
4. Sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi
5. Amaliy sotsiolingvistika

Tayanch so'z va tushunchalar: sinxron sotsiolingvistika, diaxron sotsiolingvistika, makro sotsiolingvistika, mikro sotsiolingvistika, nazariy sotsiolingvistika, tajribaviy sotsiolingvistika, til sotsiologiyasi, amaliy sotsiolingvistika.

9.1. Sinxron va diaxron sotsiolingvistika

Ferdinand de Sossyur davridan boshlab lingvistikada til tadqiqining sinxron va diaxron jihatlari farqlanadi. Shunga ko'ra, sinxron lingvistika va diaxron lingvistika ajratiladi. Olimlar bunday bo'linishning shartli ekanligini ta'kidlaydilar, binobarin, tilning u yoki bu holatini tadqiq etishda (sinxron lingvistikaning shug'ullanish sohasi) uning tarixiy omili(diaxron lingvistikaning o'rGANISH predmeti)ni ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, aksincha, til tarixinining samarali tadqiqi ba'zan tilning u yoki bu davrdagi rivojlanish holatini tavsiflovchi sinxron rivojlanishning muayyan bir paytini qiyoslash yo'li orqali amalga oshiriladi. Tilni o'rGANISHdagi bunday sinxron va diaxron bo'linish sotsiolingvistikada ham mayjud. Sinxron sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini, diaxron sotsiolingvistika til rivojlanishining jamiyat rivojlanishi bilan aloqasini tavsiflovchi jarayonlarni o'rGANADI.

Sinxron sotsiolingvistika til va jamiyat aloqalariga tegishli munosabatlar va jarayonlarni o'rGANADI. Munosabatlar bu aloqalarning statikasini, jarayonlar esa ularning dinamikasini ifodalaydi.

U yoki bu til egasi muayyan ijtimoiy xususiyatlarga, xususan, ma'lum ta'lim darajasi, kasb-hunar, qadriyatlar yo'nalishi tizimi va boshqalarga ega. "Til egasi" va "ijtimoiy xususiyatlar egasi" maqomining o'zaro munosabati zamonda o'tib boruvchi qandaydir jarayonlar bilan bog'liq emas. Lekin turli ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan kishilarning tildan foydalananish xususiyatlarini mazkur shart-sharoitlardan tashqarida, nutqiy

muloqot jarayonini kuzatish orqaligina tadqiq etish mumkin. Statika dinamika bilan o'rin almashadi⁶⁴.

Ko'p tilli jamiyatda tillar til egalari orasida ularning etnik xosligiga ko'ra taqsimlanadi: masalan, hozirgi Rossiyada ruslar bilan birga tatarlar, yoqtular, osetin va boshqa xalqlar ham istiqomat qiladi, ularning har biri o'z ona tiliga ega. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, tillar va etnoslar orasidagi munosabat bir xil bo'lmaydi: bir tomondan, ko'p millat vakillari o'z ona tilidan tashqari shu jamiyatda keng qo'llanuvchi boshqacha tillardan ham foydalanadilar; boshqa tomondan, shunday tillar borki, masalan, suaxili tili, "bu tilda so'zlashuvchi tub etnik qatlama yo'q, chunki Afrikada ona tili suaxili bo'lgan avtoxton etnosi mayjud emas"⁶⁵.

Yana bir misol. Qandaydir milliy tilni uning ijtimoiy differensiatsiyasi nuqtayi nazaridan tasvirlashda, odatda, unda muayyan til tizimlari – adabiy til shakllari, hududiy dialektlar, kasbiy va ijtimoiy jargonlar, shahar koynesi va h.k.ning mavjudligi qayd qilinadi. Mazkur til tizimlari bir-biridan ihotalanmagan holda mavjud, ya'ni ular o'zaro munosabatda bo'ladi. So'zlashuvchilar bu til tizimlaridan qanday foydalanadi? Ularning funksional munosabati qanday bo'ladi? - kabi savollarga javob berilar ekan, tilning ijtimoiy differensiatsiyasini tavsiflovchi statikadan mazkur tilni tarkib toptiruvchi ost tizimlarning vazifalari dinamikasiga o'tiladi.

Sinxron sotsiolingvistika sohasiga lisoniy ijtimoiylashuv, tilni o'zlashtirishni ijtimoiy rollar tizimini o'zlashtirish, "vaziyat grammaticasi" asoslarini bilish va boshqalar bilan bog'liq holda o'rganish ham kiradi. Sinxron sotsiolingvistikaning shug'ullanish sohasi haqida L.B.Nikolskiy, J.Fishman, J. Gampers va D.Hayms tahriri ostida nashr qilingan "Directions in sociolinguistics" (1972)da bat afsil ma'lumot berilgan.

Diaxron sotsiolingvistika til rivojlanishining jamiyat rivojlanishi bilan aloqasini ko'rsatuvchi jarayonlarni, ya'ni til tarixini xalq tarixi bilan bog'lab o'rganuvchi sotsiolingvistik tadqiqotlar yo'naliishidir.

Til faktlari va ijtimoiy jarayonlarning sistematik, tadrijiy o'zaro munosabatini aniqlash sotsiolingvistik tadqiqotlarga xos xususiyatdir. Agar tadqiqotchi biron bir til tarixini o'rganish jarayonida xalq tarixiga oid hodisalarни shunchaki qayd qilgan bo'lsa, unda bunday ishni sotsiolingvistik tadqiqot sifatida qabul qilish qiyin bo'ladi. Agar tadqiqot tilning rivojlanishiga xos bo'lgan ichki qonuniyatlar va tashqi ijtimoiy omillarning til rivojiga ta'sirini aniq chegaralashga asoslangan bo'lsa va til

⁶⁴ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. -С. 170.

⁶⁵ Рябова И. С. Различия в функциональном членении суахили в Танзании и Кении // Функциональная стратификация языка. -М., 1985. -С. 107.

o‘zgarishlarini u yoki bu hodisaga ta’sirini tahlil qilgan bo‘lsa, u holda, bunday ishni diaxron sotsiolingvistik tadqiqot, deb aytish mumkin.

Til taraqqiyoti va jamiyat taraqqiyoti o‘rtasidagi muntazam aloqalarni til tadrijiy rivojlanishining muayyan qisqa muddati ichida kuzatish mumkin. Masalan, P. Lafarg Buyuk fransuz inqilobi davrida fransuz tilida yuzaga kelgan yangiliklarni tadqiq qilgan⁶⁶; A.M.Selishev o‘zining mashhur “Inqilob davri tili” asarida rus tilining inqilobdan keyingi 10 yil davomida yuz bergan o‘zgarishlarini tahlil qilgan va bu o‘zgarishlarni 1917-yil oktyabr to‘ntarishi natijasida Rossiyada sodir bo‘lgan o‘zgarishlar bilan qiyoslagan⁶⁷. Nemis tadqiqotchisi L.Sibatovning kitobida XX asrning 80-90-yillaridagi rus tiliga xos bo‘lgan o‘zgarishlar mazkur davrdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan⁶⁸.

Tilni diaxron nuqtayi nazardan sotsiolingvistik o‘rganishning maqsadi – til tarixi, tarixiy taraqqiyot natijasida yuz bergan o‘zgarishlar va shu tilga xizmat qiluvchi jamiyat tarixi, shuningdek, jamiyat va uning iqtisodiy institutlarining tadrijini tavsiflovchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni qamrab olish hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida tadqiqotchi qator masalalarni yechishga harakat qiladi, ular orasida lisoniy va ijtimoiy hodisalar o‘rtasidagi aloqalarning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diaxron sotsiolingvistikaning vazifalariga jamiyatdagi o‘zgarishlar ta’sirida lisoniy vaziyatda vujudga kelgan o‘zgarishlarni o‘rganish, til (yoki tillar) funksiyalari yig‘indisi va unga xos o‘zgarishlar tahlili, milliy tilning adabiy shakli va sotsiolektlarning ijtimoiy va kommunikativ mavqeyidagi o‘zgarishlar, jamiyatning butunicha yoki alohida ijtimoiy guruuhlar munosabatida o‘z tiliga yoki uning biron bir shakliga, tildagi yangiliklarga nisbatan o‘zgarishining tadqiqi va h.k. kiradi.

Diaxron sotsiolingvistikaga muayyan tadqiqotlar uchun sinalgan tamoyillar xosdir: til tarixi shu til egalarining tarixi bilan, ularning kundalik hayoti bilan chambarchars bog‘liq holda o‘rganilishi kerak. “So‘z dialektdan dialektga, tildan tilga bozor yoki ko‘rgazma, ibodatxona yoki muqaddas joylar, olimpiya o‘yinlari, teatr yoki sirk, korrida yoki futbol namoyishiiga borayotgan odamlar bilan birga sayohat qiladi. So‘z mahsulot yorlig‘i, har qanday moddiy yoki ma’naviy ishlab chiqarish bilan birga sayohat qiladi”⁶⁹.

⁶⁶ Ляфарг П. Язык и революция. –М.; -Л. 1930.

⁶⁷ Селищев А. М. Язык революционной эпохи. -М., 1928.

⁶⁸ Zybatow L. N. Russisch im Wandel. Die russische Sprache seit der Perestrojka — Wiesbaden, 1995. Vol. II.

⁶⁹ Журавлев В.К. Диахроническая социолингвистика (предмет, задачи, проблемы) // Диахроническая социолингвистика / Отв. ред. В.К. Журавлев. —М., 1993. С. 7.

9. 2. Makro va mikro sotsiolingvistika

Sotsiolingvistika shug'ullanadigan obyektlarning ko'lamiga ko'ra, makro va mikro sotsiolingvistikaga bo'linadi. Makro va mikro sotsiolingvistikaning faqqlanishi muayyan ma'noda sotsiologiyaning makro va mikro sotsiologiyaga ajralishiga o'xshaydi. Binobarin, makro sotsiologiya butun bir jamiyatning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq global jarayonlar bilan shug'ullansa, mikro sotsiologiyani insonning u yoki bu ijtimoiy guruhning a'zosi ekanligi qiziqtiradi.

Ba'zi mualliflar til hodisalarini makro va mikro yo'nalishda emas, balki sotsiolingvistik tahlil qatlamlari sifatida farqlaydilar (masalan, Berruto 1974, 4 bob). Biroq sotsiolingvistikaning taraqqiyoti mobaynida bu tahlil darajalari mustaqillasha bordi va sotsiolingvistikaning o'zaro kam kesishuvchi ikki yo'nalishiga aylandi.

Makro sotsiolingvistika tilning u yoki bu darajada ijtimoiy omillar bilan shartlangan yirik ko'lamdag'i jarayonlarini o'rganadi. Bu jarayon va munosabatiar jamiyatga to'liqligicha yoki uning katta majmuasiga: ijtimoiy qatlam, etnos, etnik guruh kabilarga xos bo'ladi. Masalan, tilning ijtimoiy differensiatsiyasini o'rganish makro qatlamni: mazkur milliy til va uning kichik tizimlarini o'z ichiga oladi.

Makroyondashuv ikki tillilikka bag'ishlangan ko'plab ishlarda keng kuzatiladi; tilni me'yorashtirish va kodifikatsiyalash muammolar, shuningdek, til siyosati va lisoniy rejalashtirish masalalari ham eng avvalo, makro sotsiolingvistik yondashuv doirasida o'rganiladi. Chunki bu masalalar mazkur til (yoki tillar)dan foydalanuvchi butun aholining yoki uning katta qismiga tegishli manfaatlarga taalluqli bo'ladi. Masalan, bir davlatda yashovchi kichik elatlar tiliga xos siyosiy masalalarda tadqiqotchi shu etnos tilining alohida vakillari misolida emas, balki bu tilning u yoki bu darajada saqlanib qolganini butun etnos misolida o'rganib chiqadi. Ko'p millatli jamiyatda u yoki bu etnos tilining funksional xossalari, shakkllari, ularning qandaydir tarkibiy qism sifatida biror bir milliy tilga kirganini tekshirish uchun ham mikroyondashuv talab qilinadi.

Makro sotsiolingvistikaga ijtimoiy darajada o'ta muhim – lisoniy vaziyatlar tahlili bilan bog'liq muammolar ham kiradi. Jamiyatning lisoniy hayotida makroyondashuv asosida tadqiq qilinishi kerak bo'lgan muammolar ko'p. Bu muammolarning turli tumanligi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini "Dunyoning turli hududlaridagi sotsiolingvistik muammolar" nomli yirik to'plamga murojaat qilib ham bilib olish mumkin.

Ikki tillilik muammosi ham makro sotsiolingvistikada o'rganiladi. Tilning sayqallanishi va uni kodlashtirish; til siyosati va tilni

prognozlashtirish muammolari makro sotsiolingvistikaning obyekti hisoblanadi.

Lisoniy vaziyatlarning tahliliga bog'liq muammolar ham makro sotsiolingvistika doirasida o'rganiladi. Biror bir ijtimoiy-kommunikativ tizimning muloqot sohalariga bo'linishi, kommunikativlik darajasini aniqlash kabilar shular jumlasidandir.

Mikro sotsiolingvistika tilning kichik jamoalar (oila, ishlab chiqarishdagi guruhlar, bog'cha, maktabdagi sinflar va h.k.)da ishlatalishi bilan shug'ullanadi. Katta va kichik ijtimoiy jamoalar nafaqat miqdor, balki sifat nuqtayi nazaridan ham farqlanadi: kichik ijtimoiy jamoada (masalan, oilada, turli o'yinlar va ishlab chiqarish guruhlarida) qo'llanuvchi til qonuniyatları ko'pincha kattalar jamoasida "ishlamaydi" yoki u darajada ta'sir qilmaydi va aksincha.

Ko'p yillar mobaynida sotsiolingvistikada keng miqyosdagi jarayon va munosabatlar obyekt qilib olingen tadqiqotlar asosiy o'rinni egallagan. Ozchilikni tashkil qilgan guruhlarga aloqador lisoniy jarayonlar va munosabatlarga e'tibor berilmagan. Biroq bunday kichik guruhlarni sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish zarurati haqidagi fikrlar ko'p marta qayd qilingan. Bunday tadqiqotlarda insonning nutqiy muomalasi haqidagi qator muammolar to'g'ri yechimini topishi mumkin. Bundan tashqari individ nafaqat so'zlovchi sifatida, balki ma'lum jumlalarni "yaratuvchi" sifatida ham aynan shunday kichik guruhlarda (butun jamiyatda emas) namoyon bo'ladi⁷⁰.

Mikro sotsiolingvistika, shubhasiz, tilshunoslikning sohasidir. Garchi u tilning kichik guruh ichida maxsus qo'llanishini o'rgansa-da, uning obyektini bevosita til tashkil qiladi. Biroq u inson haqidagi boshqa fanlar, eng avvalo, psixologiya va ijtimoiy psixologiya bilan chambarchas aloqada, chunki uning asosiy tushunchalari aynan shu sohalardan olingen.

Mikro sotsiolingvistika shug'ullanadigan muammolarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) muayyan kichik ijtimoiy guruhda qanday til qo'llanadi?
- 2) bu til shu kichik jamoa a'zolari tomonidan qanday ishlataladi?

Bu savollarning javobi bir qarashda ma'lumday ko'rindi. Agar muayyan guruh qandaydir uni qamrab olgan jamiyat (millat, mamlakat, etnos va sh.k.) ichida mavjud bo'lsa, guruh a'zolari guruh ichidagi muloqotda shu jamiyatda amalda bo'lgan til hosilalaridan foydalaniishi kerak.

⁷⁰ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001. –С. 177.

Guruh a'zolari foydalanuvchi til umummilliy til bo'lmaydi. Buni "oilaviy" deb ataluvchi tillarning mavjudligi isbotlaydi: umumiste'moldagi til vositalari bu o'rinda muayyan transformatsiyaga uchraydi. Guruhlarda alohida "tillar"ning ishlab chiqilishini ham shunga qiyoslash mumkin: ishlab chiqarish, o'yin, sport yoki boshqa biror bir qiziqishlari birlashtirgan jamoa a'zolarining tillari (bunda ijtimoiy va professional jargonlar emas, baiki o'ta tor doiradagi guruhlarda mavjud bo'lgan o'ziga xos muloqot vositasi nazarda tutiladi). Bunga guruh ichidagi muloqotda nutq qoliplarining shakllanishini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu jamoaviy faoliyat jarayonida kishilar tomonidan muayyan xulq stereotiplari ishlab chiqiladi, guruh a'zolarining o'zaro kommunikativ aloqlari nutq qoliplarining shakllanishiga olib keladi. Bunday qoliplar qatoriga alohida nutq birliklari, shuningdek, mazkur guruhning kommunikativ tajribasini aks ettiruvchi jumla va suhbatlarning turli qismlari, u yoki bu nutqiy aktlarning boshlanishi yoki tugallanishini ifodalovchi o'ziga xos shakllar, badiiy asarlarda yoki biron bir guruh a'zosining og'zaki gaplarini kiritish mumkin⁷¹.

Mikro sotsiolingvistikada nutqiy muloqotning diada va triada turlarini tadqiq etish keng tarqalgan. Masalan, shifokor va bemor, er va xotin, o'qituvchi va o'quvchi, sudya va sudlanuvchi yoki advokat va h.k. Bunday "mikroguruh" a'zolarining nutqiy muomalasini bat afsil tadqiq etish natijasida muloqotchilarning turli darajadagi mavqeyi va rollarini boshqaruvchi nutqiy muloqot mexanizmlari oshib beriladi.

Nutqiy o'zaro munosabatning bunday mikrotahliliga U.Labov va D.Fenshellarning "Терапевтический дискурс. Психотерапия как общение" асарини misol sifatiida kursatiш mumkin⁷². Mazkur asarda psixoterapevtning bemorlar bilan olib borgan suhbatlari asosida muloqotchilar nutqiy usulini xarakterlovchi umumiyl qoidalar va uning verbal va noverbal (harakat, imo-ishora, o'tirish holati va h.k.) ko'rinishlari tadqiq etilgan.

9.3. Nazariy va tajribaviy sotsiolingvistika

Til tadqiqiga ijtimoiy nazar bilan yondashishning dastlabki bosqichida ijtimoiy-lisoniy aloqalar tahliliga aqliy yondashuv xos bo'lib, mazkur sohaga tegishli daliliy materiallar hali yetarli emas edi. "Til-jamiyat" munosabatiga oid masalalar endigina o'rtaga tashlangan va ular umumiyl

⁷¹ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. М., 2001. -С. 178.

⁷² Labov W., Fanshel D. Therapeutic discourse. Psychotherapy as conversation. - New York; -San-Francisco; -London, 1977.

nuqtayi nazardan muhokama qilinar edi. Bunday tadqiqotlarga Y.D.Polivanov va A.Meyening ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Dastlabki sotsiolingvistik tadqiqotlar sotsiolingvistika nazariyasini shakllantirishda asos vazifasini o‘tadi. Sotsiolingvistik tadqiqotlarning mazkur yo‘nalishi, asosan, “til - jamiyat” munosabatlariga aloqador bo‘lgan umumiylar umammolarning tadqiqi bilan shug‘ullanadi. Bu muammolar quyidagilardan iborat:

- tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqidagi umumiylar atrofida guruhlangan aksiomalar tizimini shakllantirish;

- til taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni aniqlash va ularning ijtimoiy tabiatini isbotlash;

- til mavjudligining ijtimoiy shartlanganligini tekshirish, uning turli muloqot muhitlari va ijtimoiy vaziyatlarga bog‘liqligini ko‘rsatish;

- kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy rollari tizimi yoki bu nutqiylar amalga oshirishdagi ijtimoiy-psixologik sharoitlar, so‘zlovchining bir koddan boshqasiga o‘ta olishi kabi qator omillarning ahamiyatini aniqlash va h.k⁷³.

Sotsiolingvistikaning nazariyachilari tilning ijtimoiy omillariga ommaviy empirik materiallarni bog‘lash zaruratinin dastlabki bosqichlardoq anglab yetishgan edi. XX asrning 60-yillarda Rossiyada M.V.Panov, AQShda U.Labov bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda sotsiolingvistik tadqiqotlarning zaruriy bosqichi va muayyan nazariy asoslarni isbotlash usuli sifatida tajribaga murojaat qilishgan. Mazkur xattiharakatlar tajribaviy sotsiolingvistikaning rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Zamonaviy sotsiolingvistik tajriba ulkan tashkiliy faoliyat va muayyan moliyaviy xarajatlarni talab qiladigan murakkab ishdir. Binobarin, tajriba o‘tkazuvchi tadqiqotchi kishilar nutqiylar muomalasining o‘ziga xos tomonlari yoki lisoniy hamjaniyatlarni tashkil qilgan turli ijtimoiy guruuhlar haqida imkon qadar xolis va yetarli ma’lumotlar olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. O‘z navbatida, tajriba o‘tkazishning ishonchli vositalari, sinalgan usullar, maxsus tajriba dasturiga amal qiluvchi axborot beruvchi informantlar jamoasini to‘g‘ri tanlay olish ham muhim hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, fan tarixida qo‘pol sotsiolingvistik tajribalar ham o‘tkazilgan. R. Bell yarim hazil, yarim chin ma’noda ilk sotsiolingvistik tajribachi sifatida galaadityan qabilasiga mansub qadimgi lashkarboshi Ieftayni ko‘rsatadi. U dushman “beshinchli kolonna” efremliklar qabilasi vakillarining o‘z harbiy kuchlariga kirib olishining

⁷³ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. --С. 182.

oldini olish maqsadida lordan daryosi kechuviga kelgan har bir jangchiga “shibboleth” (yahudiy tilida “oqim” degani) - deb aytishni buyurgan. Galaaditliklar “shibboleth” so‘zi boshidagi [v] tovushini qiynalmasdan to‘g‘ri falaffuz qilishgan, efremliklar esa uni talaffuz qila olishmagan. Bu tajribaning natijasi qonli bo‘lib, “shibboleth”ni galaaditcha aytolmagan 42 ming efremlik o‘z hayoti bilan vidolashgan⁷⁴.

Tajribaviy tadqiqotlarni o‘tkazish uchun maxsus uslublar majmuyi ishlab chiqilmoqda. Bunday uslublardan ayrimlari U.Labov va uning izdoshlari tomonidan ingliz tilining Amerika variantini o‘rganishda, shuningdek, M.V.Panov rahbarligidagi moskvalik tilshunoslar tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.

9.4. Sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi

Qator tadqiqotchilar “sotsiolingvistika” termini bilan bir qatorda “til sotsiologiyasi” terminini ham qo‘llaydilar. Ba’zi tadqiqotchilar ularni sinonim deb hisoblasa, boshqalar sotsiolingvistikani til sotsiologiyasining bir yo‘nalishi sifatida har birining boshqa-boshqa tushuncha, deb farqlash kerakligini ta‘kidlaydilar.

Aksariyat zamonaviy sotsiolingvistlarning fikrlariga ko‘ra, **sotsiolingvistika** bu til sohasi bo‘lib, u til hodisalariga ijtimoiy omillarni jalg qilgan holda o‘rganadi; **til sotsiologiyasi** esa fanlararo chatishgan soha bo‘lib, u sotsiologik maqsad va tadqiqot metodlarini jingvistik materiallar bilan aloqadorlikda tadqiq etadi⁷⁵.

Ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan til variativligini o‘rganadigan sotsiolingvistikadan farqli o‘laroq, til sotsiologiyasi tilning, xususan, turli ijtimoiy guruhlarda til variantlarining qanday taqsimlanganligi va bu guruhlar qanday qilib til orqali o‘z maqsadlariga erishishlari bilan qiziqadi. Masalan, sotsiolingvistni hokimiyatning tilni boshqarishi, uning tilni ijtimoiy demagogiya yoki haqiqatni yashirish vositasi sifatida qo‘llashi yoki siyosiy raqib bilan shaxsiy obro‘-manfaatga futur yetkazmasdan kelishish yo‘llari qiziqtiradi. Ya’ni, sotsiolingvist “tildan”, til faktlaridan kelib chiqib ish ko‘rsa, til sotsiologji “jamiyatdan”, ijtimoiy munosabatlar va institutlardan kelib chiqqan holda ish ko‘radi.

Shunday qilib, sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi tadqiqot maqsadi va vazifalarida ko‘plab mushtarakliklarga ega, biroq mazkur maqsadlarga erishishda va vazifalarini amalga oshirishda ularning yo‘llari bir-biridan

⁷⁴ Белл Р. Социолингвистика. Цели, методы и проблемы. –М.: Международные отношения, 1980. –С. 299-300.

⁷⁵ Kjolseth R. The development of the sociology of language and its social implications // Sociolinguistics Newsletter. 1972. Vol. III; Белл Р. Курсатилган асар.

farq qiladi: birinchisi tildan jamiyatga, ikkinchisi jamiyatdan uning lisoniy xususiyatlariiga tomon boradi.

Ayrim tadqiqotlarda bu ikki termindan tashqari yana *lingvistik sotsiologiya* yoki *lingvosotsiologiya* ham ajratiladi. L.B.Nikolskiyning ushbu tushunchaga bergen ta’rifidan kelib chiqib, uni “til sotsiologiyasi” terminining mazmuniga juda yaqin turishini aytish mumkin. Lingvistik sotsiologiya ijtimoiy sohalar va jarayonlarni ularning lisoniy aksi orqali o’rganadigan yo’nalishdir⁷⁶.

9.5. Amaliy sotsiolingvistika

Qator fanlar o’z oldida turgan vazifalarini nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyot bilan bog’lab ham hal qiladi. Odatda, bunday yo’nalishlar *amaliy* deb yuritiladi. Masalan, yozuvsiz mayda millatlar uchun yozuv va alifbolar tuzishdan tortib, to mashina tarjimasi, matnni avtomatik qayta ishslash va ma’lumotlar qidirish kabi keng amaliy muammolar bilan shug’ullanadigan amaliy tilshunoslik, yoki amaliy matematika, amaliy psixologiya va qator boshqa amaliy fanlarni ko’rsatish mumkin.

Amaliy sotsiolingvistika obyektini ona tili va chet tillarni o’qitish, davlat til siyosatini tashkil qilish, amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va boshqa muammolar tashkil qiladi. Sotsiolingvistik nazariyalar va sotsiolingvistik tadqiqotlarning amaliy yechimini topish ko’pincha u yoki bu davlatdagi lisoniy vaziyatlarning tabiatiga bog’liq bo’ladi. Ko’p tilli davlatlardagi muammolar boshqa, bir tilli davlatlardagi muammolar boshqa. Ko’p tillilik sharoiti uchun yagona mamlakatda yashovchi barcha millatlarga muloqot vositasi bo’lib xizmat qiluvchi, shuningdek, davlat tili mavqeyidagi makrōvositachi tilni tanlash masalasi o’ta muhim hisoblanadi. Bir tillilik sharoiti uchun adabiy tilni me’yorlashtirish va kodlashtirish, uning boshqa milliy til tizimlari bilan munosabati masalasi dolzarbdir. Shunga ko’ra, sotsiolingvistik muammolarni ishlab chiqish, sotsiolingvistika amaliy yo’nalishlarini belgilash turlicha bo’ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Til tadqiqida sinxron va diaxron jihatlarning farqlanishi qanday tarixiy omillar bilan bog’liq?
2. Sinxron sotsiolingvistika nimani o’rganadi?
3. Diaxron sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatini qaysi jihatdan tadqiq qiladi?

⁷⁶ Никольский Л. Б. Язык в политике и идеологии стран зарубежного Востока. –М., 1986. –С. 131.

- Makro sotsiolingvistika til hodisalari tadqiqiga qanday ko‘lamda yondashadi?
- Mikro sotsiolingvistikaning o‘rganish obyektiga misollar keltiring.
- Nazariy sotsiolingvistikning asosini nima tashkil qiladi?
- Tajribaviy sotsiolingvistika fanning rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?
- Ilk tajribaviy sotsiolingvistik tadqiqot nimadan iborat bo‘lgan?
- Sotsiolingvistika va til sotsiologiyasining tadqiqot maqsadi va vazifalarini sanab kering, ularning mushtarak va o‘ziga xos jihatlarini aytинг.
- Amaliy sotsiolingvistikaning obyektini qaysi muammolar tashkil qiladi?

Adabiyotlar

- Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. –М., 2001.
- Белл Р. Социолингвистика. Цели, методы и проблемы. –М.: Международные отношения, 1980.
- Журавлев В.К. Диахроническая социолингвистика (предмет, задачи, проблемы) // Диахроническая социолингвистика / Отв. ред. В.К. Журавлев. – М., 1993.
- Лафарг П. Язык и революция. –М.; –Л. 1930.
- Никольский Л. Б. Язык в политике и идеологии стран зарубежного Востока. – М., 1986.
- Рябова И. С. Различия в функциональном членении суахили в Танзании и Кении // Функциональная стратификация языка. –М., 1985.
- Селищев А. М. Язык революционной эпохи. –М., 1928.
- Kjolseth R. The development of the sociology of language and its social implications // Sociolinguistics Newsletter. 1972. Vol. III.
- Labov W., Fanshel D. Therapeutic discourse. Psychotherapy as conversation. – New York; -San-Francisco; -London, 1977.

10-MA'RUZA SOTSIOLINGVISTIK TADQIQOT METODLARI

Reja:

1. Sotsiolingvistik metodlarning turlari
2. Sotsiolingvistik tadqiqot dasturi
3. Sotsiolingvistik tadqiqotlar o'tkazishga tayyorgarlik

Tayanch so'z va iboralar: sotsiolingvistik metodlar, manba to'plash metodlari, kuzatish metodi, so'rovnoma metodi, yozma manbalarni umumilmiy tahlil metodi, bevosita aralashma kuzatuv metodi, anketalashtirish, og'zaki so'rovlar, testlar, statistik tahlil, korrelatsion tahlil, sotsiolingvistik tadqiqot dasturi.

10.1. Sotsiolingvistik metodlarning turlari

Sotsiolingvistikadagi mavjud metodlarni uch turga ajratish mumkin:

- 1) manba (material) to'plash metodlari;
- 2) materialni qayta ishlash metodlari;
- 3) olingan ma'lumotlar haqoniyligini baholash metodlari.

Birinchi guruhda sotsiologiya, sotsial psixologiya va qisman dialektologiyaga taalluqli bo'lgan metodlar, ikkinchi va uchinchi guruhda matematik statistika metodlari salmoqli o'rinnegallaydi. Sotsiolingvistik materiallarni taqdim etishning ham o'ziga xos xususiyati bor. Bundan tashqari to'plangan, qayta ishlangan va statistik mezonlar yordamida baholangan material til va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi obyektiv qonuniyatlarga asoslangan aloqalarini ko'rsatib bera oladigan sotsiolingvistik talqining muhtoj bo'ladi⁷⁷.

Sotsiolingvistlar ma'lumot to'plashda ko'proq **kuzatish** va turli xil **so'rovnomalardan**, shuningdek, **yozma manbalarni umumilmiy tahlil** metodidan foydalanadilar. Tabiiyki, ko'pincha bu metodlar qorishtiriladi: yozma manbalarning dastlabki tahlilidan keyin tadqiqotchi muayyan taxminni shakllantiradi va uni kuzatish jarayonida tekshiradi; to'plangan ma'lumotlarni tekshirish uchun u o'zini qiziqtirgan ijtimeiy uyushmaning ma'lum qismini so'rovga tortishi ham mumkin.

Sotsiolingvistlar oddiy kuzatuv bilan bir qatorda ba'zan **bevosita aralashma kuzatuv metodini** qo'llaydilar. Insonlar xulqini o'rganuvchi bevosita kuzatuv usulida kuzatuvchining o'zi ham kuzatilayotgan guruh a'zosiga aylanadi. Bunda kuzatuvchi kuzatilayotgan ijtimoiy guruh a'zolaridan biron-bir belgisiga ko'ra, m:salan, millati, tili va boshqa

⁷⁷ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001. -С. 190-191.

belgilari bilan ajralib turmasligi kerak. Chunonchi, yevropalik kuzatuvchi xitoyliklar yoki negrlar guruhida bevosita kuzatuv olib borolmaydi; katta yoshdag'i tadqiqotchining o'smirlar guruhi bilan o'tkazilayotgan kuzatuvga to'liq moslashib ketishi qiyin bo'ladi; shaharlik dialektologni qishloq aholisi o'z muhitiga begona odam sifatida qabul qiladi. Masalan, mashhur rus tilshunosi Y. D. Polivanov yapon tilining Nagasaki dialektini o'rganish jarayonida uni shunchalik yaxshi o'zlashtirib olgan ediki, hatto, unda bemalol gapira olgan; biroq bu holat mahalliy aholida salbiy munosabat uyg'otgan⁷⁸. Yaponlar xorijlik olimni har qanday vaziyatda ham "o'ziniki" hisoblashmagan.

Agar bunday to'siqlar bo'lmasa, kuzatuvchi guruhga "xuddi hamma kabi" singib ketgan bo'lsa, u o'z kuzatuvchilik maqsadlarini, xatti-harakatlarini bemalol yashirishi mumkin. "Oshkor qilish" omadsizlikka olib keladi, ba'zi hollarda, hatto, kuzatuvchi hayotiga tahdid solishi ham mumkin. Bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin. Ikki yevropalik etnograf darveshlarning turmush tarzi, xulq-atvori va tilini o'rganish maqsadida ko'chmanchi musulmonlarga qo'shilib, ular orasida o'zlarini xuddi darveshlardek tutishgan. Darveshlar ham o'imlarni "o'ziniki" deb qabul qilishgan. Biroq oimlarning musiqiy ohangga oyoqlarini g'ayriixtiyoriy qimirlatib o'tirishlari ularni fosh qilib qo'ygan, chunki bunday odat darveshlarga xos bo'Imagan. Yoki filolog mahbus bilan yuz bergen voqeа ham ko'pchilikka ma'lum bo'lgan. Filolog qamoqxonada o'g'rilari jargonini mahbuslardan yashirinchha yozib olishga harakat qilgan. Biroq olimning ziyoli qiyofasi jinoyatchilarni shubhalantiradi va uni fosh qilishib, "sotqin" deb hisoblashadi. Tadqiqotchi bu mashg'ulotining ilmiy tomonini zo'rg'a tushuntirib, isbotlab bergandan keyin jinoyatchilarning o'zlariga material to'plashda yordam berishgan⁷⁹.

Tashqi kuzatuvda ham, bevosita kuzatuvda ham kuzatuvchi kuzatilayotgan nutqiy materialni qayd etib borishi kerak. Bu ikki xil usulda – qo'lda yozish yoki instrument vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Qo'lda yozish usuli juda qulay bo'lib, u maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi. Qog'oz va qalam bo'lsa, qulqlar nutqdagi muayyan dalillarni qabul qilishga "shay bo'lsa", kuzatilayotgan obyekt (kishi yoki kishilar guruhi) tadqiqotchining maqsadini payqamasa yoki bundan xabardor bo'lsa ham qarshilik qilmasa, qayd nisbatan oson va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Ayniqsa, bu usul nutqiy oqimda faqvloddha kam uchraydigan so'zlar, so'z shakllari va sintaktik konstruksiyalarni

⁷⁸ Сугито Миеко. Нагасакиэн-мисмура-ни окэру Порива: но-фу (Поливанов в деревне Миз префектуры Нагасаки) // О:сака-сё:ин-дзесидайгаку-ронсю: (Труды женского колледжа Осака-сёин). - № 20. - Осака, 1983. - С. 199.

⁷⁹ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. М., 2001. - С. 202.

kuzatishda samarador hisoblanadi. Agar vazifa alohida dalillarni emas, balki ravon nutqni, muloqot jarayonida kishilarning dialogik o‘zaro munosabatlari va talaffuz xususiyatlarini, ohang va nutqiy muomalani to‘laligicha tekshirishdan iborat bo‘lsa, u holda, qo‘lda yozish samarali bo‘lmaydi. Unda kuzatuvchi nutqiy zanjirdagi ba’zi xossalarnigina qayd etishga ulguradi va bu zanjirlarni tanlash har doim subyektivligicha qoladi.

Shuning uchun zamonaviy sotsiolingvistikada tadqiq qilinayotgan og‘zaki nutqqa doir aksariyat masalalarning yechimida instrumental texnikani, xususan, magnitofon va diktofonlarni (xatti-harakat va imoshorali muloqotlarni qayd qilishda videokameralardan ham foylaniladi) qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur vositalardan ochiq yoki yashirin foydalanish mumkin. Qayd qiluvchi vositalardan ochiq foydalanganda kuzatuvchi informantlarni o‘z maqsadi (haqiqiy yoki yolg‘on) haqida ogohlantiradi va kuzatuv jarayonida o‘rganilayotgan individlar nutqidagi tabiiy muomalani u yoki bu darajada bo‘g‘ib qo‘yuvchi mikrofon ta’sirini kamaytirishga harakat qiladi. Biroq so‘zlovchi o‘z nutqini qayd qilinayotganligini bilmaganda uning nutqi ko‘proq tabiiy va erkin chiqadi. Shuning uchun sotsiolingvistlar imkon qadar yashirin vositalardan keng foydalanishadi. Buning imkonni bo‘lмаган holatlarda ayrim tadqiqotchilar ochiq va yashirin vositalardan aralash foydalanishadi. Masalan, U. Labov o‘zining informantlari bilan ishslash jarayonida magnitofon va videokameradan ochiq foydalangan. Tanaffus paytida informantlar bir-birlari bilan erkin muloqotga kirishgan chog‘ida esa magnitofon va videokamerani yashirin qo‘llagan⁸⁰.

Sotsiolingvistikada anketalashtirish, og‘zaki so‘rovlar, testlar va ma’lumotlar to‘plashning boshqa usullari ham keng qo‘llaniladi. Bu usullar tilni egallashdagi ma’lum qonuniyatlarni aniqlashtirish va shu tilda so‘zlashuvchilarning u yoki bu muloqot sharoitlarida til qo‘llashlarini tekshirishga qaratilgan.

To‘plangan ma’lumotlar jadvalga solinadi. Agar ma’lumot ko‘p bo‘lmasa, u qo‘lda yoziladi. Keyin olingan ma’lumotlar va uning mazmuniy tahlili, matematik-statistik bahosi aniqlashtiriladi. Buning natijasida tadqiqotchi tildan foydalanish va til egalarining ma’lum ijtimoiy xususiyatlari o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlashga muvaffaq bo‘ladi.

⁸⁰ Labov W. The effect of social mobility on linguistic behavior // Sociological Inquiry. 1966. Vol. 36. № 2

10.2. Sotsiolingvistik tadqiqot dasturi

Yosh mutaxassis aniq sotsiolingvistik tadqiqot o'tkazishda qator qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar quyidagi masalalarda kuzatiladi:

- 1) kimdan ma'lumot olish;
- 2) ma'lumot olishda qanday metodlardan foydalanish;
- 3) ma'lumotlarni qanday ishlash, tahlil qilish va talqin qilish.

Mazkur savollarga javob topish uchun sotsiologlar bir qator tadqiqotlarning ishchi strategik rejalariga asoslangan dasturni taklif qilishadi.

Tadqiqot dasturi ikki: metodologik va prosedura (yoki tashkiliy-texnik) bo'limdan tashkil topadi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida sotsiolingvistik tamoyillar va metodlar belgilanadi.

Prosedura bo'limida tadqiqotning ikki xil strategik rejasি ishlab chiqiladi. Sotsiologiyada ular surishtirib biluvchi va tahliliy rejalar, deb nomlanadi.

Tadqiqotning surishtirib bilish rejasiga quyidagilar kiradi:

- 1) tanlangan mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish;
- 2) tanlangan muammolarni sotsiolingvist olimlar bilan muhokama qilish, sotsiologlardan, shuningdek, tilshunoslardan maslahat olish;
- 3) aholini ro'yxatga olish bo'yicha statistik dalillar va boshqa tegishli ma'lumotlarni o'rganish;
- 4) dastlabki kuzatuvlarni o'tkazish va ishchi taxminlarni chiqarish;
- 5) ma'lumotni tahlil qilish usullarini tanlash.

Tadqiqotning tahliliy rejasи quyidagilardan tashkil topadi:

- 1) sotsiolingvistik anketa, test yoki suhbatni ishlab chiqish;
- 2) dastlabki tadqiqotlar o'tkazish;
- 3) anketaning oxirgi variantini ishlab chiqish;
- 4) tanlov turi va hajmini aniqlash;
- 5) materialning haqqoniyligi va taqdimot bopligini ta'minlash;
- 6) anketa so'rovlarini o'tkazish;
- 7) to'plangan ma'lumotlarni ishlab chiqish;
- 9) olingan natijalarni tahlil qilish va bayon etish.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo'llaniladi:

- a) anketa so'rovnomalari (bilvosita va bevosita);
- b) suhbat usuli;
- d) kuzatish yoki bevosita kuzatish;
- e) statistik tahlil;
- f) korrelatsion tahlil.

Sotsiolingvistik tadqiqot oldiga qo‘yiladigan bunday shart-sharoitlar va rejani amalga oshirish o‘z navbatida qator muhim masalalarni yechishni talab qiladi. Mazkur kuzatuvning muvaffaqiyatli chiqishi uchun ko‘p vaqt va kuch sarf qilinadi.

Qator xorijlik tadqiqotchilar (masalan, Yevropa, Amerika maktablari) vaqt va kuchlardan unumli foydalanish uchun eng muhim savollarni (shu jumladan, sinov savollarini ham) oldindan tuzib olishni maslahat berishadi. Bu usul ilmiy tadqiqotning barcha bosqichlarida mavzuni shakllantirishdan tortib, to olingan ma’lumotlarni ishlash yoki ishni xulosa qilishda juda qo‘l keladi.

10.3. Sotsiolingvistik tadqiqotlar o‘tkazishga tayyorgarlik

1) tadqiqot mavzusini tanlash	a) kutubxona kataloglarini ko‘rib chiqish, hamkasb (yoki talabalar) bilan maslahatlashish; b) masalani ilmiy rahbar bilan muhokama qilish; d) nimaga e’tibor qaratishni aniqlash
2) tadqiqot mohiyatini belgilash	dastlabki savollar ro‘yxatini tuzish, ularni sinchiklab tekshirish; muayyan shaxslar (ilmiy rahbar, hamkasblar) bilan muhokama qilish
3) tadqiqot gipotezasi, maqsad va vazifalarini aniqlash	aynan nimani va qaysi maqsadda o‘rganishni belgilash; tanlangan soha bo‘yicha olingan bilimlarda kamchilik yoki bo‘sliq bo‘lsa, ularni qog‘ozga tushirish.
4) tadqiqot metodlarini belgilash va h.k.	statistik ma’lumotlarni izohlash va tahlil qilish, so‘rov, test o‘tkazish va h.k.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Sotsiolingvistikadagi mavjud metodlarni qanday turlarga ajratish mumkin?
2. Sotsiolingvistlar ma’lumot to‘plashda ko‘proq qaysi metodlardan foydalanadilar?
3. Sotsiolingvistik kuzatuv olib borayotgan tadqiqotchi nimalarga e’tibor qaratishi zarur?
4. Kuzatuvda nutqiy material qanday qayd qilinadi?

5. To‘plangan ma’lumotlar bilan qanday ishlanadi?
6. Sotsiolingvistik tadqiqot dasturi qanday bo‘limlardan iborat?
7. Tadqiqotning surishtirib bilish rejasiga nimalar kiradi?
8. Tadqiqotning tahliliy rejasini nimalar tashkil qiladi?
9. Tadqiqot jarayonida qo‘llaniladigan usullarga misollar keltiring.
10. Sotsiolingvistik tadqiqotlar o‘tkazishga tayyorgarlik jarayonini tushuntirib bering.

Adabiyotlar

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. -М., 2001.
2. Сугито Миеко. Нагасакикэн-миэмурा-ни окэру Порива: но-фу (Поливанов в деревне Миз префектуры Нагасаки) // О:сака-сё:ин-дзесидайгаку-ронсю: (Труды женского колледжа Осака-сёин). - № 20. - Осака, 1983.
3. Labov W. The effect of social mobility on linguistic behavior // Sociological Inquiry. 1966. Vol. 36. № 2.

SOTSIOLINGVISTIK TERMINLAR LUG'ATI (GLOSSARIY)

Adabiy til (standart) – umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, grammatik qonun-qoidalarga rioya qilinadigan, ma'lum me'yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to'g'ri qo'llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi til.

Aralash bilingvism – nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud bo'lgan tillar esa faqat uski struktura darajasida farqlanadi.

Argo – jargondan farqli o'laroq, biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo'llaniladigan u yoki bu darajadagi *yashirin, yasama* til. Masalan, giyohvandlar argosida *dori so'zi* “giyohvand modda” ma'nosida ishlatalidi.

Bilingvism (ikki tillilik) – ikki tilda erkin fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallash.

Dixaron sotsiolingvistika – til rivojlanishining jamiyat rivojlanishi bilan aloqasini tavsiflovchi jarayonlarni, ya'ni til tarixini xaiq tarixi bilan bog'lab o'rghanuvchi sotsiolingvistik tadqiqotlar yo'naliishi.

Diglossiya – bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bog'liq holda, tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga ko'chish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish. “Diglossiya” termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapirish, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga ko'ra galma-gal qo'llay olishni ham anglatishi mumkin.

Ekzogloss lisoniy vaziyat – har xil tillar majmuyi.

Endogloss lisoniy vaziyat – bir tilning tarmoqlari (ost tizimlari) majmuyi.

Hududiy dialektlar – ma'lum hududning o'ziga xos belgilari, binobarin, o'ziga xos lug'at, grammatik yoki fonetik xususiyatlari ega bo'lgan so'zlashuv tili.

Idiolekt – bir til sohibi nutqining fonetik, grammatik, leksik va uslubiy xususiyatlari.

Ijtimoiy-kommunikativ tizim – muayyan lisoaiy hamjamiyatda qo'llaniladigan, funksional jihatdan bir-birini to'ldiradigan, e'zar oloqada bo'lgan kodlar yoki subkodlar majmuyi.

Interferensiya – ikki tilni biladigan shaxsnинг bir tilining ikkinchi tiliga ko'rsatgan har qanday ta'siri va bu ta'sirning natijasi.

Jargon – biron ijtimoiy guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmuni berib ishlataladigan so'z va iboralari. Masalan, *oq* (aroq), *qizil* (vino) – ichuvchilar nutqiga xos;

strelka (uchrashuv) yoshlarning nutqida; *ko'k, ko'kat* (AQSh dollari), *dodasi* (biron narsaning zo'ri) — ko'proq bozorchilarning nutqida qo'llaniladi.

Kod — muloqot vositasi bo'lib, u tabiiy tillar (o'zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun'iy tillar: esperanto yoki zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Tilshunoslikda kod deganda lisoniy shakllar: til, hududiy yoki ijtimoiy dialekt, shahar koynesi tushuniladi.

Kodlar aralashuvi (bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o'tish) — nutqiy muloqot chog'ida so'zlovchining kommunikatsiya sharoitidan kelib chiqqan holda, bir tildan (bir til variantidan, dialektdan, uslubdan) boshqa bir til ko'rinishiga o'tishi.

Kommunikativ vaziyat — ikki yoki undan ortiq kishilar nutqiy muloqotining vaziyati.

Koordinativ (sof) bilingvizm — ikki til mutlaqo muxtor bo'lib, har biri o'zining tushunchalar majmuyiga mos keladi, ikki tilning grammatik kategoriyalari ham mustaqil bo'ladi.

Koyne — aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og'zaki muloqot vositasи.

Lisoniy vaziyat — muayyan bir vaqtida, muayyan bir joyda qanday tildan foydalaniladi, tillarning soni, qanday turdag'i til ushbu hududda ishlataladi, qancha odam, qanday sharoitda bu tilda gaplashadi, ushbu jamoa a'zolarining bu tilga bo'lgan munosabati, umuman, tilning qo'llanish doirasi haqidagi masalalarni o'z ichiga oladi.

Lisoniy variativlik — bir xil ma'noga ega bo'lgan lisoniy belgilarning shaklidagi, tashqi ko'rinishidagi nomutanosiblik, har xillik.

Lisoniy ijtimoiylashuv — muayyan jamiyatda qo'llaniladigan tilni o'zlashtirish va undan foydalanish qoidalarini u yoki bu ijtimoiy rolni ijrosiga muvofiq ishlatish.

Lisoniy kod — lisoniy hamjamiyatdagi muayyan muloqot vositalari: til, dialekt, jargon va tilning uslubiy ko'rinalishlari.

Lisoniy hamjamiyat — ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan, bir til yoki bir necha til yordamida kundalik hayotda bir-birlari va turli ijtimoiy institutlar bilan o'zaro muloqotga kirishuvchi insonlar majmuyi.

Makro setsiolingvistika — tilning u yoki bu darajada ijtimoiy omillar bilan shartlangan yirik masshtabli jarayonlarini o'rganadi. Bu jarayonlar jamiyatga to'liqligicha yoki uning katta majmuasiga: ijtimoiy qatlamlar, etnos, etnik guruh kabilarga xos bo'ladi.

Muvofiqlashgan lisoniy vaziyat – tillarning tarkibiy qismi funksional jihatdan bir xil ahamiyatga ega bo‘lib, bir xil muloqot vazifasini bajargan holda yuzaga keladi.

Muvofiqlashmagan lisoniy vaziyat – tillarning tarkibiy qismi funksional jihatdan har xil muloqot muhitida va turli ijtimoiy guruhlarda taqsimlanganda yuzaga keladi.

Nutq akti – u yoki bu kommunikativ vaziyat doirasidagi so‘zlovchining aniq nutqiy harakatlari.

Nutqiy muomala – kommunikativ vaziyat qatnashchilaridan bo‘lgan yo so‘zlovchi (adresant), yo tinglovchi (adresat)ning nutqi yoki nutqiy reaksiyasini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos xususiyatlari.

Sinxron sotsiolingvistika – til va jamiyat aloqalariga tegishli munosabatlar va jarayonlarni o‘rganadi. Munosabatlar bu aloqalarning statikasini, jarayonlar esa ularning dinamikasini ifodalaydi.

Sleng – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og‘zaki nutqida qo‘llilaniladigan, emotsiyonal-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar. Masalan, “tusovka”, “telejka”, “tachka” va h.k.

Sotsiolekt – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli.

Sotsiolingvistika – tilshunoslikning tilni va uning mayjud bo‘lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liqligini o‘rganadigan sohasi. U tilning ijtimoiy tabiatini, ijtimoiy funksiya(vazifa)larini, shuningdek, ijtimoiy omillarning tilga bo‘lgan ta’sir mexanizmi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi.

Subordinativ bilingvizm – so‘zlashuvchilar ikkinchi tilni ona tilining ta’siri vositasida qabul qiladi: tushuncha ona tilining leksik birliklari, qolganlar esa ikkinchi til birliklari bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.

So‘zlashuv tili – adabiy til me’yorlariga ega bo‘lmagan, ma’lumotsiz va o‘ita ma’lumotli shahar aholisining nutqi.

Til me’yori – biror bir jamiyatda, muayyan bir davrda lisoniy vositalarni tanlash, belgilash va ulardan foydalanish qonuniyatlar.

Tilni planlashtirish – “til siyosati”ga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, tilga nisbatan bo‘lgan har qanday ongli va ma’lum maqsadga qaratilgan o‘zgarishlar.

Til siyosati – davlat, sind, ijtimoiy guruhlarning mayjud tillar yoki til osti tizimlari vazifalarini o‘zgartirish yoki saqlab qolish, yangi lingvistik me’yorlarni joriy qilish yoki eski me’yorlarni saqlab qolishga qaratilgan tadbirlar majmuyi.

Til sotsiologiyasi – fanlararo chatishgan soha bo'lib, u sotsiologik maqsad va tadqiqot metodlarini lingvistik materiallar bilan aloqadorlikda tadqiq etadi.

Til qo'llash sohasi – so'zlashuvchilarning muayyan til vositalari va ularning bir-biri bilan birikuv qoidalarini tanlab olib amalga oshishini qondiradigan, bir xil kommunikativ ehtiyojlarni tavsiflaydigan til tashqarisidagi muhit sohasi.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-ma’ruza. Lisoniy hamjamiyat va ijtimoiy-kommunikativ tizimlar	9
1.1. Lisoniy hamjamiyat.....	9
1.2. Ijtimoiy-kommunikativ tizim.....	10
1.3. Lisoniy kod.....	10
1.4. Til qo’llash sohasi.....	11
2-ma’ruza. Lisoniy hamjamiyatning muloqot vositalari	13
2.1. Adabiy til.....	13
2. 2. Dialekt.....	14
2.3. Sotsiolekt.....	15
2.4. Argo, jargon, sleng.....	16
2.5. Koyne.....	18
2.6. So‘zlashuv tili.....	19
3-ma’ruza. Variativlik turlari	22
3.1. Lisoniy variativlik.....	22
3.2. Ijtimoiy variativlik.....	23
3.3. Gender variativlik.....	24
4-maruza. Sotsiolingvistikada lingvistik tushunchalar	27
4.1. Til me’yori.....	27
4.2. Nutqiy muloqot.....	28
4.3. Nutqiy muomala.....	29
4.4. Nutq akti.....	29
5-ma’ruza. Sotsiolingvistikada psixolingvistik va sotsiologik tushunchalar	31
5.1. Kommunikatsiya.....	31
5.2. Kommunikativ vaziyat.....	32
5.3. Til egasining kommunikativ salohiyati.....	32
5.4. Ijtimoiy maqom va ijtimoiy rol.....	33
5.5. Lisoniy ijtimoiylashuv.....	34
6-ma’ruza. Kodlar aralashuvi: diglossiya va bilingvism	36
6.1. Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o’tish.....	36
6.2. Diglossiya va bilingvism.....	38
6.3. Bilingvizmning turlari.....	40
6.4. Interferensiya.....	41
7-ma’ruza. Tillarning aralashuvi. Pijinlar va kreol tillar	44
7.1. Tillar aralashuvi. Pijinlar va kreol tillar.....	44
7.2. Aloqaviy tilning vujudga kelishi.....	45

7.3. Pijin turlari va ularning rivojlanish jarayoni.....	46
7.4. Rivojlangan muloqot tillarining shakllanishi.....	48
7.5. Rivojlangan pijin va kreol tillarining qo'llanilishi.....	49
8-ma'ruza. Lisoniy vaziyat va til siyosati.....	52
8.1. Lisoniy vaziyat.....	52
8.2. Ekzogloss lisoniy vaziyat.....	53
8.3. Endogloss lisoniy vaziyat.....	55
8.4. Til siyosati.....	56
8.5. Tilni planlashtirish.....	59
9-ma'ruza. Sotsiolingvistikaning asosiy yo'nalishlari.....	62
9.1. Sinxron va diaxron sotsiolingvistika.....	62
9.2. Makro va mikro sotsiolingvistika.....	65
9.3. Nazariy va tajribaviy sotsiolingvistika.....	67
9.4. Sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi.....	69
9.5. Amaliy sotsiolingvistika.....	70
10-ma'ruza. Sotsiolingvistik tadqiqot metodlari.....	71
10.1. Sotsiolingvistik metodlarning turlari.....	71
10.2. Sotsiolingvistik tadqiqot dasturi.....	75
10.3. Sotsiolingvistik tadqiqotlar o'tkazishga tayyorgarlik.....	76
Sotsiolingvistik terminlar lug'ati (Glossariy).....	78

SHOIRA RUSTAMOVNA USMANOVA,
NARGIZ ISLAMOVNA BEKMUXAMEDOVA,
GULBAHOR TURABAYEVNA ISKANDAROVA

SOTSIOLINGVISTIKA

(O‘quv qo‘llanma)

Muharrir D.Akmalova

Bosishga ruxsat etildi 05.02. 2014 y.
Bichimi 60x84 1/16 Tezkor “rizograf”da bosildi.
Nashriyot hisob tabog‘i 6.1. Shartli bosma tabog‘i 8.8
Adadi 300 nusxa. Bahosi shartnomaga asosida.
Buyurtma № 10.

“Universitet” nashriyoti, Toshkent-100174.
Talabalar shaharchasi.

M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU bosmaxonasida bosildi.

